

S.ABDIRASIROV, N. TOLIPOV

# RANGTASVIR



S. ABDIRASIROV, N. TOLIPOV

# RANG TASVIR

5110800 - tasviriyl san'at va muhandislik grafikasi  
bakalavriat ta'lif yo'naliishi talabalar uchun

## DARSLIK



Toshkent  
“INNOVATSIYA-ZIYO”  
2019

**УДК: 75  
ББК: 85.14**

**A 12**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RSTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOMONIDAN DARSLIK SIFATIDA NASHRGA TAVSIYA ETILGAN**

**Abdirasilov Sunatulla Fayzullayevich, Tolipov Nazim Xamidovich  
“Rangtasvir/darslik/-T.: “INNOVATSIYA -ZIYO”, 2019.-178 b.**

**TAQRIZCHILAR:**

- S.ABDULLAYEV** - K.BENZOD NOMIDAGI MRDI PROFESSORI,  
O'ZBEKISTON BADIY AKADEMİYASINING AKADEMIGI
- R.XALILOV** - NIZOMIY NOMIDAGI TDPU TASVIRIY SAN'AT VA UNI  
O'QITISH METODIKASI KAFEDRASI DOSENIDI

Mazkur darslik pedagogika instituti va universitetlarning bakalavr ta'limga yo'nalişidagi talabalar uchun tayyorlangan. Darslikda tasviriy san'atning yetakchi bo'g'ini hisoblangan rangtasvir fani bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar yoritilgan.

Ushbu darslik rangtasvir fanidan tuzilgan dastur asosida bo'lib, unda tasviriy san'atning o'quv jarayonida rangtasvir fanini - ranglar san'ati, rangtasvirmish rivojlanish tarixi, zamonaviy rangtasvirming turlari va janrlari, ranglarning ilmiy xususiyatlari va rangtasvir mashg'ulotlarida, plenerda kompozitsiya to'g'risida fikrlar yuritilgan.

Данный учебник предназначено для студентов-бакалавров педагогических институтов и университетов. В учебнике представлен теоретический и практический материал по живописи – искусства цвета, являющейся основным жанром изобразительного искусства, в нем также освещены вопросы о видах и жанрах современной живописи, из истории живописи, свойствах цвета и композиция в живописи на занятиях и на пленэре.

Учебник написано в соответствии с программой, составленной по предмету живописи

## KIRISH

Tasviriy san'at nazariyasini muntazam o'rganish ushbu ta'limni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning asosi hisoblanadi. Rangtasvir qonun-qoidalari puxta egallagan talabagina amaliy ijodda samarali shug'ullanishi mumkin.

Kimda-kim ilmni amaliyotsiz tasavvur etsa, u bamisoli suzishga eshkaksiz chiqayotgan qayiq haydovchisidir va u hech qachon qayerga ketayotganligiga to'la ishonch hosil qila olmaydi, - deb ta'kidlagan edi Leonardo da Vinchi, - rangtasvir sohasida amaliyot hamisha kuchli nazariya bilan bog'liq holda amalgalashish zarur va bularsiz hech narsaga erishib bo'lmaydi.

Rus rassomi va pedagogi D.N.Kardovskiy aytib o'tganidek, san'atni o'rganayotganlar tasvirlashning yo'llari va usullari, ya'ni narsalarning shakli, nisbatlari, rangi, yorug'ligi, xususiyati va harakat qonuniyatlariga bo'y sunishga majburdirilar.

Tasviriy san'at tarixi rangtasvirni amaliy o'rganishda juda katta metodik tajribaga ega. Metodikaga oid adabiyotlarda juda qimmatli materiallar to'plangan bo'lib, ularda ko'plab texnik va texnologik maslahatlar yoritilgan. Rangtasvir nazariyasiga kelsak, bu masalada tarixiy merosning ahamiyati unchalik sezilmaydi. Rus badiiy akademiyasida ham rangtasvirni amaliy tarzda o'qitish juda kuchli bo'lgan, biroq tasvirlashning nazariy asoslari ishlanmasiga yetarli e'tibor berilmagan.

Keyingi vaqtida tasvirlashni nazariy o'qitish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bir qancha metodik qo'llanmalar nashr etilgan. Ularda yorug'-soya, ranglar majmuasi, havo perspektivasi qonuniyatlarini nazariyasi mukammal ochib berilgan. Biroq, bu qo'llanmalarda ham tasviriy faoliyat bekam-u ko'st yoritilmagan.

Ta'lim olish jarayonida talabalar rangtasvirning asosiy qonunlari - rang va tus munosabatlari hamda ularni aniqlash usullarini egallashlari lozim, chunki aynan shular rangtasvirning nazariy kursi tarkibiga kiradi.

Bundan tashqari, rangtasvirni o'qitishning nazariy kursiga shunday savollar ham kiritilishi lozimki, ular rangtasvir janrlarining xilma-xilligi, zamonaviy san'at turlari va oqimlari, rangtasvirda qalamtasvirning asosiy o'rni, havo perspektivasi, qog'oz yuzasida hajmli buyumlarning fazoviy joy lashuvni, tasvirlash qoidalari, soya-yorug'lik qonuni. qo'yilmani metodik ketma-ketlikda tasvirlay bilish, ishni rang va tus jihatdan yaxlit holatga keltirish va boshqalardir.

Mazkur darslikda rangtasvir nazariyasi fani bo'yicha qo'yilgan asosiy savollarga javoblarni o'zlashtirish mumkin.

## RANGTASVIR JANRLARINING XILMA-XILLIGI

Rangtasvir ishlash texnikasi yillar davomida takomillashib kelgan, turli-tuman syujetlar rassomlarning diqqat-e'tiborini tortgan. Shu tufayli, XVII asrda rangtasvir, grafika va haykaltaroshlik san'atida turli janrlar paydo bo'la boshladi. Quyidagi janrlar mavjud: portret, natyurmort, manzara, animalistik, tarixiy, mifologik va boshqalar.

Janrlarning rivojlanishi va tarixini ko'rib chiqamiz.



N. Kashina. Qiz portreti.



J. Izentayev. Qumg'on bilan natyurmort.



A. Mirsoatov. Xojikent. Manzara.



A. Aliqulov. Ot.



J. Umarbekov. A. Navoiy yoshligi.



T. Pirmatov. Qizlar.

**Janr** - (fransuz. tur, ko'rinish). Tasviriy san'atda janr deyilganda, chegaralangan mavzuni o'zida aks ettiradigan san'at asarlari tushuniladi. Masalan, manzara, tabiat ko'rinishlarini aks ettiradigan rasmlarni manzara janriga oid rasmlar deyiladi. Alovida yoki odamlar to'pini aks ettiradigan rasmlar esa portret janridagi rasmlar deyilsa, meva, gul, uy buyumlari va shunga o'xshash narsalarning tasvirini aks ettiruvchi rasmlar natyurmort janridagi rasmlar deyiladi.

**Inter'yer** (fransuz. intérieur - ichki) janrida, xonaning ichki ko'rinish tasviri aks ettiriladi.

**Ippik janri** (yunon. hippos – loshad) – bu janrda uning asosiy motivi otlarning tasviri hisoblanadi.

**Syujetli-mavzuli kartina** – rangtasvirda an'anaviy janrlarining aralashuvi (maishiy, tarixiy, batal, portret kompozitsiyasi, manzara va boshq.). Bu janr san'atshunoslik va badiiy amaliyotda 1930-yillarda paydo bo'lgan.



*Syujetli-mavzuli kartina.*

**Xua Nyao** (xitoy tilidan tarjimasi – qushlar va gullar) - qush va gullarni tasvirlovchi xitoy rangtasvirining janri.

**Shan shuy** (xitoy tilidan tarjimasi – tog'lar va suv) – tog'lar va sharsharalarni aks ettuvchi xitoy rangtasvir janri.

**Portret** – fransuzcha portrait – tasvir degan ma'noni anglatadi. Real hayotda mavjud bo'lgan yakka, ikki yoki bir guruh kishilarning rassom tasavvurida paydo bo'lgan xayoliy qiyofasi tasviri.

Portret asosida aniq shaxsning qiyofasini abadiylashtirish yotadi. Portretning muhim tomoni tasvirning tasvirlanuvchiga aynan o'xshashligidir. Ijodkor portret orqali tasvirlanuvchi shaxsning ma'naviy dunyosini, ijtimoiy hayotdagi o'rmini, kasbi, jamiyatdagi mavqeini aks ettiradi va uning shu jihatlari orqali davr xususiyati, siyosiy-iqtisodiy ahvol haqida ma'lumot bera oladi. Rassomning kasbiy mahorati uning portret ishslash uchun tanlangan materiallariga takrorlanmas o'zigaxoslik baxsh etadi.

Tarixan portretning xilma-xil tur va ko'rinishlari shakllangan. Ular: ishlanish usuli, bajaradigan vazifasi, shakli, mazmuni, dastgoh va monumental turlari bo'yicha. Portret janridagi bir asarda ko'pincha bir necha janrlar qo'shilishi mumkin. Portretda tasvirlanuvchi sof holda zaminsiz, ya'ni atrof-muhitni aks ettirmasdan, tinch holatda yoki biror faoliyati bilan ma'lum muhitda tasvirlanishi mumkin. Shuning uchu portret

shartli ravishda portret va portret-kartina(janqli portret)ga ajratiladi. Portretning keng tarqalgan turlaridan biri *avtoportret* hisoblanadi. Portretlar tasvirlanayotgan kishilar soniga ko'ra, belgacha olinganligiga ko'ra, qaddi bilan, guruhli, inter'yerdagi, manzara fonidagi portretlarga bo'linadi.



Uyg'onish davrida portretning rangtasvir, haykaltaroshlik va grafika turlari yuksak taraqqiy etdi. Faol, o'z qadr-qimmatini biladigan, qo'rmas, jasur inson qiyofasi bu davrning bosh qahramoniga aylandi. Borliqni ilmiy asosda o'rganish va shu bilimlarni amaliyatda qo'llashga intilishlar portretning yangi tizimini yuzaga keltirdi.

Endilikda tasvirlanuvchi noreal makon va muhitda emas, balki insonga yaqin bo'lgan tabiat qo'ynida aks ettirildi.

Yuksak Uyg'onish davri buyuk ijodkorlari Leonardo da Vinci, Rafael, Jorjone, Titsian, Van der Veyden, A.Dyurer, Katta Lukas Kranax, Kichik Xolbeyn va boshqalar portretdagi obrazlar mazmunini chuqurlashtirdilar.



Titsian. Avtoportret.



A.Laktionov. Avtoportret.



A.Schmidt. Portret inter'yer.



*A.Dyurer. Avtoportret.*



*M.Saryan. Avtoportret. Uchta yoshda.*



*A.Laktionov. Deraza fonidagi portret.*

XVII asrda demokratik qarashlarning ortib borishi natijasida insonga chuqur muhabbat bilan sug'orilgan, nozik his-tuyg'ularni anglash va tasvirlashga qaratilgan to'laqonli va harakatga boy portretlar maydonga keldi, guruh portret rivojlana boshladi. Avtoportret shu izlanishlar mahsulidir, rassom inson ruhida bo'ladigan o'zgarishlarni o'z qiyofasida, qarash, yuzdag'i mimika o'zgarishlarida ifodalashga harakat qildi. XVII asr portretlarida shaxsning ijtimoiy mavqeい, jamiyatdagi o'rni haqqoniy aks eta boshladi.



*L.da Vinchi. Oq suvsar bilan ayol.*



*Rafael Santi. Donna Velata.*



*A.Dyurer. Rassom otasining portreti.*



*G.Golbeyn Ml. Sharly de Sole portreti.*

XVIII asrda portret san'ati uslublarga boy va rang-barang bo'ldi. Klassitsizm, romantizm, tanqidiy realizm shu davrda ishlangan portretlarga ta'sir etdi. Inqilobiy ruh bilan sug'orilgan va ko'tarinki romantik ruhda ishlangan kinoyaga boy asarlar portret san'atini va uning rang-barangligini o'zida namoyon qildi. XIX asrning oxirgi choragida portret janrida tasvirlanuvchining ruhiy holatlarini tabiat bilan bog'lay boshladilar.



*E.Mane. Lola.*



*O.Renuar. Janna Samari portreti.*



*Van Gog. Doktor Gash portreti.*



*P.Sezann. Viktor Shok portreti.*

Portretda impressionistlar E.Mane, O.Renuar, O.Roden va boshqalar, postimpressionistlardan P.Sezann, Van Goglar tasvirlanuvchilarning o'zgarmas shakli orqali uning to'laqonli obrazlarini yaratishga, shakllar harakatida dramatik holatlarni ko'rsatishga intildilar. XX asr portret san'ati murakkab, ziddiyatlidir. Bir tomondan realistik portret o'z imkoniyatlarini yanada chuqurlashtirib, inson fe'lidagi butun nozik o'zgarishlarni to'liq ochishga, uning falsafiy-dunyoviy o'y-xayollari, tasavvur va tahminlarini aks ettirishga, uning plastik tomonlarini kuchaytirishga intilsa (Germaniyada K.Kolvits, E.Barlux, Fransiyada – Sh.Despo, P.Pikasso, A.Matiss, Italiyada Modilyani, R.Guttuzo, Meksikada – D.Rivera, D.Sikeyros, AQSHda – E.Uayet, Yaponiyada – Seyson Maeda, Rossiyada



*P.Pikasso. Kreslodagi Olga*



*A. Matiss. Yashil tasma.*



*D.Rivera. Qizcha.*



*P.Korin. N.Peshkova portreti.*

I.D.Shadr, M.V.Nesterov, P.D.Korin va boshqalar), ikkinchi tomondan shu davrda keng yoyila boshlagan modernizm uslubi portretga o'z ta'sirini o'tkazdi. Bu yo'nalish tarafdorlari shu borada tajriba ishlarini olib borib shakl, chiziq, rang, faktura imkoniyatlaridan foydalangan holda obraz yaratishga harakat qildilar.

Boburiylardan Akbar va Jahongir davrida ayrim shaxslar tasviri bilan

birga guruhli, ya'ni ko'plab a'yonlar ishtirokida portret yaratish taraqqiy etgan. Ushbu portretlardan keyinchalik yevropalik rassomlar Rembrand, J.Reynolds va boshqalar ma'lum darajada o'rgangan, ilhomlangan.

XX asrning 30-50-yillaridan zamonaviy rangtasvirdagi portret rivojlandi. Shu davrda portretning hamma ko'rinishlari portret, avtoportret, guruhli portret, portret-kartina, tarixiy portretlarda bir qancha asarlar yaratildi.



*Rembrand. Saskiya  
portreti.*

*J.Reynolds.  
Portret.*

1. Boburiylar sulolasini asoschisi; 2. Humoyunshoh; 3. Akbarshoh; 4. Shohjahonning otasi – Jahongir; 5. Tojmahalni barpo etgan imperator Shohjahon; 6. Shohjahon va Mumtoz o'g'li – imperator Avrangzeb.



*A.Abdullaev. Sharqshunos  
portreti.*



*O'. Tansiqboev.  
Tashkenboev portreti.*



*M.Nahiev. A.Temur  
portreti.*

Bahrom Hamdamiy, L.Nasriddinov, Sh.Hasanova, A.Abdullayev, O'.Tansiqboev, M.Nabiiev va boshqalar portretning dastlabki namunalarini yaratdilar. 50-60-yillardan portretning diqqatga sazovor namunalari yaratildi.



B.Jalolov. Hindiston.



S.Rahmetov. G'afur G'ulom  
portreti

Bugungi kunda o'zbek portretchiligi jahon san'ati rivoji fonida o'z mavqeい va o'miga ega. B.Jalolov, A.Ikromjonov, S.Rahmetov va boshqalarning asarlarida zamon ruhi Sharq va G'arb san'ati an'analari silsilasida o'z aksini topgan.

**NATYURMORT** - frans.nature morte - jonsiz tabiat – tasviriy san'at janri hisoblanadi. Insonning atrofini o'rab turgan real maishiy muhitda joy lashgan va kompozitsiya jihatdan yaxlit guruhni tashkil qilgan narsalar tasvirlanadi.

Natyurmortda jonsiz buyumlar, masalan, uy-ro'zg'or buyumlari, turli atributlar, meva-sabzavotlar, gullar, qush va hayvonlarning tulumlari, quroq-aslahalar tasvirlanadi. Asosiy mavzuni to'ldirish uchun ba'zan natyurmortga odamlar, hayvonlar, qushlarni ham kiritish mumkin.



Lichi. Jozef Shan Pao Lo.



Anor. Xitoy rangtasviri.

Xitoy rassomlari mevalarni ko'proq novdasi bilan yoki natyurmort kompozitsiyasining bir bo'lagi sifatida tasvirlashgan, masalan baliq bilan. Bu xotirjamlik va mo'l hosil ramzi bo'lib, u yaxshi tilak sifatida foydalananiladi: xurmo Xitoyda har doim yangi yil bayramida oliy meva

hisoblangan. Juda ko'p urug'li ho'l meva, masalan, qovoq, tinchlik-xotirjamlik va ko'p bolali bo'lish bilan bog'liq bo'lib, "juda ko'p shukrona" olib keluvchi hisoblanadi.

Natyurmortda tasvirlayotgan buyumlar o'z egasining fe'l atvorini, qiziqishini yoritishga yoki buyumlarning shakli, rangi, fakturasi, tuzilishidagi ritmik, dinamik va statik holatlarini ko'rsatishga qaratilgan.

Natyurmort qadimgi Misrda devorga ishlangan freskalarda, ellenizm davri mozaikalarida, Xitoyda qush va gullardan kompozitsiya bo'lagi sifatida ma'lum bo'lgan. Yevropada XVI asr oxiri XVII asr boshlaridan mustaqil ahamiyatga ega bo'lib, eng taraqqiy etgan davri XVII asrga to'g'ri keladi. XVIII asrdan «Natyurmort» atamasi qo'llanila boshladi. Italian rassomi M.Karavajo va uning izdoshlari natyurmortning keng tarqalishida muhim rol o'yndadi. Ularda gul va mevalar, dengiz in'omi - baliq, qisqichbaqalar sevimli mavzuga aylandi. Gollandiyalik V.K.Xeda, P.Klas. Flandriyalik F.Sneyders, Ya.Feyt, ispaniyalik F.Surbaran, fransiyalik J.B.Sharden va boshqalarda natyurmort janri yuksak taraqqiyotga erishdi. P.Sezann, A.Matiss, J.Brak va boshqalar natyurmortga ko'proq o'z e'tiborlarini qaratganlar.



*Alst Villem Van  
Klass Xeda.  
Qushlar bilan  
natyurmort.*



*Villem Klass Xeda.  
Mevali natyurmort.*



*Petrov-Vodkin.  
Ertalabki nonushta.*

XX asrda natyurmort janrining realistik an'analari Meksikada D.Rivera, D.Sikeyros, Italiyada R.Guttuzolar davom ettirdilar. Rossiyada natyurmort XVIII asrda paydo bo'ldi. XIX asr birinchi yarmida M.A.Vrubel, K.Korovin, I.E.Grabar va boshqalar natyurmort janrida haqqoniylikka, borliqning o'zidan go'zallik topishga harakat qildilar.

O'zbekiston tasviriy san'atida natyurmort unsurlari qadimgi davr san'atida, masalan, Afrosiyob devoriy rasmlarida – vazadagi mevalar,

miniatura san'atida - Kamoliddin Behzodning Shayboniyxon portretida tasvirlangan siyohdon, qamchi kabi buyumlar uchraydi. Natyurmortning haqiqiy shakllanishi va rivojlanishi XX asrning 30-50-yillariga to'g'ri keladi. Ayni shu davrda rassomlarning ijodida natyurmortning dastlabki namunalari paydo bo'ldi: L.Nasriddinovning "Nonli natyurmort", Sh.Hasanovaning "Xitoy chinnisi bilan ishlangan natyurmort"i fikrimiz dalilidir. M.Kurzin, V.Rojdestvenskiy, V.Ufimsev, N.Kashina, Z.Kovalevskaya, O.Tatevosyan, S.Abdullayev, V.Fadeyev, Yu.Elizarov va boshqalar turli mavzularda natyurmort kompozitsiyalarini yaratdilar.



*M.Kurzin. Natyurmort.*



*N.Kashina. Ne'matlar.*



*R.Ahmedov. Kuz ne'matlari.*

60-80-yillarda L.Salimjonova, Yu.Taldikin, R.Choriyev, V.Burmakin, E.Melnikovlar ijodida natyurmort janri keng o'rin tutadi. Rassomlar R.Ahmedov, A.Ikromjonov, M.Nuriddinov va boshqalar natyurmort janrida samarali ijod qilib, uning taraqqiyotini ta'minladilar.

**Manzara** – tasviriy san'atning tabiat ko'rinishini aks ettiradigan janri hisoblanadi. Manzarada shahar ko'rinishi yoki me'moriy majmualar, dengiz ko'rinishlari (marina) va boshqalar ham tasvirlanadi. Atrof-muhitni tasvirlayotgan rassom unda o'zi va zamondoshlarining tabiatga munosabatlarini ifoda etadi, shu jihatdan yaratilayotgan asar his-tuyg'u va g'oyaviy mazmunga ega bo'lib. muhim ahamiyat kasb etadi. Inson tomonidan atrof-dunyonи ma'naviy o'zlashtirishning turli tomon va darajalarini aks ettirilgan. Manzara o'zida katta ma'no tashiydi. Tabiat tasvirlari tabiat, uning qonuniyatları haqidagi tasavvurlar (olam gumbazi, oy, quyosh, yulduzlar, dunyo mamlakatlarining shartli belgilari) yuzaga, kelgan payt (neolit)dan o'z ifodasini topgan. Qadimgi Sharq madaniyatida tabiatni yaxlit holda aniq xususiyatlarga ega bo'la boshlagan hodisalar muhiti degan tasavvur shakllangan. Miloddan avvalgi XVI-XV asrlarda

Qadimgi Sharq (Bobil, Ossuriya, Misr) devoriy rasmlari va bo'rtma tasvirlaridagi jang, ov va boshqa lavhalarda manzaraning ayrim bo'laklari mavjud. Misr devoriy rasmlari va bo'rtma tasvir (relef)larida ilk bor bezaklar ritmi orqali hayvonot, o'simlik va tabiiy hodisalarining ishonarli, ta'sirchan birligiga erishilgan.



*Qadimgi Yunon manzarasi.*



*K.Behzod. Manzara.  
Miniatyura.*



*Z.Bobur.  
Miniatyura.*

Yunon san'atida odatda, manzara tarkibiy qismlarini inson tasviridan ajratib bo'lmaydi. Erkak qomati to'q qizil rangda bo'yalib atrofini qora bilan chizib chiqishgan, ayol qomati esa och sariq rangga bo'yalgan, atrofi qizil chiziq bilan yurgizilgan. Sochlari qora rangda tasvirlangan, kiyimlarini esa oq rangga bo'yashgan. Yevropa o'rta asrlar san'atida manzara (ayniqscha, shahar va alohida bino ko'rinishlarida), odatda, voqeа sodir bo'layotgan joyning fazoviy qurilishini aniqlash vositasi sifatida xizmat qilgan. Musulmon Sharqi mamlakatlarida XIII-XIV asrlardan kitob miniaturalarida manzaraga ko'proq o'r'in berilgan:



*Si Bayshi. Tog'lar va suvlar.*



*Fan Kuan. Tog'lar.*

- yashnab turuvchi, sof bo'yog'i va gilamday tekis sathli kompozitsiyasi. sehrli bog' tasavvurini yaratuvchi tabiatи, har bir bo'lak jo'shqin

ko'tarinkiligi bilan diqqatga sazovor. Hindiston (ayniqsa, Boburiylar davri miniatura maktabi asarlarida), Hindixitoy, Indoneziya (afsonaviy va epik mavzudagi rel'eflardagi tropik o'rmonlar obraz) o'rta asrlar san'atida landshaft detallari, ayniqsa, jo'shchin qudratga ega. Manzara mustaqil janr sifatida Xitoyning o'rta asrlar tasviriy san'atida o'ta muhim o'rinn tutadi.



Manzaraga tabiatning doimo yangilanib turuvchi olam qonunining ko'rgazmali umumlashmasi sifatida qaralgan (bu "tog'lar – suvlar" manzara turida o'z ifodasini topgan).



*Yaponiya. Gul va kapalak.*  
A.Dyurer. O'tlar to'pi.



*F.Matveev. Manzara.*

**Shan shuy** – tog'lar va suv sharsharalarini tasvirlovchi xitoy rangtasvir janri.



**Xua Nyao** – qush va gullarni tasvirlovchi xitoy rangtasvir janri.

Yaponiya san'ati (XII-XIII asrlar)da manzara bezak san'atida eng muhim ohanglarni alohida ajratib olishga moyilligi bilan diqqatga sazovor. G'arbiy Yevropa san'atida manzaraga asar ruhiy olamining muhim qismi sifatida qaralgan. Shartli zamin (tilla yoki naqshli) manzara bilan almasha borgan. Uyg'onish davri rassomlari chizgi va etyudlarida olam haqidagi ratsional qonunlarga amal qilib, manzaraga real voqealar muhit sifatida qaraganlar (italyan Leonardo da Vinci, J.Bellini, Titsian, nemis A.Durer, M. Nitxardt va b.), ayni shu davrda manzaraning alohida janr sifatida shakllanishiga (avvalo grafikada) zamin yaratildi.



*M.Vorobev. Manzara.*



*I.Levitan. Park.*



*I.Shishkin.  
Emanlar.*

XIX asr rus manzara janrida romantik an'analar yetakehi rol o'yanagan bo'lsa (F.Matveyev, M.Vorobev, I.Ayvazovskiy), XIX asr ikkinchi yarmida peredvijniklar harakati bilan bog'liq realistik manzara janri gurkirab o'sdi (I.Shishkin, A.Savrasov, I.Levitan va b.).

XX asrda Yevropa va Amerikada texnika olamini tabiatga qarshi qo'yuvchi industrial manzara keng tarqaldi. Realistik manzara ham jadal rivojlandi, unda go'zal tabiat o'ziday tabiiyligicha tasvirlanadi.

O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududida o'rta asrlar san'atida musulmon Sharqi mamlakatlari bo'lgani kabi naqsh-bezak asosiy o'rinni egallagan. Girih, islamiy naqshlarda uslublashtirilgan o'simlik bo'laklari ko'p ishlataligan. O'rta Osiyoda shakllangan miniatURA maktablari vakillari qo'lyozma kitoblarga ishlagan rasm va bezaklar bo'yoqlarining uyg'unligi, zamin sifatida manzara va me'morlikka e'tiborning kuchliligi bilan diqqatga sazovor. O'rta Sharq san'ati, jumladan, Hirot, O'rta Osiyo miniatURA san'atida manzara yuksak darajada namoyon bo'lgan. Ayniqsa, Kamoliddin Behzodning mo'jaz asarlarida manzara, tabiat ko'rinishi mahorat bilan ishlangan. Uning davomchilari Mahmud Muzahhib, Abdulla Musavvir, Muhammad Murod Samarqandiy, Muhammad Nodir Samarqandiy va boshqalar ijodida ham manzara ko'rinishlari muhim o'rIN egallaydi.



*R.Timurov. Qazish ishlari.*



*N.Kuziboev.  
Tog'da. Etyud*



*A.Mirsoatov. Zominda  
kuz.*

O'zbek manzara janrining haqiqiy rivojlanishi XX asrga to'g'ri keladi. Shu davrda dastgoh san'atida manzaraning nodir namunalari yaratildi. P.Benkov, O'.Tansiqboyev, N.Qoraxon, R.Temurov, R.Ahmedov, N. Qo'ziboyev, A.Mirsoatov va boshqalar, bu sohada samarali ijod qildilar va o'zbek tasviriy san'atida manzara janri rivojiga katta hissa qo'shdilar.

**Marina** (frans. marine, ital. marina - dengiz) – dengiz ko'rinishini aks ettiradigan manzara turi. Mustaqil rangtasvir turi sifatida XVII asr Yevropa san'atida ajralib turadi. Dengiz, dengiz hayotidagi muhim tarixiy voqealar, harbiy kemalar tafsilotini aynan tasvirlashda dengiz bezagi sifatida xizmat qiladi.



*Yan Porsellis. Dengizda bulutli kun.*



*Xendrik Villem Mesdag. Baliqchilar  
qayiqlari.*

Golland marinachilari marina imkoniyatlarini kengaytirib, dengiz tabiatini va u bilan bog'liq baliqchilar hayotini haqqoniy aks ettirdilar (Ya.Porsellis, S.de Vliger, X.Segers va boshqalar), dabdabali marina turini yaratdilar.

XVIII–XIX asrlarning yirik marinachilari K.Verne (Fransiya), U.Terner (Buyuk Britaniya), X.Mesdag (Gollandiya), I.Ayvazovskiy, A.Bogolyubov (Rossiya) va boshqalar.



X. Mesdax.  
Baliqchilarning  
qaytishi.



A. Bogolyubov. Livadiya imperator kemasini so'nggi  
daqiqasi.



I. Ayvazovskiy. Kun botishi.



I. Ayvazovskiy. Qrim sohillari.



I. Ayvazovskiy. Yalta sohillarida.



I. Ayvazovskiy. To'fonda.

O'zbekistonda marina janriga oid dastlabki asarlar XX asrning 30-yil - larida paydo bo'lgan. bir qator rassomlar (B.Serekeyev, R.Matevosyan, J.Izzentayev va boshqalar)ning Orol dengiziga bag'ishlangan asarlari bor.



Rafael Matevosyan. *Qumdag'i kemalar.*



J.Izzentayev. *Orol tubanlikda.*

**Animalist** (lot. animal - hayvon) – tasviriy san'atda hayvonlarni tasvirlash. Bu sohada ishlovchi rassom va haykaltarosh animalist deb ataladi. Tabiatning ajoyib mahsuli bo'lgan hayvonot olami – sunda, quruqlikda yashovchilar, qushlar insonni juda qadimdan qiziqtirgan, hayvonot dunyosi umuman inson uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

XVII asr golland tasviriy san'atida hayvonlarni tasvirlash maxsus janrga aylandi. XVIII asrdan rus tasviriy san'atida animalistika janri rivojlana boshladi (Ivan Fedorovich Grot, P.Klodt).



I.Grot. *G'oz va oq tovus.*



P.Klodt. *Ot bolasi bilan.*

O'zbekiston hududida animalistika juda qadimdan rivojlangan. Dastlabki hayvon tasvirlari (qoyatosh rasmlari, sopol buyumlar bezagi, haykallar) ibridoiy davrda va undan keyingi jamiyatda yaratilgan.



### *Afrosiyob. Devoriy rasmlar.*

Saqlanib qolgan devoriy rasmlarda (Dalvarzintepa, Afrosiyob devoriy rasmlari, Tuproqqa'l'a devoriy rasmlari), amaliy bezak san'ati (mato, ziynat buyumlari, bezakli idishlar va boshqalar)da ham hayvon tasvirlari uchraydi.

Miniatyura asarlarida hayvon va qushlar tasviri ko'p. Bezak san'atida ham mayjud: o'yma va bo'yama naqshlarda hayvon va qushlar uslublashtirib bo'lsa ham ifodalangan, o'yinchoq haykalchalarda, asosan, hayvonlar shakli tasvirlangan, shoyi matoda afsonaviy maxluqlar (VII – IX asrlar), ganch o'ymakorligida qanotli sherlar, dev va boshqalar. (Termiziyyoholar saroyida, XII asr), shisha buyumlarda hayvon shakli (ho'kiz boshi, Samarqand muzeyida; baliq shaklidagi billur idishcha, Ermitajda) va boshqa tasvirlar, Samarcanddagi Sherdor madrasasi peshtoqiga sher, Buxorodagi Devonbegi madrasasi devoriga afsonaviy semurg qush, kiyik tasvirlari ishlangan.



*A.Dyurer. Quyon.*



*Y.A.Kolobayev. Ot.*

*D.Grand. Yo'lbars.*



*D.Grand. Yo'ibarslar.*



*Rommer Knip. Mushuklar.*

A.S.Stepanovaning bug'ular tasvirlangan kartinasi Tretyakov galereyasida va hech qanday badiiy ma'lumotga ega bo'lman V.V.Trofimova ham Rossiyaning mashhur animalistlari qatorida sanaladi. E'tiborga loyiq animalistlar V.Vatagin, M.Kukunov, S.Lapin.



*A.Alikulov. Yorug'likga.*



*E.Melnikov. O'tlarning gullash vaqt.*

**TARIXIY JANR** – tarixiy mavzudagi asarlar, san'atdagi asosiy janr yoki tarixiy o'tmish mavzusida yaratilgan asar.

Tasviriy san'atda tarixiy janr jamiyat tarixidagi ijtimoiy, siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy voqealar va arboblarni tasvirlashga asoslanadi.


Uyg'onish davrida tarixiy janr mustaqil janr sifatida shakllandi, XVII–XVIII asrlarda yetakchi janr darajasiga ko'tarildi (D.Velaskes, P.Rubens va boshqalar), tarixiy portretlarga e'tibor kuchaydi (haykaltarosh J.Gudon, rassom J.Reynolds, J.David va boshqalar), XIX asrdan tarixiy janrda insoniyat tarixida bo'lib o'tgan muhim voqealar, xalq boshiga tushgan og'ir musibatlar asarlarda o'z ifodasini topdi (F.Goyya, O.Delakrua va boshqalar). XIX asr ikkinchi yarmi Yevropa san'atida yaratilgan asarlarda romantik ruh kuchli bo'lsa, peredvijniklar asarlarida tanqidiy ruh yetakchi bo'ldi. XX asr bo'sag'asida ramziy umumlashma asarlar yaratish, tarixiy portretlar ishslash keng yoyildi.



I.Repin. *Turk sultoniga zaporoj'eliklarning xat yozishi.* V.Xlebovskiy. *Boyazid Temur asirida.*

XX asr jahon madaniyatida mavjud bo'lgan turli oqim va yo'nalishlar tarixiy janr asarlarida ham namoyon bo'ldi (P.Pikasso, A.Fujeron, O.Diks, G.Gros, R.Guttuso, D.Rivera, D.Sikeyros va boshqalar).

O'zbekiston tasviriy san'atida tarixiy janr qadimdan shakllangan va taraqqiy etgan. Tarixiy janrning dastgoh shakllari XX asr 30-yillardidan rivojlandi. Mahalliy rassomlardan B.Hamdamiy, A.Abdullayev, Sh.Hasanova va boshqalar ijodida tarixiy shaxslarni gavdalantirish muhim o'rinn tutadi.



Ch.Ahmarov. *Guldursun va Suxayl.*

M.Nabiiev. *Al-Xorazmiy portreti.*

V.Kaydalov. *Alpomish.*

50-60-yillardan o'zbek tasviriy san'atiga keng ko'lunda mahalliy rassomlarning kirib kelishi tarixiy janr mavzu va uslubining rang-barangligini ta'minladi. M.Nabiiev, R.Choriyev, J.Umarbekov va boshqa rassomlar ijodida tarixiy janrga oid asarlar yuzaga keldi. Mustaqillikdan so'ng tarixga, o'tmishga murojaat etish va e'tiborning ortishi tarixiy janrning yanada yuksalishini belgilab berdi: Jaloliddin Manguberdi, Al-Farg'oniy, Amir Temur kabilarga bag'ishlangan tarixiy turkum asarlar yaratildi.

**BATAL JANRI** (frans. bataille - jang) – tasviriy san'atning urush va harbiy hayot mavzularini aks ettirishga bag'ishlangan janri. Jang ko'rinishlari, harbiy yurishlar, qurolli kuchlarning hayotini tasvirlash batal janrida asosiy o'rinda turadi. Aniq jang lavhasini ifodalash, uning mazmunining ochib berilishi bu janri tarixiy janrga yaqinlashtiradi. Tasviriy san'atda jang lavhalari tasviri juda qadimdan mavjud. Yevropa tasviriy san'atida batal janri Italiya rassomlari (P.Uchchello, Pero della Franchesko va boshqalar) ijodida o'z ifodasini topdi. XV–XVI asrlardan janr sifatida shakllandi. Rassomlar jang ko'rinishlarini tasvirlab, urushning kishilarga qanchalar ofatlar va baxtsizliklar keltirishini yorqin lavhalarda ko'rsatdilar. Fransuz inqilobi (1789 -1794) va Napoleon yurishlari ham ko'pgina rassomlar ijodida o'z ifodasini topdi (A.Grot, T.Jeriko va boshqalar), ispan rassomi F.Goyya, fransuz rassomi E.Delakrua bu janrda salmoqli asarlar yaratdi. Rus san'atida batal janri XVIII asrdan rivojlanish bosqichiga o'tdi. Rus rassomlaridan V.Vereshchagin rus qo'shinlarining Turkistonni mustamlakaga aylantirish yo'lidagi urush ofatlarini gavdalantirgan "Turkiston" turkumini yaratgan.



*Sarkardalar.*



*Karamzin. Xivaliklarning safari.*

O'zbek tasviriy san'atida bu janrning sarchashmalari qadimdan – arxeologik topilmalar (san'at namunaları) va miniatüra san'atida ko'rindi. Qo'lyozma kitoblar bezagini ajralmas qismiga aylangan mo'jaz rasmlarda bazmlar, qabul marosimlari va boshqa lavhalar bilan bir qatorda jang lavhalarini tasvirlash qat'iy an'anaga aylangan. Kamoliddin Behzod, Muhammad Murod Samarcandiy va boshqa musavvirlar jang lavhalarini o'ziga xos tarzda tasvirlagan.




O.Xolmatov. *Spitamen.*



Chingizxon.

**Maishiy janr** - tasviriy san'atda kishilarning kundalik maishiy hayotini, turli voqealarни o'zida mujassamlashtiradi. Rangtasvirda aks etuvchi maishiy janr ilk bor XVII asrda ijod etgan Golland rassomlari - Piter de Xox, Ostade, Sten, Terborx, Vermef kabilalar ijodida namoyon bo'ladi. Rus realist rassomlaridan P.Fedotov, V.Perov, V.Maksimov, K.Savitskiy, I.Repin kabilalar maishiy janrning rivojlanishiga ham katta hissa qo'shdilar.



M.Saidov. *Uzum terimida.*



B.Serekeyev. *Yosh dutorchi.*

**AFSONAVIY JANR** – bu janrdagi tasviriy san'at asarlarida hayotda uchramaydigan, biroq xalq tomonidan xayolan o'ylab topilgan odam va hayvonlar, baliqlar, voqeа hamda hodisalar tasvirlanadi. Xususan, afsonaviy janrdagi asarlarda osmonda uchib yurgan qanotli farishtalar, hur va g'ilmonlar, uch boshli ajdarlar, yarim odam, yarmi ot “kentavrлar”, yarmi ayol, yarmi baliq suv parilari, yarmi ayol, yarmi qush jonzotlar, bir ko'zli bahaybat devlar va hokazolar tasvirlanadi.

Afsonaviy janrda ijod qilgan rassomlar qatoriga Rafael Santi, Sharq miniatiyrachi rassomi Sulton Muhammad, rus rassomlaridan M.Vrubel, V.Vasnetsovlarini kiritish mumkin.

O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotidagi ko'plab epik syujet va an'anaviy motivlarning genetik ildizlari bevosita mifologik tasavvurlar



M.Yuldashev. Go'ro'g'li



M.Yuldashev. Go'ro'g'li



M.Yuldashev. Go'ro'g'li



M.Yuldashev. Go'ro'g'li

qatlamiga borib taqaladi. Afsonaviy janrlar “Avesto”, “Iliada”, “Ramayana”, “Shohnoma”, “Kalevala”, “Alpomish”, “Go'ro'g'li” kabi adabiy yodgorliklarning yaratilishida ham salmoqli o'rin tutgan.

### Savollarga javob bering va topshiriqlarni bajaring

1. Natyurmortni rangtasvir va haykaltaroshlikda ifodalash mumkinmi?
2. Rangtasvir portreti turlari haqida gapirib bering, misollar keltiring
3. Natyurmort nimani ifodalashi mumkin?
4. Manzaralar ko'rinishi qanday holatni tasvirlaydi?
5. Manzaraning qanday turlarini bilasiz?
6. Hayvonot tasvirini qaysi san'at turida ko'rish mumkin?
7. Tarixiy janr asarlari qanday voqealarni aks ettiradi?
8. Batal janrida asar yaratuvchi rassomlarning ism-familiyasini sanang.
9. Mifologik janrdagi asarlarni ayтиб bering.
10. Maishiy janrdagi kartinalarda rassomlar qanday voqealarni tasvirlaydi?

## ZAMONAVIY SAN'AT TURLARI VA OQIMLARI

Hozirgi paytda san'atga yangicha zamonaviy san'at turlari kirib kelmoqda. Ularning turlari:

**Bodiart** — tananing bezak san'ati. Bodiart (angl. body art — «iskusstvo tela») — avangard san'atining shakllaridan biri bo'lib, ijodining asosiy obyekti inson tanasi hisoblanadi, uning mazmuni: gavdaning holati, imo-ishoralar, mimika, tanaga turli belgilar chizish, «pardozlash» orqali aks ettiriladi. Odamlar qadimdan quloqlari, lablari, burnini teshib har xil bezaklarni qistirib qo'yshgan. Buni chiroyli va latofatli bezash deb hisoblashgan.



*Qadimgi tana san'ati.*



*Bodi-art san'ati.*

**Avtoart** — avtomobilarni bezash san'ati.

**Installyatsiya san'ati.** Installyatsiya — zamonaviy san'at shakli, fazoviy kompozitsiyani o'z ichiga olgan holda turli elementlardan tashkil topadi va u badiiy yaxlitlikni bildiradi. Installyatsiya asoschilari Marsel Dyushan va syurrealistlar bo'lgan.

Kompyuter grafikasi: 3D-grafika, 3D-grafika, Veb-grafika.

**Pinap** (PinUp) — ingliz so'zidan (pin-up) qadamoq, devorga yopishtirib qo'ymoq. Jurnallardan kinoyulduzlar, estrada qo'shiqchilarining rasmlari qirqib olib devorga yopishtirib qo'yilgan.



*Installyatsiya. Rivoyat.*




*Installyatsiya. J. Usmanov. Rivoyat.*

Pochta san'ati – pochta otkritkasining tayyorlanishi.

San'atda turli yo'nalish stillari yaratilgan: jo'shqinlik rangtasviri bilan barokko va unga o'ziga xos tutashmagan, spiralsimon kompozitsiyasi bilan; rokoko nozik nyuansli ranglar bilan; klassitsizm aniq, muayyan uslubda va yorqin rasmlar bilan.

**AVANGARDIZM** (frans. avantgardiste) – XX asr san'atida qator zamонавиyoqimlarning umumiylар шартли nomi. Avangardizm tarafдорлari san'atni tubdan yangilashni, uning shakli va ifodaviy imkoniyatlarini kengaytirishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan, avvalgi qaror topgan yo'nalishlar (shu jumladan, romantizm, realizm, impressionizm, neoklassitsizm va b.)ga tanqidiy yondashgan. Avangardizm namoyandalari san'atning predmetini ham, uslubini ham, shakl va mazmunni ham yangilashni o'zida ifoda etgan umumiylар istak ostida birlashganlar. Bu yo'nalish taraqqiy etgan 1905–1930-yillarda uning tamoyillari ekspressionizm, fovizm, kubizm, dadaizm, syurrealizm kabi modernistik oqim va maktablarda namoyon bo'ldi. Bir-biriga zid mayllar, turli ijtimoiy, g'oyaviy-estetik nuqtai nazarda turgan, ijodiy taqdiri bir-biriga o'xshamagan san'atkorlar Avangardizm (modernizm)ning umumiylар oqimida to'qnashdi. Davrning eng o'tkir ijtimoiy qarama-qarshiliklari Avangardizm ziddiyatlarida o'z aksini topdi.

Jahon san'atining ko'pgina zabardast vakillari avangardizm tajribalariga asoslanib, zamонавиyoqimlarning yetakchilariga aylandilar (masalan, S.Dali va P.Pikasso – Ispaniya, P.Klee – Shveysariya, V.Kandinskiy, M.Malevich, S.Prokofev – Rossiya va b.).



O'. Tansiqboyev. Shafaqli kuz.



M. Kurzin. Eski va Yangi.

Ikkinchи jahon urushidan keyin g'arbda avangardizm oqimi jonlanib, tasviriy san'atda – pop-art, minimalizm, abstraksionizm ko'rinishlarida namoyon bo'ldi.



J.Umarbekov. Sozandalar.



M.To'xtayev. Adam bog'i.

Avangardizm tamoyillari O'zbekiston tasviriy san'atida 20-yillarda kuzatiladi. A.Volkov, A.Nikolayev, O.Tansiqboyev, M.Kurzin, O.Tatevosyan, J.Umarbekov, B.Jalolov, M.To'xtayev va boshqalar avangardizm ifodaviy imkoniyatlaridan ijodiy foydalanmoqda.

**ABSTRAKSIONIZM** (lot.abstractio – mavhumlik, noma'lumlik, uzoqlashish). XX asrda avval tasviriy san'atda paydo bo'lgan oqim. Namoyandalari – Charlz Novard, Styuoriy Devis, Krauford, Retner, Morris, M. Seyfer, P.Mondrian, Paulo Kles va boshqalar san'at borliqning emas, san'atkor his-tuyg'ularining in'ikosi degan g'oyani ilgari surishgan. Bu oqimdagilar ijodida his-tuyg'u, xayol borliqdan uzilgan chiziqlar, geometrik shakllarda namoyon bo'ladi, shakl va mazmun bir-biriga singib ketadi, ya'ni an'anaviy tushunchadagi mazmun va shakl o'z mohiyatini yo'qotadi. Abstraksionizm oqimi namoyandalari «voqelikni inkor etish evaziga ruhiy voqelik» yaratmoqehi bo'ladilar.

50-yillarda abstraksionizm san'atning «Belgilar san'ati», «kalligrafiya» kabi ichki yo'nalishlari paydo bo'ldi. Abstraksionizm san'atga ma'lum bir uslubiy yangilik olib kelgan bo'lsa-da, taniqli mutafakkir va san'atkorlarning tanqidiga uchradi.

Kamyuning fikricha, san'at voqelik va san'atkor his-tuyg'ulari o'rtaсидаги erkin va tabiiy uyg'unlashuvdan paydo bo'ladi. Lekin abstraksionizm san'at va uning tasvir usullari haqidagi tasavvurni boyitgani uchun ham qimmatlidir.

**Art-deko** (frans. "art-deco") – XX asr Amerika va G'arbiy Yevropa mamlakatlari san'atidagi yo'nalish uslubi.

Art-deko badiiy yo'nalish bo'lib, 1906-1912-yillarda tashkil topib, 1925-1935- o'n yilliklar oralig'ida gulladi.

"Art-deko" nafis yangilik kabi boshlandi, undan so'ng oddiy hayotni

aks ettirishga qaratildi.

“Art-deko” termini o’ziga xos uslubni anglatib, mutanosiblik, klassik va to’g’ri chiziqlilikni o’z ichiga oladi.

Bu yo’nalishning yorqin namoyandalari, Mari Loransen, shuningdek Zinaida Serebryakova, Karlos Saens de Texada, Tamara de Lempitska, Xose de Almada Negreyros, Ertelar shu uslubda ijod qilganlar.



*Mari Loransen. Ikki bosh.*



*Z.Serebryakova.  
Avtoportret.*



*Zinaida  
Serebryakova.  
Podsho  
qishlogidagi  
ko'l.*

**BAROKKO** (ital. barocco – ajoyib, g‘alati) – XVI asr o‘rtalarida Yevropa va Amerika san’atidagi asosiy uslublardan biri. Evropada millat va milliy davlatlar jadal shakllanayotgan davrda Uyg‘onish davri badiiy madaniyati va subyektiv his-tuyg‘ularni ifodalaovchi man’erizm o‘rniga

vujudga keldi. Aristokratiya va cherkov bilan bog'liq bo'lgan. Barokko san'ati ularning shon-shuhratini oshirishga hamda targ'ib etishga qaratilgan edi. Barokko san'atiga antifeodal chiqishlar, milliy ozodlik harakatlari o'z ta'sirini ko'rsatib, unga demokratik isyonkorlik ruhini kiritdi. Dabdabaga moyil bo'lgan Barokko dunyoning yaxlitligi, cheksizligi, murakkab va rang-barangligi, doimiy o'zgaruvchanligi haqidagi yangi tasavvurlarni, insonni o'rabi turgan muhit va boshqalarga bo'lgan qiziqishlarni aks ettiradi; unga keskinlik, obrazlarning harakatchanligi, his-tuyg'ular kurashining shafqatsizligi, tantana va ulug'vorlikka intilish, mavjud borliq bilan xayoliy orzuni uyg'unlashtirish, san'atlar uyg'unligini intilishlar xos.

Tasviriy san'atda diniy, mifologik va majoziy mavzulardagi bezaklar, tantanavor dabdabali portretlar keng o'rinn egallaydi.



*Antonis van Deyk. Karl I otliq portreti.*



*Yakob Yordans. To'rtta Evangelist.*

Barokko Italiyada shakllanib rivojlandi. Rangtasvirchi demokratik realizm yo'lboshchisi Karavajo, akademizm yo'lboshchisi aka-uka Karrochilar, devoriy rangtasvir ustalari Jovanni Batista Tepololar shu san'at rivojiga katta hissa qo'shdi. Flandriyada P.P.Rubens, Antonis van Deyk, Yakob Yordans, F.Snayders ijodida Barokko to'laqonli va hayot haqiqatiga yaqin holda rivojlansa, Ispaniya, Portugaliya, Germaniya va boshqa Yevropa mamlakatlarida mahalliy hayot va an'analar ta'sirida o'ziga xos yo'nalishni shakllanishini ta'minladi. Fransiyada klassitsizm bilan uyg'unlikda o'ziga xos jimjimadorlik kash etdi. Rossiyada XVIII asr 1-yarmida Petr I islohotlari va dvoryan monarxiyasining mustahkamlanib borishi bilan

rivojlandi. Peterburg, Moskva shaharlari, shahardan tashqarida yaratilgan shoh va zodagonlarning uy va saroylarida shu davr ruhi o‘z ifodasini topdi: Petr I saroyi (Petergof), Sarskoe Selo (Pushkino sh.), Peterburgdagi qator saroy, monastir va soborlar (Qishki saroy, Smolniy monastiri va boshqalar) shular jumlasidan. Me’morlardan V.Rastrelli, D.Uxtomskiy, S.Chevakinskiy va boshqalarning hissasi katta. Tasviriy san’at dunyoviy mavzular, davlat arboblarining tantanavor, ko’tarinki ruhdagi dabdabali portretlarida o‘z ifodasini topdi. K.Rastrelli haykaltaroshlik asarlari, I.Nikitin, A.B.Antropov rangtasvirlari shular jumlasidan.



*Jovanni Batista Tepolo. Pir Kleopatra.*

Barokko Italiyada rivojlanib Yevropaga keng yoyildi. Keyinroq esa yevropaliklar bosib olgan qit'a va mintaqalarga ham bu san’at ta’siri kirib bordi. Amerika, Osiyo, Avstraliyada Barokko usulida yaratilgan asarlarining mavjudligi shundan. O’rta Osiyoda rus istilosidan keyin qurilgan me’morlik majmualarida, jumladan saroy, sobor(cherkov) va monastirlar binolarida shu san’atning ta’siri va belgilari mavjud.

**IMPRESSIONIZM** (frans. impression - taassurot) – san’atda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida hukm surgan yo’nalish. Impressionizm vakillari mavjud borliqni harakatda, o‘zgarishda tabiiyiroq tasvirlashga, bir lahzalik taassurotilarni ifodalashga intilib, tasvirning jonli, haqqoniy ligiga erishgan. Voqelikning tabiiyligi, inson va muhit birligida uning doimiy o‘zgaruvchanligi ifoda etildi.

yarmida Petr I islohotlari va dvoryan monarxiyasining mustahkamlanib borishi bilan rivojlandi. Peterburg, Moskva shaharlari, shahardan tashqarida yaratilgan shoh va zodagonlarning uy va saroylarida shu davr ruhi o'z ifodasini topdi: Petr I saroyi (Petergof), Sarskoe Selo (Pushkino sh.), Peterburgdagagi qator saroy, monastir va soborlar (Qishki saroy, Smolniy monastiri va boshqalar) shular jumlasidan. Me'morlardan V.Rastrelli, D.Uxtomskiy, S.Chevakinskiy va boshqalarning hissasi katta. Tasviriy san'at dunyoviy mavzular, davlat arboblarining tantanavor, ko'tarinkи ruhdagi dabdabali portretlarida o'z ifodasini topdi. K.Rastrelli haykaltaroshlik asarlari, I.Nikitin, A.B.Antropov rangtasvirlari shular jumlasidan.



*Jovanni Battista Tiepolo. Pr Kleopatra.*

Barokko Italiyada rivojlanib Yevropaga keng yoyildi. Keyinroq esa yevropaliklar bosib olgan qit'a va mintaqalarga ham bu san'at ta'siri kirib bordi. Amerika, Osiyo, Avstraliyada Barokko usulida yaratilgan asarlarining mavjudligi shundan. O'rta Osiyoda rus istilosidan keyin qurilgan me'morlik majmualarida, jumladan saroy, sobor(cherkov) va monastirlar binolarida shu san'atning ta'siri va belgilari mavjud.

**IMPRESSIONIZM** (frans. impression - taassurot) – san'atda XIXasr oxiri – XXasr boshlarida hukm surgan yo'nalish. Impressionizm vakillari mavjud borliqni harakatda, o'zgarishda tabiiyroq tasvirlashga, bir lahzalik taassurotilarni ifodalashga intilib, tasvirning jonli, haqqoniyligiga

erishgan. Voqelikning tabiiyligi, inson va muhit birligida uning doimiy o'zgaruvchanligi ifoda etildi.



E. Mane. Tuiilri mustqas.



O.Renuar. Mulen de la Galettdagi bal.

Dastlab 1860-yillarda fransuz rangtasvirida vujudga kelgan. E. Mane, K. Mone, O. Renoir hayotdan olgan bevosita jonli taassurotolarini tasodifiy harakat, favqulodda holatlar ifodasida namoyon etdilar.



K.Mone. Taassurot. Quyosh chiqishi.




K.Pissarro. Monmartr xiyoboni.

Manzara, portret, ko'p shaklli kompozitsiyalarda rassomlar tomonidan dastlabki taassurotlar kuchi va sofligi, betakror xususiyatlari mayda detollariga berilmasdan tasvirlandi. Impressionistlar ilk bor zamonaviy shahar hayotining serqirra ko'rinishlarini yaratib, asarlarida shahar manzarasi va undagi odamlar qiyofasida uning o'ziga xosligini aks ettirdilar. K. Mone, E. Dega, K. Pissarro, A. Sisley kabi manzara ustalari o'z asarlarini ochiq havoda ishlab quyosh nuri jilosini, tabiatning rang-barang bo'yoglarga boy majmuasini yorqin aks ettirdilar. *plener* ularning



L.Bure. Shaumyan ko'chasi dagi  
ko'prikcha.



P.Benkov. Shohi Zinda.

Amerikada J.Uistler, Germaniyada M.Liberman, L.Korint, Rossiyada K.A.Korovin, I.E.Grabar va boshqalar ijodi Impressionizm rivojiga hissa bo'lib qo'shildi. 1880–1910-yillarda impressionizm ko'p rassomlar ijodiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Bu voqelik yangi tomonlarini o'zlashtirishda, plener usullarini egallashda namoyon bo'ldi.

Impressionist rassomlar ijodi o'zbek rangtasvir san'ati rivojida ham o'z ifodasini topdi. O'zbekistonlik rassomlar L.Bure, O.Tatevosyan, P.Benkov, Z.Kovalevskaya, A.Mirsoatov va boshqalar ijodida shu ta'sir seziladi.

**ILLYUZIONIZM** tasviriy san'at asarlarida borliqni xuddi o'ziga o'xshatib ko'rindigan darajada tasvirlash; Illyuzionizmda mavjud narsalar va boshqa bilan uning tasviri orasidagi chegara-farqni yo'q qilish nazarda tutiladi. Illyuzionizm antik davr rangtasvirida paydo bo'lgan. Uyg'onish davrida muhim o'rin egallagan, barokko san'atining asosiy tamoyillaridan biriga aylangan (mahobatli bezak san'atining barokko uslubidagi inter'erlarida mavjud me'moriy bo'shliq cheksizlikka intilayotgan tasviriy bo'shliq bilan qo'shilib ketadi). Shu davrda ishlangan tasvirlarda rassomlar perspektiva imkoniyatlaridan foydalanib murakkab kompozitsiyalar yaratdilar, devor, shiftlarga ishlangan rasmlar go'yo borliq bilan qo'shilib ketayotgandek tasavvur hosil qiladi, tasvirlar devorlarni o'pirib cheksizlikka o'tib borayotgandek, xonadagi ustun va devorlar shu cheksizlikning

boshlanishidek tuyuladi. Illyuzionizm ko'proq mahobatli rassomlikka xos bo'lsa ham, ayrim rassomlar dastgohli san'at (masalan, rangtasvir, kam hollarda grafika natyurmortlari)da ham Illyuzionizmdan foydalanishga intiladi.

**KLASSITSIZM** (lot. *classicus* - namunaviy) - antik davrda o'z rivojining yuqori cho'qqisiga erishgan qadimiy Yunon va Rim san'ati merosida shakllanib, unga taqlid qilish natijasida yuzaga kelgan san'atdagi uslub, yo'nalish.

Tasviriy san'atda klassitsizm barokkoga, XVIII asrdan esa rokoko san'atiga qarshi kurashda rivojlandi. Tasvirlar uyg'un, jozibador, ulug'ver, tantanali bo'lishiga ahamiyat berilib, obrazlar hashamatli qiyofa va shakllarda ifodalandi. Kartinalarda voqeа ishtirokchilari birinchi plandagilar bilan (sahnadagidek) yonma-yon ko'rsatildi. Fransiyada klassitsizm XVII asr 1-yarmida to'la shakllandı (rassom N.Pussen va b.), keyin Yevropa mamlakatlari tarqaldi. XVIII asr 2-yarmida, XIX asr boshlarida hukmron uslubga aylandi.

Rangtasvir va grafikada ham klassitsizm o'z ko'rinishiga ega. Rangtasvirda shaklning asosiy unsurlaridan chiziq va yorug'-soya yetakchi o'rinni egallaydi.



*K.Bryullov. Chavandoz.*



*V. Borovikovskiy.  
Lopuxina portreti.*



*A.E.Yakovlev.  
Balerina Anna Pavlova.*

Klassitsizmning so'nggi bosqichida rangtasvir monoxrom rang gammasiga o'ta boshlaydi. Grafikada esa asosiy sof (toza) va tiniq chiziqlar asarning emotsiunal tomonini belgilovchi va asar g'oyasini yorituvchi vositaga aylandi. Klassitsizm rangtasvirida buyum va obrazlar tasviri ixcham, xarakter jihatidan spektr ranglariga yaqin. Bu ranglar kartina(asar)da tasvirlangan buyum va manzara planlarini aniq ifodalaydi. Masalan. manzara janrida birinchi plan issiq-jigarrang, o'rta plan yashil va

orqa plan moviy, ko'k ranglarda ifodalangan. Bu jihatdan asarlar sahna dekoratsiya(bezak)lariga yaqinlashadi.

O'zbekistonda klassitsizmning so'nggi ko'rinishi - akademizm yo'nalishi ko'proq S.Yudin, R.Zommer, I.Karnovlarning syujetli kompozitsiyalarida o'z ifodasini topdi.



S.Yudin. Tog' darasida.



R.Zommer. Samarcanddag'i bozor.

**NEOKLASSITSIZM** – XIX asr 2-yarmi – XX asrlar san'atida antik san'at, Uyg'onish davri san'ati va klassitsizmning mumtoz an'analariga tayangan ijtimoiy yo'nalish va g'oyaviy mazmun jihatidan turlicha bo'lgan oqimlarni ifodalovchi atama. Neoklassitsizm (o'tmishtan atqa murojaat etish dasturi sifatida) jonli borliqqa qandaydir "abadiy" estetik qadriyatlarini qarama-qarshi qo'yishga intilish zaminida paydo bo'lgan (rassom X.Mare, A.Feyerbax va boshqalar). Neoklassitsizm atamasi XVII asr – XVIII asr 1-yarmidagi klassitsizmdan farqlash maqsadida XVIII asr 2-yarmi – XIX asr 1-choragidagi klassitsizmga nisbatan ham qo'llanadi. Neoklassitsizm, ayniqsa, me'morlik va tasviriy san'atda keng tarqaldi.

Tasviriy san'atda neoklassitsizm atamasi keng qamrovli bo'lib, turli badiiy oqimlarga nisbatan qo'llanadi, klassik obrazning ichki uyg'unligini zamonaliviy hayotdagи nomutanosiblikka qarama-qarshi qo'yish xohishi kuchli ifodalanadi. Neoklassitsizmning hayratga soluvchi ayrim nuqtalari prerafaelitlar (XIX asr o'rtalari) ijodida seziladi. Yaxlit hodisa sifatida nemis neoidealizmi (1870-yil oxiri)ning nazariy qarashlari va amaliyotida namoyon bo'ldi, imperessionizmdan ta'sirlanish ko'rinishlaridan biri sifatida keng tarqaldi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida so'nggi akademik an'analar bilan antik san'at dasturlarini uyg'unlashtirgan neoklassitsizm modern uslubi bilan yaqinlashgan. Rassomlar F.Xodler (Shveysariya), P.Tovi de Shavann, M. Deni (Fransiya), V.A. Serov, A.E. Yakovlev

(Rossiya) va boshqalar ijodida insonparvarlik asoslari saqlandi. 20-30-yillar tasviriy san'atida ba'zi oqimlar (futurizm, kubizm va boshqalar)ga javob tarzida paydo bo'lgan oqim va yo'nalishlarning ham neoklassitsizmga aloqadorligi kuzatiladi. O'z navbatida neoklassitsizm ham Germaniya, AQSH va boshqa mamlakatlar san'ati oqimlariga ta'sir ko'rsatgan.


Neoklassitsizm rassomlari: Angelika Kaufman, Bendjamin Uest, Vilyam Adolf Bugro, Vladimir Borovikovskiy, Djovanni Battista Piranezi, Djozef Rayt, Djon Singlon Kopli, Jak Lui David, Jan Ogyust Dominik Engr, Karl Bryullov, Mixail Shibanov, Per Pol Pryudon, Per-Narsiss Geren, Fyodor Alekseev, Frans Ksaver Vinterxalter.

Rossiyaning neoklassitsizm ustalari o'zlarini rus madaniyati an'analarini tarafidolari deb hisobladilar. Neoklassitsizm yangi jamiyat rassomlari guruhi A.F.Gaush, B.M.Kustodiyev, I.A.Fomin, K.F.Bogaevskiy, V.A.Shiko, P.I.Neradovskiy, D.N.Kardovskiy. Neoklassitsizm yo'nalishida B.D.Grigorev, V.I.Shuxayev, A.E.Yakovlev, K.S.Petrov-Vodkinlar o'zlarining ijodlarini yarata boshladilar.

**KUBIZM** – XX asrning birinchi choragida Fransiyada paydo bo'lgan oqimdir. U geometrik shakl – kub so'zidan kelib chiqqan. Bu yo'nalishdagi rassomlar realistik san'at an'analaridan voz kechib, real predmet shakllarini geometrik shakllar – kub, shar, silindr, konus va ularning qo'shilmasidan hosil bo'lgan ko'rinishlar yordamida tasvirlar edilar. Bu yo'nalishdagi san'at namoyandalaridan P.Pikasso, J.Bra, X.Gris, A.Lentulov kabilarni ko'rsatish mumkin.

XX asr boshlarida rangtasvirda global revolyutsiya sodir etildi: rassomlar akademik maktab va realizmnig shartliligini mensimay, shakl, rang, applikatsiya va boshqa ifodaviy vositalar orqali ijod eta boshladilar, natijada tasviriy san'atda modern yo'nalishi yuzaga keldi. Bulardan biri kubizm oqimidir.

1907-yilda Pablo Pikasso fovizm (XX asr boshlaridagi modern yo'nalishlaridan biri)da yuqori natijalarga erishgan navqiron Jorj Brak bilan tanishadi. Ular birgalikda rangtasvirda kubizmnинг yangi yo'nalishi asoschilari bo'lib, doimiy uchrashuvlarda fikr almashib muhokamalar o'tkazadilar.



*N.Altman. Anna Ahmatova portreti.*

*P.Sezann. Pero va Arlekin.*

Kubizm nomi 1908-yilda paydo bo'lib, badiiy tanqidchi Lui Vossel Brakning yangi asarlarini kubli ajoyibotlar deb atadi. Rassomlardan Xuan Gris, Mari Loransen, Fernan Lejelar yangi yo'nalishga qo'shildilar. Bir necha yillar mobaynida kubizm uslubida Rober Delone, Alber Glez, Anri Le Fokone, Jan Metsenje, Fransis Pikabia va boshqalar faoliyat ko'rsatdilar.



*J. Brak. Tarelka va lagancha mevalar bilan.*



*Xuan Gris. Stol ustida gitara.*

Kubizmning dastlabki davrini "sezann" deb atadilar, chunki kubizm oqimi rassomlari Pol Sezanning (1839-1906) shakl bilan, perspektiva bilan va yangi kompozitsion yechimlar ustida izlanib tadqiqotni davom ettirdilar.

**“Pero va Arlekin”, Poll Sezann.** 1888-yili Pol Sezann “Pero va Arlekin” asarini yozdi. Bu asar kubizm yo‘nalishi paydo bo‘lgunga qadar 19 yil ilgari yaratilgan. Bu asarda rassom geometrik shakl (aylana, oval va romb)lar qalamtasvir chiziq yo‘nalishlari qaysidir nuqtaga, shuningdek nostonart qarash nuqtasi: ya’ni tomoshabin personajlarga biroz yuqori va chapdan kuzatiladi. Perspektiva noto‘g‘ri tasvirlangandek tuyulib, natijada Pero va Arlekin turli fazoviy tekislikda turgandek seziladi. Original kompozitsion yechimga ega bo‘lgan jonli personajlar tirik insonlar singan mexanik qo‘g‘irchoqqa aylanib qolgandek tuyuladi. Pol Sezan rassom Emil Bernaruga (1904-yil atrofida) yozgan xatida shunday deydi :

- Klassitsizmga tabiat orqali yoki boshqacha aytganda, his qilish orqali qaytmoq zarur.

Tabiatda hamma narsa shar, konus va silindr shakllari asosida quriladi. Qalamtasvir va rang ajralmasdir, qanday yozib chizsang, rang uni shunchalik uyg‘unlashtiradi va qalamtasvir shunchalik aniqlashadi. Agar rang qanchalik boyisa, shakl shunchalik go‘zallashadi. Qarama-qarshilik va tuslar munosabati qalamtasvirning asosidir.

**MANERIZM** (ital. mannerism, maniera – uslub, odat so‘zidan) – XVI asr Yevropa san‘atidagi oqim. Manerizm namoyandalari Uyg‘onish davrining insonning tabiatning mukammal hilqati sifatidagi qarashlaridan chekindi, uning o‘rniga mistik g‘oyalarni ilgari suruvchi, tashqi jihatdan yaltiroq, lekin hayotdan, uning muammolaridan uzoq bo‘lgan san‘atning tarqalishini ta‘minladi. Manerizmda hayotni o‘tkir his etish bilan badiiy obrazni rassomning qalbida tug‘ilayotgan subyektiv “ichki g‘oya” asosida ifodalash kabi dasturli intilish uyg‘unlashdi. Manerizm namoyandalari Uyg‘onish davri san‘atkorlari ijodidagi ayrim unsurlarni ana shu ruhda talqin etdilar, irratsional olamning beqarorligi, inson hayotining o‘tkinchiligini ifodalashga intildilar. So‘nggi saroy madaniyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan manerizm san‘ati mohiyat e’tibori bilan saralangan tor doiralardagi bilimdonlarga mo‘ljallandi. Manerizm Italiyada yorqin namoyon bo‘ldi, unda obrazlarning jiddiyligi, olamni fojeali his etish, harakatli holatlarni bo‘rttirish, shakllarning o‘ta nozik va cho‘zilganligi ifodalanadi. Manerizm rassomlari asarlarida odam qomati, nisbatlarini buzib tasvirladilar, anatomik aniqlikka e\*tiborsizlik bilan qaradilar. Me‘morlikda ortiqcha hashamadorlik seziladi, ba’zi hollarda ortiqcha ramz va majozlar ritmik kompozitsiya asosini tashkil qiladi.

40-yillardan manerizm italyan saroy san‘atida hukmron oqim bo‘lib qoldi, uning badiiy ifoda vositasi murakkab, majozlar bilan to‘la (J. Vazari, A.Bronzino, F.Sukkari va b.).



*Annibale Karrachchi. Aza tutib yig'lamoq.*



*L.Karrachchi. Giatsint avliyoga Mariyaning ko'rinishi*


Manerizm aslida Uyg'onish davri san'atidan **barokkoga** o'tish davri jarayonlarini o'zida ifodalab, barokko uslubining rivojiga yo'l ochdi. Italiyaga bir tomondan Bolonya maktabi akademistlarining kirib kelishi, ikkinchi tomondan *karavajizmning* tarqalishi manerizmga barham berib, barokko va XVII asr Yevropa san'atidagi realistik oqimlarning hukmronligini ta'minladi.

**MODERNIZM** – XIX asrning 2-yarmi – XX asrning 50–60 –yillarida Yevropa, AQSH san'atida rivoj topgan oqim va yo'nalishlarning umumiy nomi. Badiiy ijodning mumtoz an'analaridan voz kechish, ijodkor o'z shaxsiy kechinma, taassurot va tasavvurlarini ustun qo'yishi, badiiy shakllarni yangilash jarayoniga alohida ahamiyat berish ular ijodiga xos bo'lgan xususiyatlardir. Modernizm vakillari realizmga qarshi kurashdi, klassitsizm (akademizm)ga xos bo'lgan ijodiy tamoyillarni inkor etishga intildi.


XX asr boshida rivoj topgan avangardizm yo'nalishlarida XIX asr Modernizm prinsiplari o'z rivojini topdi. Modernizmning yangi bosqich xususiyatlari tasviriy san'atda an'anaviy tasvirlash usullaridan butunlay voz kechish real obrazlar yaratish (kubizm, ekspressionizm, syurrealizm, dadaizm) kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lgan.



V.Ufimsev. O'tovda.



A.Volkov. Ikki qirg'iz qizi



S.Rahmetov. Boysunda.



N.Shin. Buhmallik zahmatkashlar.

Modernizm O'zbekistonga XX asr boshlaridayoq kirib kelgan (A.Nyurenberg, V.Ufimsev, A.Volkov, A.Nikolayev, O.Tansiqboyev va boshqalar). 1970-yillar oxiridan Modernizmning ko'rinishlari ayrim o'zbekistonlik rassomlar ijodida ko'zga tashlanadi (masalan, abstrakt san'at – V.Oxunov, N.Shin; giperrealizm – A.Ikromjonov, S.Rahmetov kabi).

**POSTIMPRESSIONIZM** (lot. post – key in va *impressionizm*) – XIX asr oxiri – XX asr boshlarida fransuz rassomlik san'atidagi asosiy yo'nalishlar (neoimpressionizm, kubizm, fovizm va boshqalar)ning shartli umumlashma nomi. O'z ijodini impressionizm uslubida boshlagan rassomlar uning inqirozidan so'ng asta-sekin undan uzoqlasha boshladи.



*Van Gog. Bug'doy dalasi kiparislari.*



*Anri de Tuluz Lotrek. Model.*


Postimpressionizm namoyandalari davrga hamohang badiiy tasvir vositalari ustida izlandi; impressionizmning oniy taassurotlari o'rniga chuqur his-tuyg'uga boy jo'shqin shakllarni yaratishga intilish kuchaydi (P.Sezann, Van Gog, P.Gogen, Anri de Tuluz-Lotrek va boshqalar). Bu izlanish va amaliy faoliyatlar XX asr tasviriy san'atining g'oyaviy plastik rivojlanishi tamoyillarini belgilab bergen muhim tarixiy vazifasini o'tadi.

**PRIMITIVIZM** – XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yuzaga kelgan avangard san'at oqimi. Primitiv so'zi "sodda, oddiy" ma'nolarini anglatadi. Primitivism alohida ijodiy oqim sifatida XIX asr oxiri XX asr boshlarida Yevropa va AQSHda paydo bo'lgan. Mazkur oqim vakillari o'z asarlarini ataylab ibtidoiy, o'rta asrlar, xalq san'ati, bolalar ijodiga yaqinlashtirib ishlaganlar. Bu oqimning maqsadi o'sha davrda paydo bo'lgan fovizm, kubizm, futurizm kabi turli yo'naliшlarning tasviriy uslublaridan voz kechish hisoblangan. Bu oqimda ko'proq maxsus badiiy ta'lif olmagan havaskor va ularga ergashgan rassomlar ijod qilishgan.

**POP-ART** (inglizcha so'zidan «pop art» – ommabop san'at) – zamona viy tasviriy san'atda avangard yo'naliш; *abstrakt san'at* ta'sirida yuzaga kelgan, dadaizm (ayniqsa, M.Dyushan ijodi) va *syurrealizm* bilan aloqada bo'lgan. 1950-yillarning 2-yarmida eng avvalo AQSH (R.Rausenberg, K.Oldenberg, J.Rozenkvist va boshqalar) va Buyuk Britaniya (P.Bleyk, R.Gamilton va boshqalar)da paydo bo'lgan, so'ngra Fransiya (N.de Sen-Fal va boshqalar), Germaniya (P.Vunderlik va boshqalar) kabi G'arbiy Yevropa mamlakatlari tarqalgan. Abstrakt san'atning borliqdan, real hayotdan ajralib borishiga qarshi harakat ko'rinishida shakllangan Pop-art vakillari real borliqqa qaytish, keng ko'lamda ishlab chiqarilayotgan buyumlarning estetik qiymatini ommaviy

yo'llar (reklama, foto, reproduksiya, komiks va h.k.) vositasida yoritishni asosiy maqsad qilib oldi. Shahar hayotida keng ishlatalidigan buyumlar (uyro'zg'or anjomlari, o'rov qutichalari, mashina bo'laklari va h.k.) ni xuddi o'ziga o'xshatib ishlab, ularning o'zidan (ko'pincha kollaj va boshqa usullar yordamida) kompozitsiyalar tuzadi.

**PUANTILIZM** fransuzcha so'z bo'lib - «*Pointillisme*», so'zma-so'z, aynan «xol-xol qilib ishlash, nuqtali», taxminan 1885-yili Fransiyada paydo bo'lgan, uning asosida dona-dona to'g'ri, nuqtali yoki to'g'riburchakli shakldagi surtmalar orqali yozish manerasi yotadi.



Z.Islomshikov. *Natyurmort*.



Z.Faxriddinov. *Bahor nafasi*.

**PUANTILIZM** oqimida o'zbek rassomlaridan Z.Islomshikov ham ijod qiladi. Rassomning “Natyurmort” nomli asari shu oqimga mansub uslubda yaratilgan.



Puantilizm texnikasida ishlash.



**REALIZM** – voqelikni, mavjud borliqni san'at (tasviriy san'at, teatr, musiqa va boshqalar)ning ifoda vositalari orqali o'ziga o'xshash shakllarda haqqoniy aks ettirish.

Tasviriy san'atda realizm ijodkor hayotdan saralab olgan muhim voqe va hodisalarni o'zining estetik qarashlari asosida aks ettiradi. San'at turlari va janrlarida realizm an'analari turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Realistik san'at mohiyati jihatidan borliqning oddiy sodda o'xshashi bo'lsa ham, quruq ko'chirishga moyil bo'lgan naturalistik san'at(naturalizm)dan keskin farq qiladi. Realizm o'z yechimi va shakllanishi jihatidan romantizm bilan yonma-yon turgani holda haqqoniyligi va hayot haqiqati tamoyillari bilan undan ajralib turadi. Realizm taraqqiyoti davomida o'zgarib boradi, aniq. tarixiy o'ziga xos xususiyatlarga, turli uslubiy shakllarga ega bo'ladi (mas., antik realizm, Uyg'onish davri ijodkorlari antik davr yaratgan shakllardan foydalanib, davrning insonparvarlik g'oyalarini tasvirlashga erishdilar, realizm metodi yuksak pog'onaga ko'tarildi (Jotto, Donatello, Leonardo da Vinci, Rafael, Mikelanjelo, Titsian va b.) XVIII asr ma'rifatparvarlar san'atida rassomlar yashayotgan muhit o'zining tarixiy-haqqoniy shakllarida aksini topdi (ingлиз U.Xogart, fransuz J.Gryoz va b.), F. Goya ijodi realizm uslubining qaror topishida alohida o'rinn tutadi.



A. Plastov. O'rrog.

Realizm voqelikni aynan o'ziga o'xshatib aks ettirish bilan chegaralanmay, balki insonning hali ro'yobga chiqmagan, ishga tushirilmagan imkoniyatlarini ham o'z tasavvuri bilan to'ldirib tasvirlashi hamda asarga xayoliy obraz va unsurlar kiritishi mumkin. Badiiy ijodda realizm ijtimoiy hayotdagи illat va ziddiyatlarni aks ettirish orqali uni jamoatchilik hukmiga havola etish va tasvirlangan voqelikka hukm chiqarishdan iborat bo'lgan. XIX asr realizmi tanqidiy yo'nalishda bo'lganligi uchun tanqidiy realizm deb yuritiladi. Rassomlar asarda ishlatalgan har bir buyum va unsurni ifodali va asar g'oyasini ochishida xizmat qilishiga harakat qildilar. XIX-XX asrlar realizmi uchun umumiyligida bu uning tarixiyligi, inson xarakterini ifodalashda aniq tarixiy shart-sharoitni hayotga yaqin qilib olinishidir (O. Dome, G.Kurbe, I.Repin, R.Guttuso va b.).

XX asr boshida realizmnning yangi bosqichi ("XX asr Realizm") shakllandi: nemis K.Kolvits, shveysariyalik T.Steynlen, belgiyalik F.Mazerel, fransuz rassomi M.Utrillo, A.Marke, A.Burdel, meksikalik D.Rivera, D.Sikeyros, italiyalik R.Guttuso, J.Mansu, amerikalik R.Kent, A.Refreje va boshqalar XX asr realizmi avangard uslublari bilan raqobatda ifoda va tasvir vositalarini boyitdi.

O'zbekiston san'atida realizm dunyoviy yo'nalish tamoyillari, demokratik hamda ma'rifatparvarlik harakatlari zaminida kamol topdi.



*B.Xamdamiy. IZO  
kadrlar.*



*L.Nasriddinov. Ketmon  
ushlagan bola.*



*L.Abdullayev. Tok.*

Dastlab sodda ibtidoiy san'at namunalarida, keyinchalik yuksak darajada rivojlangan miniatyura san'atida realizm unsurlari ko'zga tashlanadi. Zamonaviy tasviriy san'atda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida realizm shakllana boshladi. XX asrning 20–30-yillarida milliy realistik jarayonlar B.Hamdamiy, L.Nasriddinov, L.Abdullayev va boshqa rassomlar

asarlarida rivojlandi. O'zbekiston realist rassomlari ilg'or qarash va yo'nalishlarda ijod qilib, realizmni yangi imkoniyatlar bilan boyitmoqda.

**ROMANTIZM** (frans. romantisme) - XVIII asrning 1 yarmi- XIX asrda Yevropa, shuningdek, Amerika san'atida paydo bo'lgan hamda jahon bo'ylab keng tarqalgan oqim. Romantizm ispancha romans so'zidan olingen bo'lib, bu so'z dastlab lirik va qahramonlik mazmunidagi qo'shiqni, keyinchalik esa ritsarlar haqidagi katta epik asarlarini anglatgan.



*Davil Jak Lui. Goratsiyalarning qasamyodi.*



*E. Delakrua. Odamlarni yetaklovchi erkinlik.*

Tasviriy san'atda yaratilgan badiiy obrazlar va hayotiy lavhalar hayot haqiqatiga yaqin bo'lib, ijodkorning turmush to'g'risidagi orzu va qarashlarini aks ettiradi. XIX asrning 20-30-yillarida o'zining eng gullagan davrini boshidan kechirgan romantizm rassomlikda namoyon bo'ldi. Bu yo'nalishdagi asarlarga qaynoq ehtiros va hayajon xos bo'lib, unda rang, shakl ifodaliligi, real va xayoliy qiyofalar uyg'unligi muhim o'rinnegalayydi. Yorqin ranglar, yorug'-soya o'yini va keskinligi asarlarga o'zigaxoslik bag'ishlaydi, obrazlar ko'tarinkи ruhda tantanavor kayfiyatda tasvirlanadi. Romantizm o'z taraqqiyotida rasmiy akademizm, klassitsizm tamoyillariga qarshi kurashdi (fransuz E. Delakrua, T. Jeriko, nemis F.O.Runge, K.D.Fridrix, ingliz J.Konstebel, U. Terner, rus O.Kiprenskiy, A.O.Orlovskiy va boshqalar).



*Usto Mo'min. Otarlar zamini.*



*O.Tatevosyan. Bog'larga yo'l.*



*V.Burmakin. Metall quyuvchilar.*

O'zbekiston tasviriy san'atida romantizm tamoyillari XX asrda mungli lirik kayfiyatli Usta Mo'min (A.Nikolaev), ehtirosiga to'la O.Tatevosyan, A.Volkov, keyinroq V.Melnikov, V.Burmakin, J.Umarbekov, A.Alikulov asarlarida namoyon bo'ldi.

**SUPREMATIZM** (lot. supremus – eng yuqori, oliv) – XX asr bosqlarida shakllangan avangrad san'at yo'nalishi. Abstrakt san'at turi sifatida asarlari tasviriylikdan holi, turli rang va turli hajmdagi sodda handasiy shakllar (to'rtburchak, uchburchak, yo'lsimon chiziq va boshqalar) ning asimmetrik uyg'unlashuvidan hosil bo'ladi.



*K.Malevich. Qizil kvadrat.*




*K.Malevich. Qora kvadrat.*

Asoschisi K.S.Malevich; V.Kandinskiy, P.Sezann ta'sirida handasiy

abstrakt izlanishlarni birlashtirishga harakat qildi (“Qora kvadrat”, “Dinamik suprematism”, 1914 va boshqalar). Suprematizm vakillari asimmetrik kompozitsiyalarda rangli, handasiy shakllarning tartibi va joylashuvi orqali asarlarining ichki harakatini ko’rsatishga intildi.



*El Lisitskiy*



*Olga Rozanova*



*Kazimir Malevich. Dehqon boshi.*



*Lyubov Popova*

**SYURREALIZM OQIMI.** Syurrealizm atamasi fransuz tilidan olingan bo’lib, “o’ta realizm” degan ma’noni bildiradi. Dastlab u adabiyotda XX asrning boshlarida Fransiyada paydo bo’lib, keyin san’atning boshqa bir qator turlarida ham qaror topgan. Bu oqim vakillari san’atda aql-zakovat, mantiq, estetik va axloqiy hissiyotlarni tasvirlashga qarshi chiqadilar.

Ular o’z g’oyalardida aqliy faoliyatda va jamiyat hayotida shakllangan tizimni tubdan o’zgartirishni ilgari suradi. Bu oqim vakillari ijodkor ongiga da’atan kelib qolgan so’z, g’oya, fikr, turli tasavvurlarning dastlabkisi,

kutilmagan holatdagi shakl asarning asosi bo'lishi kerak, deb hisoblaganlar. Bu oqimga isyonkorlik ruhidagi, hayotdagi tartib, axloqiy qoidalar bilan hisoblashmaydigan, jamiyatni o'zgartirish g'oyasida yurgan ijodkorlar qo'shilishgan.



*Yapek Yerka.*


Surrealizmning nazariyasiga ko'ra, haqiqiy insonni o'rabi turgan olam faqat intuitiv, behush his-tuyg'ulardan iborat.

Surrealistlarning fikricha, allaqanday tushlar, bo'limg'ur voqealarni haqiqatga birlashtirish mumkin.

Surrealistlarning ijodidagi asosiy usul "mos kelmaydigan ulanish", ya'ni obrazlar va tasvirlarning bir-biriga yaqinlashuvi hisoblanadi. Surrealizmda obrazlar ramzi va narsalar ulkan ilohiy ma'noga ega.

Sof psixologik avtomatizm – bu surrealizmda asos solingan usul bo'lib, bunda rassomlar matoga tasavvur qilib bo'lmaydigan va real obyektlarning tasvirlarini ko'chirdilar. Ular qonun-qoidalarga amal qilinmay yaratgan asarlarida ichki g'oya, falsafa va mazmun yo'q edi. Bunday yondashuv yangi ixtironi rag'batlantiradi: qirqib yopishtirish, surkash, asarning ustki qatlaminiko'chirib olish va boshqalar.

"Ready-made" – ya'ni tayyorlangan texnikasi va kollajlar orqali bo'limg'ur va aqlga sig'mas obrazlar yaratiladi. XX arsnинг 70-yillarida surrealizm orqaroqqa ketib bizga o'zining g'oyalarini meros qilib qoldiradi. Surrealizm bizning davrimizga chuqr kirib dizaynda shuningdek avangard san'atning yo'nalishlarida ko'rindi.



*Sferali galateya.*



*Liza Rey.*

Zamonaviy syurrealizm keskin o'zgardi. Unda faqat g'ayritabiy ko'rinishlar qoldi xolos.

**Syurrealist rassomlar.** Salvador Dali, Alberto Djakometti, Andre Masson, Arshil Gorki, Baltyus, Vangel Naumovski, Vifredo Lam, Wolfgang Paalen, Djordjo de Kiriko, Jak Erol, Jan Arp, Joan Miro, Jorj Papazov, Zdzislav Beksinckiy, Iv Tangi, Maks Ernst, Man Rey, Maurits Kornelis Esher, Mixael Sova, Oktavio Okampo, Paul Klee, Pol Delvo, Raul Yubak, Remedios Varo, Rene Magritt, Fransis Pikabia, Frida Kalo, Xedda Shtern, Xorxe Kastilo, Ernst Fuks, Yasek Yerka.

**SIMVOLIZM** – Yevropa va Amerika san'atida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shakllangan oqimdir. Bu yo'nalishdagi rassomlar ijodining asosini simvolik, ya ni ramziy obrazlar tashkil etadi. Bu simvol-ramzlar turli ma'noni bildirib, asarda yashirin holda ifodalananadi. Ayniqsa, dunyonи tutib turuvchi sirli va g'ayritabiiy mistik kuchlarni ifodalash bu oqimda asosiy o'rinni egallyaydi. Uning eng mashhur vakillari sifatida fransiyalik rangtasvirechi P.Shavanna va germaniyalik X.Mare, A.Feyerbaxlarni alohida e'tirof etish mumkin.

**RAMZ** – bu narsa, harakat bo'lib, obraz, tushuncha va g'oyani anglatadi. Ramz barcha insonlar uchun g'oyalarni mujassamlashtiradi. Ramz – obraz va belgini tahlil etadi. Ramzlar sana, xususiyat, shakl bilan belgilanadi. Masalan, 7 raqami oyning har bir yetti kunida, kamalakning yetti rangi, notadagi yetti chizig'i, haftaning yetti kuni, yetti xislat, yetti sir.



Ranglar ham ramzlarni anglatadi: qizil-jigarrang (yer, loy) barcha zaminni, qizil-qurbanlik qoni rangi, ishonch alangasi; zangori yoki havorang barcha koinot, ulug'likning ramzi; yashil-ishonch rangi, hayot rangi, sabrlilik, yangi hayotda tug'ilish ramzi.

- Bosh suyagi – o'limning muqarrarligi.
- Sovun pufakchalar – hayotning qisqaligi va o'limning yaqinligi.
- Qumli va mexanik soatlar – vaqtning tez o'tishi.
- Musiqa asboblari, notalar-qisqa va o'tkinchi hayot.
- Qurol-yarog', aslaha - hokimiyat va qudratlilik ramzi, hech narsani o'zi bilan u dunyoga olib ketolmaslik.

Yan de Xem so'ligan, shalpaygan lolalar va boshqa gullar buketini tasvirlagan. Bu gullar buketi hayotning abadiy emasligini tushuntiradi. Shuningdek, rassom gul barglarini yeb bitirayotgan qurt-qumursqlarni ham tasvirlab, foniylar o'tkinchi ekanligini eslatadi.



*Ya Davids de Xem. Memento mori.*

Barcha rassomlar bo'yq ranglarining ramzlariga e'tibor bera boshladilar. Har bir rang o'z ma'nosiga va kayfiyatiga bog'liq:

- Tilla rang, ilohiy yog'du ramzini;
- Sariq yoki oxra - oliy tabaqo farishtalar;
- Oq rang - pok va benuqsonlik ramzi;
- Qora rang - ayrim hollarda do'zax, Ollohdan uzoqlashish, boshqa hollarda qayg'u va alam;
- Zangori rang - bibi Maryam, yaratganning onasi;
- Havorang - ulug'lik rangi, ilohiy ramz;
- Qizil rang - ulug'lik ramzi;
- Yashil rang abadiy hayot ramzini anglatadi.

#### **Qushlar va hayvonlar:**

- Sher - mardlik, jasorat, kuchlilik, hokimlik;
- Tulki - makkorlik, ayyorlik;
- Chumoli - donolik, hokisorlik;
- Bulbul – sadoqat;

- Humo - baxt qushi;
- Boyqush - baxtsizlik, vayronalik;
- Baliq – hushyorlik, halol luqma;
- Sichqon – uy hayvonlarining ko‘payish ramzi;
- Echki va qo‘chqor – jasurlik, mardlik, pokizalik;
- Hotam – saxiylik;
- Oq kabutar – tinchlik;
- Ohu – go‘zallik;
- Tuxum – birlilik;
- Dev – makkor, g‘azabkor, buzg‘unchi maxluq bo‘lib, ezgulikka qarshi kurashuvchi, yomonlik, yovuzlik ramzi;
- Ilon – yomonlik;
- Quyosh – ziyraklik.

#### **Ranglarning ramziy ma’nolari:**

- Yashil rang – ona tabiat, islom ramzi;
- Moviy rang – osmon, koinot, tinchlik, yomon ko‘zdan asrash ramzi;
- Qizil rang – g‘alaba, olov, iliqlik, xursandlik, shodlik, qon;
- Sariq rang – muqaddaslik, yorug‘lik, quyosh, kenglik;
- Qora rang - motam, cheksizlik, mavhumlik, qo‘rquv, tushkunlik, noaniqlik;
- Zangori rang – oliv e’tiqod;
- Oq rang – poklik, ozodlik, yorug‘lik, baxt, omad.

#### **Savollarga javob bering va topshiriqlarni bajaring.**

1. Zamonaviy tasviriy san‘at turlari haqida gapirib bering.
2. Bodi-art, installyatsiya qanday tasviriy san‘at turlari, ular haqida misollar keltiring.
3. Abstraktsionizm oqimi haqida gapirib bering?
4. Kubizm, suprematizm qanday tasviriy san‘at oqimlari, ularga misollar Keltiring.
5. Romantizm haqida gapirib bering.
6. Syurrealizm tasviriy san‘at oqimi haqida misollar keltiring.
7. Realizm tasviriy san‘at oqimi haqida gapirib bering.
8. Klassitsizm qanday tasviriy san‘at yo‘nalishi, misollar keltiring.
9. Tasviriy san‘at ramzlari haqida gapirib bering.
10. Simbolizm qanday tasviriy san‘at yo‘nalishi, misollar keltiring.

## RANGTASVIRDA QALAMTASVIRNING AHAMIYATI

Rangtasvir Haqqoniy shaklning rangli tuzilishi qonuniyatlariga asoslanadi. Rangtasvirni o'rganish — bu tekislikdagi rangli shaklning nisbatlari, konstruktiv qurilishi, hajmi, fazoviy tuzilish usullarini izlash yo'lidir. Shularga bog'liq holda har bir rassom qalamda buyum va narsalarni perspektiva qonunlariga asoslanib konstruktiv tuzilishi, fazoviy joylashuvi, nisbat, hajmni mukammal tasvirlay olishi zarur. Qalamtasvirda rang va tusning yaxlit bir butunlikda garmonik uyg'unlashuvi bu haqiqiy rangtasvirdir.

Tasvirda qalamsurat mukammal bo'lishi lozim, aks holda turli bo'yoqlar ham oddiyina narsa va buyumning qurilishi, hajmini to'liq ifodalab bermaydi. Havo perspektivasiga bog'liq holda ranglarning nozik o'zgarishini ifodalovchi, matoga berilgan rang-barang surtmalar ham o'z-o'zidan fazoviy kenglikni ko'rsata olmaydi. Faqat perspektiva qoidalariga to'g'ri amal qilib tasvirlangan qalamtasvirgina ranglarni yanada ham jozibali ko'rsatadi. Agar tabiat manzarasi perspektiva qonun-qoidalariga amal qilinmay tasvirlansa, kenglikni ifodalovchi rangning o'rni ahamiyatsizdir. Rangtasvirni rassomlar shunday ta'riflaydi: "Bu 100% qalamtasvir va 100% rangtasvirning bir-biriga chambarchas bog'liqligidir". Rangtasvirning jozibali chiqishida qalamtasvirning o'rni beqiyosdir. Ammo, mohir rassom qalamdan foydalanmasdan ishni bo'yoqlar bilan tasvirlashi ham mumkin. Ijodkor izlanish jarayonida rangtasvirni qalamtasvir bilan bevosita bog'liqligini his etadi. Ya'ni, buyumlarning fazoviy joylashuvi, nisbatlarning aniqligi, ranglarning to'g'ri qo'yilishi, ishning bir butunlikda yakunlanishi ko'p jihatdan ijodkorga bog'liq. Rassom qalamtasvirni puxta o'zlashtirib olgandagina (qog'ozga to'g'ri joylashtirish, narsa va buyumlarning fazoviy joylashuvi, perspektiva qoidalariga amal qilish, nisbatlarni to'g'ri topish, metodik ketma-ketlikda ishni tuslash va h.k.) rangtasvirda ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. aks holda noaniq yechilgan qalamtasvir ishini tahlil etsak, ranglar qanchalik jozibali bolmasin, baribir bu ishni sifatli deb bo'lmaydi. Shuning uchun turli rassomlik maktabalarining tarixiy tajribalari shundan guvohlik beradiki, ta'limning dastlabki bosqichlarida qalamtasvirni mukammal o'zlashtirish keyingi jarayonlar uchun zamin yaratadi. Yosh rassom Odoardo Fioletti Venetsiyaga o'qishga kelganida rangtasvirni mukammal egallash uchun nima qilish kerak.- degan savoliga Tintoretto shunday javob bergan: "Rasm chizish!" Rassom bo'lish uchun yana qo'shimcha nimalarni maslahat berar edingiz, degan Fiolettining qayta savoliga Tintoretto: "Rasm chizish va yana rasm chizish! Rasm chizish, rangtasvirga nafislik va mukammallik ato etishi

haqiqat, - deb bilgan.<sup>1</sup>

Buyuk haykaltarosh Mikelanjelo qalamtasvirda (rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilikda) "har qanday ilmnинг ildizi va negizini qurgan".

"Qalamtasvir doimo bizga yo'l ko'rsatib turuvchi qutb va kompas bo'lib, turli bo'yoqlar okeanida cho'kayotganlarga najot berish omilidir", — deya ta'kidlagan Sharl Lebren.

Engr Jan Ogyust Dominik o'z ustaxonasining eshiklariga quyidagi so'zlarni yozgan: "Bu yerga kelgan shogirdlarga qalamtasvirni o'rgataman, ketayotganda esa, ular rangtasvir ustasi bo'lib yetishadi".

"Shunday narsa mavjudki, u hamma san'at turlarining asosi hisoblanadi, bu — qalamtasvir. Kimki qalamtasvir san'atini mukammal egallasa, u rangtasvirni ham, haykaltaroshlikni ham o'zlashtira oladi", — deb aytgan Lyudoviko Karachchi.

"Har qanday shaklni ajoyib, nafis qiluvchi ranglar emas, balki aniq chizilgan qalamtasvirdir" — degan Titsian. U qarigan chog'larida ham ko'mir yoki bo'r bilan nimalarnidir tasvirlamagan kuni bo'limgan.



P.P. Chistyakov.



G.Titsian. Avtoportret.



V. Makovskiy. Avtoportret.

"Qalamtasvirga asoslanmagan rangtasvir san'at emas, balki rangli dog'larning tartibsiz yig'indisi", - deya doim takrorlagan V.E.Makovskiy.

"Qalamtasvirni puxta bilmagan ijod ham qila olmaydi", — deb ta'lim bergen P.P.Chistyakov. I.E.Repin kunora 2—3 soat qalamtasvir bilan shug'ullangan va uni rangtasvirning asosi deb hisoblagan. A.M.Vasnetsov P.P.Chistyakovning ta'lim berish tizimini yodga olib, "uning sevimli mashg'uloti qalamtasvir edi", - deb eslaydi. Ashbening Myunxendagi rassom-pedagog maktabida hattoki san'at akademiyasini tamomlaganlar ham ta'lim olar, ta'lim berish faqat qalamtasvir bo'yicha (shaklning konstruktiv tuzilishi, tus-soya, yorug' munosabatlar aks etgan tasvir,

<sup>1</sup> Мастера искусств об искусстве. М., 1966, Т.2. 257-бет.

grizayl) uzoq vaqt o'tkazilgan, shuning natijasidagina shaklni konstruktiv qurish va tus munosabatlarini puxta egallab, so'ng ranglar bilan tasvirlashga o'tilgan.

Yetuk rassomlarning yaratgan asarlari shunisi bilan diqqatga sazovorki, asar kompozitsiyasining mohirona topilganligi, mavzuning dolzarbligi, issiq vasov uq ranglarning o'zaro hamohangligi kishini hayratga soladi. Mashhur rangtasvirchi rassomlarning ko'pchiligi yetuk qalamtasvir ustalaridir. Bular qatoriga K.P.Bryullov, I.I.Shishkin, V.E.Makovskiy, V.D.Polenov, I.E.Repin, M.A.Vrubel, V.A.Serov, K.A.Korovin, A.Abdullayev, O'.Tansiqboyev, Z.Inog'omov, M.Nabiyev, R.Ahmedov, B.Jalolov, A.Mirzayev, A.Ikromjonov, I.Haydarov kabilar kiradi. Rangtasvirda nozik plastik shaklning mavjudligi, nisbatlarning mutanosibligi, hajm, fazoviy sifatlar muhim o'rinn egallaydi.



*I.I. Shishkin. Eman.*



*O'. Tansiqboyev. Portret.*



*S.Rahmetov. G'.G'ulom portreti.*

Rangtasvirchi rassom naturadagi ana shu jihatlarni to'laqonli aks ettira olsagina maqsadga muvofiq bo'ladi. Agarda bu jihatlar mavjud bo'lmasa, tasvir o'ta ehtiyyotsizlik, pala-partishlik bilan ishlangan sifatsiz ish deb baholanadi. Rangtasvirda ranglar qalamtasvir bilan uzviy bog'liq bo'lishi zarur. Ya'ni ishni rangda boshlash uchun qalamda naturaning zarur joylarini belgilab olib, shaklning shartli chiziqlarini unutib, ranglar vositasida shakl hajmini tasvirlash darkor. D.N.Kardovskiyning fikricha, agar biz rangtasvirni qalamtasvirning rangda davom etishi deb aytsak, shaklning rangda talqin etilishi, qalamtasvirdan boshlanadi va ijod jarayonida u bir necha marotaba to'g'rilanadi, ranglar bilan sayqallanadi. Qalamtasvir mahoratini puxta egallash, betakror rangtasvir asarlari yaratish garovidir. P.P. Konchalovskiy rangtasvirda qalamtasvirning mohiyatini ko'rib, shunday yozgan: "Rangtasvirning haqiqiy usuli — bu shaklni mutlaqo aniq yetkazib berish yo'li bilan beriladigan bo'yq surtmadir".<sup>4</sup>

<sup>4</sup> Кончаловский П.П. Мысли о художественном творчестве. М., 1964, 27-бет.



I.Levitan. Gullayotgan olma.



Van Gog. Bug'doy dalasi va kiparislari.

Haqqoniy san'atda asosiy badiiy qiyofa qalamtasvirdir. U jism shaklini qayta ishlab chiqadi, voqeа va insonlar haqida ma'lumot beradi. Qalamtasvirda tasavvur, kompozitsiya g'oyalari mujassamlashgan. Kompozitsiya qalamtasvirda paydo bo'ladi (plastik g'oya) va qayd etiladi. Hattoki, haykaltarosh va me'morlarning dastlabki g'oyalari qalamtasvirdagi qoralamadon boshlanadi.

Rassomlarda esa plastika haqidagi fikr, kompozitsiya to'g'risidagi umumiyy o'ylar doimo qalamtasvirda paydo bo'ladi.


Qalamtasvir san'atining haqiqiy ustasi bo'lish va uni to'g'ri tushunish turli yo'nalishdagi rassomlarga: grafik rassom, me'mor, sahna bezakchisi, monumentalchi rassom va boshqalar uchun juda muhimdir. Agar kino yoki teatr rassomi qalamtasvir sir-asrorlarini mukammal egallamagan bo'lsa, uni haqiqiy ijodkor deb bo'lmaydi.

Hattoki, haqqoniy qalamtasvir chizish matabida tarbiyalangan rassomlarning tasviriy san'atning har qaysi turi bo'yicha yaratgan ijod mahsulining qiymatiga qarab tasviriy, madaniy darajasi qadrlanadi.

Agar bezatuvchi, rassom, pedagog yoki monumentalchi kabi ixtisosliklardagi rassom haqiqiy qalamtasvir asoslarini puxta o'rganmay turib asar yaratishni boshlasa, u dastgohli san'at asarining chala yaratilishiga, tasvirda soxta manzaraning paydo bo'lishiga, haqiqiy inson qiyofasini to'laqonli aks etmasligiga sababchi bo'lib, tasvirlanayotgan voqeа va hodisalarining asl mohiyatini to'liq ochib bera olmaydi. Rangtasvirda mohirona ijod qilish uchun yosh shogird rassom qalamtasvirda quyidagi bilim va malakalarini puxta o'zlashtirmog'i lozim:



*E.Melnikov. R.Choriyev – Bog'lar.  
(Qalam.)*




*E.Melnikov. R.Choriyev – Bog'lar.*

Kuzatuv perspektiva (ufq chizig'i, yassi jismlar va ufq chizig'i perspektivasi) elementlari. Tekisliklar bilan chegaralangan jismlarni konstruktiv va perspektiv qurilishi (kub, prizma, interer va eksterer).

### **Silindr shaklidagi jismlarning perspektiv qurilishi**

Geometrik shakllarda soya-yorug' munosabatlari (kub, silindr va shardagi soya-yorug'ning taqsimlanishi, havo perspektivasining elementlari).

Qalamtasvirda hajm, fazo va materiallikni tasvirlash usullari (turli materiallarning soya-yorug' xususiyati, tus munosabatlari, hajmnii ko'rsatishda chiziq va "shtrix"ning o'mi, fazo va moddiylik).



*O'.Tansiqboyev. Sirenli yo'l.*



*P.Ahmedov. Samarqand–street.*

Qalamtasvirda faqat nazariy bilimlarni mustahkamlab qolmay, balki amaliy jihatdan ham katta tajribaga ega bo'lmoq lozim: qo'yilmadagi

nisbatlarni aniq topish, nozik perspektiv o'zgarishlarni sezalish, tasvirni qog'oz yuzasida asosli-konstruktiv qurish va joylashtirish, shakl hajmini tushayotgan soya-yorug` orqali mohirona ifoda etish hamda ishni tus jihatdan yaxlit bir butunlikda yakunlash zarur. Qo'yilmani turli ranglarda bajarish ham mas'uliyatli vazifadir, chunki rangtasvirda rang va tus munosabatlari yaxlit bir butunlikka asoslanadi. Shakl hajmini tasvirlashda tusning o'rnini to'g'ri tushunmaslik turli chalkashliklarga olib keladi.

Demak qalamtasvirda eng muhim iishni tus jihatdan yaxlit bir butunlikka erishib yakunlash hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida rangtasvirga o'tishga qulay imkon yaratadi.

## RANGLAR XUSUSIYATI

Dastlabki amaliy vazifa ranglarning uchta xususiyati bilan tanishtirishga bag'ishlanadi, ya'ni bir buyumning ikkinchisidan rang farqlanishi quyidagicha: rang tusi, och to'qligi va to'yiganligi. Narsalarning ranglarini faqatgina biror belgi orqali och to'qligi, rang tuslaridan yoki to'yiganligidan yoki bo'lmasa har ikkala va uchala xususiyatlari bilan ham ajratish mumkin.

"Rangtasvir - tasvirlanayotgan kartinadagi barcha bo'laklar orasidagi munosabatlarni, ularning yorug'lik kuchini va har bir bo'laklarni o'zaro taqqoslash natijasida, bo'yoqlar va nozik farqlar kuchini uzoq vaqt kuzatish orqali borliqni to'laqonli ifodalash mumkin," - deb aytgan edi K.F. Yuon.

Rangning kuchi (to'yiganligi) farqlarini rang nafisligi yoki och-to'qligi bo'yicha aniqlashdan mushkulroqdir. Yosh rassomlar dastlab ranglarning to'yiganligi bo'yicha farqlarini tushunmaydilar (ranglar nafisligi va uning soya yorug'ligini yaxshi sezmaydilar). Shu sababli ular tasvirlash mobaynida, masalan, yashil rangdagi daraxtlar, o't-o'lanlarni ifodalayotganda ayrim qiyinchiliklarga duch keladilar. Ular etyudlaridagi daraxtlarning yashil barglarini nihoyatda bo'rttirib yorqin tasvirlaydilar. Ranglar to'yiganlik jihatdan munosabati aniq berilmagan, etyudlardagi yorug'lik muhit ta'siriga bo'y sunmaganligi yaqqol ko'rindi va u haqqoni rangtasvirga o'xshamaydi. Rang munosabatlarini to'g'ri aniqlash uchun ranglarni uchta belgisi bo'yicha buyumlarni bir-biri bilan bir vaqtida taqqoslash lozim. Bu bilan qo'yilmaning och-to'qligi va to'yiganlik farqlarini qayta qabul qilishda asosiy o'rinni kolorit vazifalar yechimiga bog'liq. Manzara etyudlarida, masalan, osmon va suvni tasvirlashda, asosan, ranglarning och-to'qligi va to'yiganligi orqali munosabatlarni ko'rsatishga erishiladi. Turli-tuman boshqa faoliyatlarda (portret, natyurmortda) tus va ranglar kuchining aniq munosabati haqqoniy tus

munosabatlar qurilishini aniqlaydi.

Rangning asosiy xususiyatlarni amaliy jihatdan bilish uchun ularni turli buyumlarda sinab ko‘rish kerak (turli to‘yinganlikdagi mevalar, sabzavotlar, rangli drapirovkalar va h.k.).



G. Shpolyanskiy. Yo‘l.



V. Fadeyev. Y. Kashina  
portreti.



D. Kenjibayev. Oila.

Rangi, tusi va to‘yinganligi jihatdan, turlicha bo‘lgan buyumlarni puxta o‘rganish va taqqoslashdan so‘ng, talabalar to‘yinganlik shkalasini alohida dog‘ yoki surtma sifatida bajarishi lozim, ularning to‘yinganligi eng yorqindan boshlab deyarli kulrang, neytral rang bilan asta-sekin pasayib boradi.

**To‘yinganlik** — bu kulrangdan ranglarning nozik farqlanish darajasi yoki uning sof spektr ranglariga yaqinlashuv darajasi.

Ranglarning turli kuchdagi nozik farqlarini tuzishda asosiy bo‘yoqlarni neytral kulrang bilan qo‘sish natijasida hosil qilish mumkin. Kulrang bo‘yog‘i qanchalik ko‘p qo‘silsa, u ko‘proq neytral to‘yingansizroq boladi.

Keyingi mashqlarda turli masofadagi farqlanishni uchta rang xususiyatlari bo‘yicha naturadagiga xos holda ko‘rsatib, narsalar rangini naturaning o‘zidan ko‘chirib olish lozim. Buning uchun stol ustiga (oq qog‘oz fonida) rang jihatdan och-to‘qligi va to‘yinganlik bo‘yicha bir-biridan farq qiladigan 3-5 narsalarni bir qatorga tizib qo‘yish kerak. Bu narsalarni old tomondan yoritib (deraza tomondan), ularda imkoniyat qadar soya va yorug‘ gradatsiyasi bo‘lmasdan yassi ko‘rinishlari lozim. Narsalarning qalamtasviri faqatgina siluet tarzida belgilanadi va ularning shaklidagi nozik farqlariga e’tibor bermasdan faqatgina rang farqlarini dog‘ ko‘rinishida ko‘rsatish bilan chegaralanish mumkin.



*O'quv natyurmorti.*



*O'quv natyurmorti.*

Bu mashqlardan tashqari, yana uncha murakkab bo'limgan neytral och kulrang fonda qalamtasviri chizilgan natura qo'yilmasini (3 ta narsadan tashkil topgan natyurmort) bajarish lozim. Yorug'likning old tomonidan deraza orqali berilishi oldingi holatda qoladi. Bu mashqning asosiy vazifasi shundan iboratki, deyarli bir xil dog' sifatida (narsalar silueti) narsalar orasidagi munosabatlarni uchta rang xususiyatlari orqali ko'rsatishdir.

Oq, kulrang yoki qora qo'shib har qanday ko'k rang xususiyatini (tus va rang jihatdan) o'zgartirish mumkin. Ranglar diagrammasini kuzatar ekanmiz, 100 foizlik turli 4 xil rang tusi sinab ko'rilib.

*You can change the character of any blue with the addition of white, gray, or black pigments (creating a tint, tone, or shade of that color, respectively). Looking over at the color chart [on the opposite page], notice that four different pigments are tested beginning with 100 percent of the hue across the top of each.<sup>1</sup>*



*O'quv natyurmorti.*

<sup>1</sup> Suzanne Brooker Techniques for rendering sky, terrain, trees and water. Published in the United States by Watson-Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York, 2015, p. - 149

## RANGTASVIRDA RANG

Ranglarning tabiatda qanday hosil bo'lishi va tarqalishi muammosi qadimdan olim va rassomlarning diqqatini tortgan.

Mashhur olimlar Nyuton, Lomonosov, Gelmgolslar ranglarning mohiyatini ilmiy asosda tekshirganlar. M.V. Lomonosov fanda birinchi bo'lib asosiy ranglarni kashf etgan. Isaak Nyuton qator tajribalar o'tkazib, oq yoruglikni ko'p rangli ekanligini isbotlagan. Ekranda spektr ranglarini hosil qilgan. Buning uchun Nyuton Quyosh nurini qora pardanining kichik tirkishidan o'tkazib uning yo'liga uch qirrali prizma qo'ygan, natijada ekranda har xil ranglardan iborat keng yorug'lik yig'indisi hosil bo'lgan. Ekranda spektr ranglari paydo bo'lib, ular quyidagicha joylashgan: qizil, sariq, zarg'aldoq, yashil, zangori, havo rang va binafsha ranglar.

Nyuton ranglarni fizika fani nuqtai nazaridan o'rgangan bo'lsa, nemis shoiri va san'atshunosi I.V. Gyoteni ranglarning kishi organizmiga ko'rsatadigan ta'siri ko'proq qiziqtirgan. U "Ranglar haqidagi ta'limot" nomli asarida ranglarni iliq va sovuq tuslarga ajratgan. Iliq (sarg'ish, qizil) ranglar kishida kayfichog'lik tuyg'usini, sovuq (havorang, yashil) ranglar esa ma'yuslik tuyg'usini uyg'otishi haqida yozgan.




### *Ranglar aralashmasi.*

XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L. Gelmgols rangshunoslik nazariyasida muhim yangilik yaratdi. Ko'p yillik tajribalar asosida xromatik ranglarning uchta asosiy alomati — rang tusi, rangning och-to'qligi va to'yinganligi asosida turkumlash zarurligini ko'rsatdi.



*Rang kuchli to'yanganligidan och to'yanganligiga o'tilishi.*

*Ranglarning qo'shilishi.*



*Ranglarning bir-biriga o'tilishi.*

Ilmiy izlanishlar va amaliyot jarayonida qator qoidalar ishlab chiqilgan bo'lib, talaba o'zining o'quv jarayonida va ijodiy ishida ularga amal qilishi shart.


Tabiatdagi ranglar o'z xususiyatiga ko'ra ikki turga: axromatik (rangsiz) va xromatik (rangli) xillarga bo'linadi.

Axromatik ranglarga oq, kulrang va qora ranglar kiradi. Boshqa ranglar esa xromatik ranglarni tashkil qiladi. Ular o'zaro aralashtirilganda esa yana bir qancha tusdag'i ranglarni hosil qiladi. Biror xromatik rangga ochroq kulrang qo'shsak, uning jozibaliligi pasayib, nursizlanadi. Bu hol rangning kam to'yanganligidan, ya'ni uning tarkibida bo'yqning kamayganligidan darak beradi. Demak, rangning to'yanganligi yoki to'yinmaganligi deganda kul rangga nisbatan rangdorlik darajasi, tozaligini tushunish kerak.

Rang doirasi ikki teng bo'lakka bo'linsa, birinchi yarmida qizil, zarg'aldoq, sarg'ish. sariq ranglar, ikkinchi yarmida esa havo rang, zangori, ko'k, binafsha ranglar joylashadi. Doiraning birinchi yarmidagilar iliq

ranglar, ikkinchi yarmidagisi esa sovuq ranglardir. Bunday nomlanishga sabab qizil, sariq, zarg'aldoq ranglar olovni, qizigan temirni, cho'g'ni eslatsta, havorang, zangori, yashillar esa muzni, suvning rangini eslatadi.

Ikkita spektr rangi ustma-ust tushirilsa, ranglar bir- biriga qo'shilib murakkab rang hosil bo'ladi. Qizil rang, havorang va binafsha ranglar bilan qo'shilganda chiroyli tusdag'i pushti, to'q-qizil, sapsar ranglarni hosil qiladi. Qo'shilganda oq rang beradigan spektrli ranglar qo'shimcha yoki to'ldiruvchi ranglar deyiladi. Chunki, ular oq rang hosil bo'lgunga qadar bir-birini to'ldiradi. Bunday ranglarga sariq, havorang, qizil, zangori, yashil va binafsha ranglar kiradi.



### *Ranglar spertori.*

Bo'yoqlarning qo'shilishi bilan spektraviy ranglarning qo'shilishi orasida farq bor. Uchta asosiy spektraviy rang: qizil, yashil va havorang qo'shilganda oq rang hosil bo'ladi.

Asosiy qizil, sariq va havorang bo'yoqlari qo'shilishidan esa qora rang hosil bo'ladi. Spektrning sariq va havo ranglari qo'shilishi natijasida oq rang hosil bo'ladi. Biroq sariq va havorang bo'yoqlarni aralashtirsak yashil rang hosil bo'ladi.



Demak, ikkita rangni optiq aralashtirish natijasida oq yoki unga yaqin nim kulrang hosil qiladigan ranglar o'zaro to'ldiruvchi (qo'shimcha)

hisoblanadi. Masalan, to'q-qizil va yashil, zangori va zarg'aldoq, qizil, sariq, havorang, sarg'ish yashil va binafsha ranglar o'zaro to'ldiruvchidir.

Kundalik turmushimizda, hayotiy tajriba asosida ma'lum buyum va narsalarning o'ziga xos ranglari ongimizga singib boradi (paxta — oq, o'tlar — yashil, osmon — havorang, dengiz — ko'k va boshqalar). Bu ranglar buyum va narsalarning shaxsiy rangi hisoblanadi. Ammo, buyum va narsalardagi shaxsiy rang turli yorug'lik ta'sirida o'zaro o'zgaruvchan bo'ladi. Qarama-qarshi ranglarning ta'sirida buyumning rangi turlichka ko'rindi. Qizil muhitdagi kulrang buyum ko'kmitir-yashil tusga kiradi, yashil muhitda — pushtisimon, sariqda esa — ko'kmitir bo'ladi.

Qizil qog'ozdan doira shaklini qirqib olib, kulrang qog'oz ustiga qo'yilsa kulrang qog'oz yengil yashilsimon rangda bo'lib ko'rindi. Agar qizil doiraning o'rniga yashilni qo'ysa, kulrang qog'ozda qizg'ish tus hosil bo'ladi. Har bir holatda ham qarama-qarshi ranglarning tuslari (qo'shimcha) hosil bo'ladi. Shu sababli ham tabiatda "xira" neytral ranglar mavjud emas. Hatto, buyumdag'i soyalar ham nozik yengil ranglar bilan to'yangan. Yonma-yon bo'lgan qo'shimcha ranglar o'zining yorqinligini kuchaytiradi (qo'shimcha va qarama-qarshi ranglar— bu qizil va yashilsimon — havorang, zarg'aldoq va havorang, sariq va ko'k, sarg'ish-yashil va binafsha rang, yashil va qirmizi). Buyumlar rangi kuzatuvchidan uzoqlashgan sari ham o'zgaradi (havo perspektivasi).

Yuqorida sanab o'tilgan ta'sirlar natijasida buyumning rangi, rangning tusi bo'yicha ham, yorug'lik bo'yicha ham, to'yanganligi bo'yicha, yoki uchala xususiyatlari bo'yicha bir vaqtida o'zgarishi mumkin. Bunday o'zgargan rang endi buyumning shaxsiy rangi emas, balki shartlidir. Havaskor rassomlar odatda yuqorida ko'rsatilgan shartli o'zgarishlarni sezishmaydi.




### *Iliq va sovuq rang fonida ko'rinish.*

Ular turli holatlarda ham buyum o'zining rangini ko'rishadi. Sun'iy elektor yorug'ligi tushayotgan oq qog'ozni ular xuddi tabiiy holatdagidek oq deb atashadi, aslida esa sun'iy yorug'likda u sariq yoki olovrang tusda

ko'rinadi. Istirohat bog'lardagi old va orqa ko'rinishdagi turli daraxtlar ularga bir-xil yashildek tuyuladi, ammo orqa ko'rinishdagi daraxtlar rangi tus bo'yicha ham, yorug'lik bo'yicha ham, to'yinganligi bo'yicha ham o'zgaradi. Yana bir misol. Tajribasiz rassom sariq olmaga qarasa, uning to'qroq joyini ham xuddi yorug' joyi kabi sariq rangda ko'radi, biroq, yorug'ligi va tusi bo'yicha soya joyda olmaning rangi o'zgaradi. Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, havaskor rassom nafaqat ranglarni, balki buyum shaklining perspektiv o'zgarishlarini ham sezmaydi. Yosh bolalar chizgan rasmlarga razm solsak, ular perspektiv o'zgarishlarni sezmay uylarni to'g'ri burchakli qilib, uzoq masofadagi buyumlarni esa kichraytirishni bilmay tasvirlaydilar.

Buyumlarning shakl va ranglarini haqiqiy va tabiiy holatda ko'rish va qabul qilish odatini ruhshunoslar odatiy ko'rish deb atashgan. Insonlar buyumlarni ko'rishda va qabul qilishda nafaqat turli kattalik va rang dog'larini ko'rishadi, balki narsalarning haqiqiy konstruktiv tuzilishi va rangini ham shu qatorda qabul qilishadi. Odatiy ko'rish natijasida havaskor rassomlar qator "kolorit" xarakteridagi xatolarga yo'l qo'yishadi. Ular havo bulut kunlari yerdagi qorni tasvirlashda oq rangdan boshqa rangni ko'rmaydilar.



### *Dala manzarasini tasvirlash.*

Yashil barglar yoki o't-o'lanlar kunning va ob-havoning turli vaqtida

ularning rang lavhalarida bir-xil yashildir, xuddi ularda samoning havo rang tusi va tabiiy yorug'likning o'zgargan kuchi o'z ta'sirini o'tkazmayotgandek.

Malakali rangtasvirchi har qanday buyum va narsaning shartli rangini ko'ra bilishi va mohirona tasvirlay olishi zarur. Shundagina tomoshabin asarning haqiqiy borliqdagi ko'rinishini tomosha qilishga muyassar bo'ladi. Aynan shartli rang haqqoniy rangtasvirning asosiy tasvir usuli bo'lib hisoblanadi.

Tajribali rassomlar yorug'lik ranglari ta'siridagi tabiatda sodir bo'layotgan nozik o'zgarishlarni ham bo'yoqlar vositasida mohirona tasvirlaydilar.

Agar biz tungi oy nurida tasvirlangan bir qator asarlarni ko'zdan kechirsak, hammasida ko'kimtir-yashil tuslar yig'indisini ko'ramiz; quyosh botishi yoki oqshom vaqtida, sun'iy elektorda yoritilgan asarlarda sarg'ish-olovrang yoki qizg'ish koloritni ko'rish mumkin.

V.Serov, I.Repin, M.Nabiiev, U.Tansiqboyev, R.Ahmedov, A.Mo'minov, I.Haydarov, P. Benkovlarning ko'plab asarlarida sun'iy elektor yorug'ligi, quyosh botishi, oydin kecha yoki bulutli havoda buyum va narsalardagi shartli ranglarni yuqori malakada tasvirlanganligining guvohi bo'lamiz.

Naturadan tasvirlanayotgan ranglavha koloriti kunning qaysi vaqtida, qanday yorug'lik manbai bilan yoritilanligiga bog'liq.



*Manzarada ranglar koloriti.*

Ajoyib rus rassom-pedagogi P.P. Chistyakov bu borada: "Ranglarni aniq ko'rish uchun, tabiat qonuniyatlarini bilish kerak. Bu bilim esa ko'rishga yordam beradi", - deya qat'iy maslahat bergen.

## HAJM, FAZO VA MATERIALLIK

Dastgohli rangtasvirda rassom g'oyasi turli xil tasviriy vositalar orqali namoyon bo'ladi, ular hajm, moddiylik, fazo va ranglar majmuasi. Shuning uchun eng avvalo dastgohli rangtasvirning oddiy haqqoniy tili, uning nazariy asoslari va amaliy xususiyatlarini muhokama qilib chiqamiz.

**Hajm.** Buyumning fazoviy tekislikdagi uch o'lchamli tasviri, eng avvalo perspektiva va konstruktiv qurilishni to'g'ri hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Tekislikda shakl hajmini tasvirlash qoidalariga to'g'ri amal qilib qalamda ifodalash jarayonida buyumdag'i yorug'likning eng kuchli nuqtasi, yorug'lik, yarim soya, aks soya, shaxsiy va tushayotgan soyalarni mohirona ko'rsata olish muhimdir. Buyum hajmini tasvirlashda mo'yqalamda ham qalamdagidek qoyilmaqom qilib ko'rsata olish juda zarur. Tekislikdagi to'g'ri qirrali shakllardagi "shtrix"lar to'g'ri va parallel, silindr, konus va sharsimon shakllarda esa, chiziqcha yoysimon yo'nalishda berilishi maqsadga muvofiqdir.



O'quv natyurmortlar.

Turli hajmga ega bo'lgan buyumlar tekis yoki notejis sathga ega, ularga tushayotgan yorug'lik ham har xil bo'ladi. Buyumlarga tushayotgan yorug'lik nuri darajasi, yorug'lik tushayotgan joy bilan buyum orasidagi masofaga bog'liq. Buyumdan yorug'lik manbai qanchalik uzoq bo'lsa, shunchalik kuchsiz va aksincha qanchalik yaqin bo'lsa, nuri shu qadar kuchli tushadi.

Sathlarga tushayotgan yorug'lik darajasining kuchi uning tushish

burchagiga ham bog'liq. Tushayotgan yorug'lik perpendikulyar (tik) bo'lsa, u yanada yorug'roq va tiniqroq, sathga tushayotgan nurning sinishi qanchalik kuchli bo'lsa, yorug'lik ham xiraroq bo'lib tushadi.

Tushayotgan yorug'lik kuchi buyumning sath xususiyati fakturasi (materialiligi) va rangiga ham bog'liq: silliq va yaltiroq buyumlar yorug'likni kuchli, g'adir-budir bo'lsa xiraroq aks ettiradi. Buyumning rangi to'q tusda bo'lsa, u yorug'likni o'ziga yutib, nurni kam aks ettiradi. Juda to'q tusda va o'ta och tusda bo'lган buyumlardagi soya-yorug'ning taralish chegarasini sezish juda mushkul, chunki inson ko'zlarini bu nozik o'zgarishlarni aniq sezish qobiliyatiga ega emas.



O'quv natyurmortlar.

Buyumlarga tushayotgan yorug'lik nurlarini chuqur tahlil etib, tasvirlashning dastlabki saboqlarini egallashda gipsli geometrik jismlardan boshlash maqsadga muvofigdir.

Gipsli geometrik jismlarda (kub, shar, silindr, konus, prizma) kundalik turmushimizda uchraydigan barcha uy-ro'zg'or buyumlari mujassamlashgan. Kub, prizma, silindr, konus va sharlarga tushayotgan yorug'lik nurlari qonuniyatlarini o'rganib tasvirlash, qolgan barcha oddiy va murakkab shakllardagi buyumlarni tasvirlashga puxta zamin yaratadi. Demak, biror-bir buyumni chizishga kirishishdan avval, uning asosiy o'ziga xos belgilarini tushunish zarur. Agar buyum sharga o'xshash bo'lsa, demak sharsimon buyumning asosida sharni tasavvur etib, unga ishlatiladigan shtrixlarni yo'simon yo'nalishda berish zarur. Har qanday murakkab buyum shaklini ifodalash ularni oddiy geometrik shakllar bilan taqqoslash, solishtirish hamda yorug'-soya orqali hajmlarini tasvirlash maqsadga

muvofiqdir.

Shaklning hajmdorligi va yorug'-soyasi tabiiy sharoitdagi yorug'likda yaxshi ko'rindi. Geometrik shakllarning hajmini aniq ko'rsatish uchun qo'yiladigan yorug'lik manbai yon tomondan yaqinroq qilib tushiriladi, shaklning soya tomoniga esa yorqinroq mato qo'yilishi tasvirning chiroyli va aniq bo'lishiga olib keladi.

Buyumning yorug'lik tushmasdan soyada qolgan qismidagi soya shaxsiy soya, yorug'lik tushayotgan qismi esa yorug'lik deb ataladi.

Yorug'likdan asta-sekinlik bilan soyaga o'tish joyi silindr va sharlarda yarim — soya deb ataladi.

Murakkab gips rozetkalar yarim soyada aniqroq ko'rindi, soyada esa uning aniqligi pasayadi. To'g'ri tushayotgan nur buyumning qaysi bo'lagiga tushmasa o'sha qismidagi quyuq soya shaxsiy soya deb ataladi. Buyumdan tushayotgan soya bilan shaxsiy soyaning farqi uncha katta emas. Buyumdan tushayotgan soya buyumga qanchalik yaqin bo'lsa, u shunchalik to'q tusda bo'ladi. Atrof-muhitudagi buyumlardan asosiy buyumning soyasiga tushayotgan yorug'lik nuri buyumda refleksni (aks shu'lani) hosil qiladi.

Reflekslar nafaqt soyani o'zgartiradi, balki o'zining rang-barang tuslarini ham taratadi.

Buyumga tushayotgan yorug'likning eng kuchli nuqtasi blik (shu'la) deb ataladi. Yaltiroq buyumlarda "blik"lar va "refleks"lar tiniq va aniq chegaraga egadir, xira, g'adir-budir buyumlarda esa ular aksincha bo'ladi.

Yoritilgan gips kub va piramida yorug'-soyaning taqsimlanishi har xil bo'ladi. Chap tomonidan tushayotgan yorug'lik nuri kub va piramidaning qirralarini turlicha yoritadi. Yorug'lik manbaiga yaqin bo'lgan qirra nihoyatda kuchli yorishadi, qolganlari esa unga nisbatan xiralashib boradi.

Tasvirlash jarayonida yorug'-soyani nihoyatda sinchiklab tahlil etish, taqqoslash ishning samarali yakunlanishiga olib keladi.

Hajmdor shaklga ega bo'lgan har bir buyum nafaqt yorug'-soyada, balki turli ranglar ta'sirida ham o'z rangini o'zgartiradi. Yorug'-soya "gradatsiyasi" — yorug'lik, yarimsoya, shaxsiy soya, reflekslar, turli ranglar tusiga ega. Buyumning yoritilgan qismi (rang) ma'lum nurlarni o'ziga qabul qilib, ma'lum bir tusni hosil qiladi. Yorug'lik oynadan tushayotgan xonadagi bo'lak (qism) sovuq tusga ega. Sun'iy yoritish hamda quyosh nuri esa xona bo'lagiga issiq tus baxsh etadi.

Sovuq tusdagi xona bo'lagining soya qismi, soyaga qarama-qarshi bo'lib issiq tusda ko'rindi. Shu bilan birga, soyadagi buyumlarga atrofdan yaqin buyumlardagi refleks(aks)lar ta'sir ko'rsatib buyumlar rangini o'zgartirib boshqa tuslar hosil qiladi. Quyosh nurida buyumlardagi shaxsiy

va tushayotgan soyalarning sovuq tuslarini kuzatish mumkin. Biroq, bu yerda ham, atrofdagi jismlardan taralayotgan reflekslar sababli issiq tuslarni ko'rish mumkin.

Ma'lumki, buyumdan tushayotgan va shaxsiy soyalar atrof muhitdagi buyumlarning reflekslari bilan bog'liqdir. To'g'ri tasvirlangan reflekslar shakl hajmini ifodalashga, yorug' muhitning buyumlar orasidagi rang-barang mutanosiblikning ko'rsatilishiga katta yordam beradi. Reflekslarning kuchi, tasvirlanayotgan buyumning moddiy jihatiga (xira, yaltiroq, shaffof shishali) hamda yaqin atrofdagi buyumlarning yorqinligiga bog'liqdir. Misol uchun chinni choynakning soya qismida aytaylik sariq olma turibdi, bu holatda choynakning to'q soyali qismida sariq tusdan refleks (aks) ko'rindi.

Silliq, yaltiroq jismlar kuchli aks etuvchi va rangli blik-shu'la hamda reflekslarga boy bo'ladi; g'adir-budir, xira jismlar nurlarni sindiradi, yorug'-soyani o'ta mayin va ravon chegaralanishi bilan farqlanadi.

Shakldagi tuslarning rang-barang xilma-xilligi yana ranglarning kontrats (qarama-qarshi) munosabatlariiga ham bog'liq bo'lib, bular ranglarning issiq-sovuqligidan kelib chiqadi: shakli bo'yicha issiq tuslilarga hamisha sovuq tuslar hamroh va aksincha. Yashil muhitda joylashgan xolis rangdagi jismlar issiq rangni hosil qiladi, qizilda esa sovuqdir va yashil bo'ladi. Agarda qarama-qarshi ranglar qizil bilan yashil, sariq bilan ko'k yonma-yon qo'yilsa ranglarning bir-biriga nisbatan jarangdorligi kuchayadi. Ranglar tutashgan joyda o'zaro zid chekka qarama-qarshi chegara paydo bo'ladi. Sovuq to'q tuslar och issiq tuslarni, issiq to'q tuslar esa sovuq och ranglarni kuchaytiradi. Yana shuni hisobga olish zarurki, xilma-xil "qora" bo'yoqlar issiq va sovuq tuslarga egadir.

**Fazo.** Tasvir tekisligidagi fazo xuddi jismlarning hajmini tasvirlashdagi kabi qalamtasvir perspektivasini to'g'ri qo'llab qurish bilan ko'rsatiladi. Agar jismlar va joylar fazoviy muhitda (masalan, manzarada) perspektiva qonun-qoidalariga amal qilmay tasvirlangan bo'lsa, havo perspektivasidagi rangli va tusli tasvir elementlari fazoni mukammal ko'rsatib bera olmaydi. Yaqinda va uzoqda joylashgan jismlar, joylarni (natyurtmorda ham, manzarada ham) qurilishini kuzatuv perspektivasiga qat''iy amal qilgan holda tasvirlash lozim.

Borliq — fazoni ko'rsatishda narsalarni uzoqlashgan holatdagi rang va tus o'zgarish qonuniyatlariga ma'lum darajada amal qilib tasvirlash kerak (havo perspektivasi). Masofaga qarab buyumlarning perspektiv kattaligi o'zgarganligi kabi, uzoqlashgan sayin uning rangi ham o'zgarib ko'rindi.



O'. Tansiqboyev. Kenglikda.



O'. Tansiqboyev. Oqshom.

Masofa uzoqlashgan sari birinchi navbatda rangning yorqinligi pasayadi. Uzoqdagi daraxtlarning ranglari yaqindagiga nisbatan xolisnotiniq bo'lib qoladi. Masofaga bog'liq holda tus ham, yorug'lik ham o'zgaradi. Och jismlar uzoqlashganda to'qlashadi, to'qlari esa ocharadi, xira tortadi.

Bunday o'zgarishlarga havoning qandaydir zichligi sabab jismlardagi rangli nurlarning o'tishi qiyinlashadi. Bundan tashqari bizning qarashimiz va uzoqdagi jism orasidagi xira shaffof havo ko'pincha havoranglilik xususiyatida bo'ladi. U uzoqlashgan jismlardagi ranglar bilan qo'shilib, ularga ko'kintir tus beradi va soyalarini ochartiradi.

Shunday qilib uzoqlashganda barcha ranglar yorqinligini yo'qotib, havorang yoki ko'kintir tusga kiradi, soyalari ocharib, och joylari to'qlashar ekan, bunda rang va tusning farqlari kamayadi, qarama-qarshi ranglar kuchsizlanadi, jism chiziqlari, ularning hajmi o'z aniqligini yo'qotadi. Uzoqlashish va yorug'likka bog'liq holda daraxtlarning yam-yashil rangidagi o'ta nozik o'zgarishlarni rus rassomi I.I. Shishkinning "Ormon ufqlari" asarida ko'rishimiz mumkin. Yaqindan ko'rinayotgan daraxt va o't-o'lanlarning yorqin issiq yashil rangdan uzoqlashgan sari sovuq kulrang-havorang rangga o'tishini sezish mumkin. Rassom asarida fazo o'ta ravon chuqur ichkariga kirib ketgandek tasavvur hosil qiladi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, rassom fazoviy perspektivani o'z asarida nihoyatda mohirlik bilan tasvirlay olgan.

Manzarani tasvirlashda yosh rassom yuqorida bildirilgan fikrlardan o'z amaliy faoliyatida samarali foydalansa maqsadga muvosiq bo'ladi.

Tasvirda fazo sifatlarini namoyon etish yo'lidan yana biri to'g'ri "shtrixlash" va bo'yoq surtmasidir. Old qatorda joylashgan jismlar chiziqli ishlovi aniqroq va zichroq, bo'yoqlar esa quyuq va yorqinroq bo'ladi.

Uzoqdagi tasvir yumshoq va ochroq shtrixlanadi, bo'yoqlar esa suyuqroq va xiraroq beriladi.

**Materiallik.** Surat tekisligida tasvirlanayotgan jismlarning materialliligi dastlab yorug'-soya xususiyati bilan ko'rsatiladi. Turli materiallardan tashkil topgan buyumlar o'ziga xos yorug'-soya xususiyatlari ega. Silindr shaklidagi gipsli jism yorug'ligi yarim soya, soya, refleksga o'ta nafislik va raxonlik bilan o'tib boradi. Silindr shaklidagi yashil idish yorug' soyaning chegarasiga ega emas. Uning shaklini faqatgina blik "shu'la" va "refleks"lar aniqlab beradi. Bu narsa metall jismlarga ham aloqadordir. Agarda qalamtasvir yoki rangtasvirda yorug'-soyaning ana shu o'ziga xos qoidasiga qat'iy amal qilinsa, jismlarning qanday ashhyodan ekanini aniq bilish, ko'rish mumkin (gipsli, shishali, metalli, taxtali va boshqalar).

**Material xususiyatlari.** Bundan tashqari, yanada muhimroq shartlardan biri, qalamtasvir yoki rangtasvirda jismlarning sathi ashyo xususiyatini haqqoniy tasvirlashda qo'yilmaga mos ravishda ranglar va tus munosabatlarni bera olishdir. Qalamtasvir yoki ranglavhadagi tus va ranglarning farqlari (munosabatlari) qo'yilmadagi munosabatlarga mos bo'lmog'i darkor. Atrof muhitdagi jismlarni materiallik sifatlarini ko'rishda bizning ongimiz faqatgina uning rangi va yorug'-soyasining xarakterigagina emas, balki tus va rang munosabatlari (farqlari)ni ham sezish qobiliyatiga ega. Agarda soya-yorug' holati, rang va tus munosabatlari qo'yilmaning obrazli ko'rinishiga mos bo'lsa, biz natyurmortdagi buyumlar yoki manzara obyektlarining ko'rinishilaridagi materiallik xususiyatlarini haqqoniy ko'rsata olamiz. Professor A.S.Korolev bu masala to'g'risida quyidagicha fikr bildirgan: "Rangtasvir bu shaklning mustahkamligi, hajmliligi, materialliligi, havoiligi — bularning hammasini biz qadrlaymiz, rangtasvir asarida haqqoniy qalamtasvir, rang va tus munosabatlarining nihoyatda to'g'ri olinishi asarning yuqori saviyada bajarilganligidan dalolat beradi".

Havaskor rassom shuni yoddan chiqarmasligi lozimki, ijoddagi mohirlikning negizi bu — tus va rang munosabatlari bilan tinmay ishlay bilishdadir.

Rangda tasvirlashdan avval kompozitsiya markazini aniqlab olish zarur. Buning uchun tasvirning qaysi qismi eng muhimi sanaladi. Tomashabin diqqatini kartinaning qaysi qismiga qaratish zarur. Qiziqarli joy qayerda, - kabi savollar bilan o'zingizga murojaat qiling. Ishni boshlashning boshlang'ich bosqichida bu muammolar yechimini topish kompozitsyaning asosiy g'oyaviy markazini aniqlab olishga yordam beradi.



*O'quv nayturmortlari.*

*Determine the focal point, or center of interest, before you start painting. Ask yourself questions like these: What part of the painting is most important? Where do I want the viewer to look first? Is there a center of interest? All these questions are best considered at the outset and help you determine the focal point.<sup>1</sup>*

**Qisqa muddatli etyudlar.** Yosh rassomlar dastlabki ta'limg bosqichida, odatda, chizayotgan narsani yuzaki, xuddi o'ziday ko'chirishga harakat qiladi. Ular diqqat bilan oldinma-ketin narsalarga tikilib qarashadi, so'ngra har bir mayda bo'laklarni va ularning rangini alohida-alohida bo'yashadi. Natijada tasvir maydalangan va bir butun ko'rinishda bo'lmaydi. Bunday kamchiliklar qo'yilmaning predmetlar orasidagi katta rang munosabatlarini etyudda ko'rsata olmaslikdan kelib chiqadi. Inson bosh qismini tasvirlashda ham, masalan, yuzning mayda bo'laklaridan boshlab bolmaydi, faqat harakatdagi, nisbatlarda umumiylilik va yaxlitlikdan boshlashi, rangtasvirda ham turli natura obyektlari (nayturmort, manzara) yoki narsalarning asosiy umumlashtirilgan dog'lar orasidagi ranglar munosabatini aniqlashni o'rganib olishi kerak. Natura obyektini yaxlit ko'rish va katta asosiy ranglar dog'ini aniqlay bilish — muhim kasbiy mahorat, u esa dastlabki rangtasvir ta'limida shakllangan bo'lishi kerak. Faqat shundan so'ng uzoq muddatli (vaqt bo'yicha) ishlarga, manzara obyektlari yoki nayturmortdagи buyumlarning hajmli shakllarini puxta ishlov berishga o'tish mumkin.

Ochiq havoda (plener) kichkina-etyudlarni rangda ishlashda asosiy

<sup>1</sup> Suzanne Brooker Techniques for rendering sky, terrain, trees and water. – Published in the United States by Watson-Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York 2015. p. 57.

rang munosabatlarini topa olish muhimdir. Buning uchun naturaning old ko'rinishidagi qarama-qarshi (tusli va rangli) dog'larni uzoqdagiga nisbatan taqqoslash kerak. Kichik o'lchamdagи etyudlarda mayda bo'laklarga e'tibor berilmaydi, asosan katta rang munosabatlarida yoziladi. Manzara etyudlarini bajarishda uncha murakkab bo'lmagan syujetlar tanlanadi (masalan, uy bilan hovlining bir bo'lagi).



*Manzara etyudlar.*

Keyinchalik vazifani murakkablashtirib ochiq kenglikdagi manzarani tasvirlashga o'tiladi. Bunday etyudlarda havo perspektivasidagi, masalan manzaradagi rang, och-to'qlik va to'yinganligini turli ko'rinishlaridagi hodisalarga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Bunga esa manzaraning barcha ko'rinishlarini taqqoslash yo'li bilan yaxlit idrok qilish orqali erishiladi.

Masalan, old ko'rinishdagi daryo qirg'og'i ikkinchi hamda uzoqdagi ko'rinish bilan, shuningdek bir vaqtida osmon va uning suvdagi aksi bilan ham taqqoslanadi (etyudni ishslash vaqt 15—30—60 daqiqa bo'lishi mumkin).



*Etyudlar.*

"...Etyudni shunday tasvirlash kerakki, birdan yer bilan suvni osmonga nisbatan tus munosabatlarini anglab, mohiyatini ilg'ab olish

kerak” — deydi K.A. Korovin o‘z shogirdlariga. Uning o‘zi etyudlarda asosiy rang munosabatlarini qurishning mohir ustasi bo‘lgan.

Qisqa muddatli etyudlarni bajarish maqsadi turlicha bo‘lishi mumkin: bir holatda etyud uzoq davomli ish oldidan bajariladi va unda naturadagi rang munosabatlari tahlil qilib o‘rganiladi hamda uning koloritiga xos birinchi taassurotlar belgilanadi: boshqa holda esa, shakllarni qo‘srimcha va puxtarot o‘rganish maqsadida uning mayda bo‘laklari (inson qo‘lining etyudi, manzaraning ayrim bo‘laklari) aniqlanadi. Rangtasvirning ayrim qonuniyatlarini puxta o‘rganish uchun dala amaliyotida etyudlar bajariladi: umumiy yoritganlik holati, kolorit yaxlitligi va h.k. Manzaraning etyudini tasvirlashda har doim yorug‘lik tez-tez o‘zgarib turadi. Hattoki quyosh bulutlar ortida bo‘lsa ham, u manzaraga bevosita ta’sir qiladiki, seansning boshlanishida va so‘ngida manzaradagi yorug‘lik holati doim turlicha boladi.

Natyurmortning umumiy tus va rang holatini xonaning ichki sharoitida aniq kuzatish uchun tuzilgan sodda natura qo‘yilmalari bilan bir nechta qisqa muddatli etyudlar bajarilsa, ammo yorug‘lik manbai har xil masofada joylashtirilgan bo‘lsa, ya’ni deraza yaqinida, xona o‘rtasida va derazadan uzoqlashgan holatda (xonaning ichkarisida). Dastlabki natyurmort qo‘yilmasi derazaga yaqinroq joylashtiriladi, natijada u boshqalarga nisbatan kuchliroq yoritilgan bo‘ladi. Keyingi qo‘yilmalarning yoritilishi esa biroz sustroq bo‘ladi. Bu o‘quv qo‘yilmalari orqali etyudlardagi soya-yorug‘, rang hamda yoritilishni pasaytirilishi yoki kuchaytirilishiga bog‘liq holda etyudning umumiy tus va rang holatining ko‘rinishini namoyish etiladi.

Koloritga, ya’ni rang qatorining birligi va uyg‘unligiga xos qisqa fursatli etyudlar bajarish muhimdir. Bunday maqsadli qo‘yilmalarda qandaydir ma’lum bir rang ustun turishi kerak. Masalan, natyurmortni sun‘iy issiq yorug‘lik bilan yoritish mumkin. Bunday etyudlarda mayda bo‘laklarni batafsil ishlab chiqishga hojat yo‘q. Muhibi, rang gammasini, uning birligi va uyg‘unligini tushunib yetkazish. Qisqa muddatli etyudlardagi qo‘yilmalarni issiq va sovuq gammalarda almashtirib turish lozim.

Yosh rassomning uzluksiz mashqlari natijasida ranglardagi nozik o‘zgarishlarni farqlashga, kuzatuvchanlikning rivojlanishiga, rang-baranglikni sezishga hamda tasviriy vositalarni mohirona egallashga zamin yaratadi. Tajribali rassomlarning etyudlarini kuzatganda ularning niroyatda nafis va jozibali tasvirlanganligiga havas bilan qaraymiz. Naturaning rangdor koloritli holatini mohirona tasvirlash mahorati uzluksiz amaliy

ishlash natijasida erishiladi.



*M.Sodiqov. Bahor.*



*M.Sodiqov. Ovul.*

Shunday qilib, naturaning asosiy obyektlari orasidagi umumiy va katta ranglar munosabatini ma'lum tus va ranglar ko'lamida saqlanganligi rangtasvirning asosidir. Shular asosida obyektlarning keyingi ranglarda ishslashning o'ta nozik jarayoni amalga oshiriladiki, bu tabiatni diqqat bilan kuzatish, uni jonli his etish natijasidir. Buning ustiga, rangli tasvir natyurmortning alohida buyumlari yoki manzara obyektlarining nusxasini yuzaki ko'chirish orqali yaratilmaydi, u buyumlarning rang munosabatlari va ularning fazoviy kenglik bilan birga o'zaro bog'liq holda, yaxlit obraz asosida rassomning idrok etishi natijasida quriladi. Har qanday natura qo'yilmasini yaxlit obraz sifatida qabul qilish lozim. Natyurmortning turli narsalardan tuzilganligini, masalan, qumg'on, olma, piyola; manzarada esa — alohida osmon, o'rmon va yiroqdagi ko'kimtir tog'larni ma'lum vaqtga yoddan chiqarish kerak. Naturaga bunday qarash orqali buyumlarning shaxsiy rangini ko'rish mumkin — bu rangli kartinaning bir qismi xolos, ranglarning jarangdorligi, uning yaxlitligi tasvirlash mobaynida namoyon bo'ladi, bu esa xuddi turli musiqa asboblarida ijro etilayotgan yaxlit simfonik asar singari jaranglaydi.

### **AMALIY MASLAHATLAR:**

Umumiy tusdag'i qisqa muddatli etyudlarni dastlab grizaylda bajarish maqsadga muvofiq. Bu esa diqqat-e'tiborni faqat tus jihatdan ko'rsatishga yo'naltiriladi, tasvirlovchini tus shkalasini sezishga, naturadagi eng och-to\*q va to'qroqlikni aniqlashga, tus gradatsiyasini bu ikki qutblarga bo'yundirishga o'rgatadi.



G.Abdurahmonov. Natyurmort.



I.I.Shishkin. Jarlik.

Etyudni bo'yoqlarda boshlashdan oldin puxta tayyorgarlik ko'rish lozim: uning kompozitsiyasini yechish, ranglar bilan ishlashga qalamtasvirni tayyorlash hamda etyudni rangda bajarish. Etyud kompozitsiyasida ko'rish nuqtasi tanlanadi, tasvirning xomaki rasmi bajariladi, ya'ni etyudning o'lchami (format), ufq chizig'i, asosiy kenglikdagi joylashishi belgilanadi.

Tayyorlov qalamtasvirida etyudning perspektiv-kenglik qatori yaratiladi: nisbatlari to'liq aniqlanadi, narsalarning konstruktiv chegaralari, ularning och-to'qlik qismi belgilanadi (dastlabki yordamchi qalamtasvir ishi rang bilan shaklni qurishga to'liq imkon beradi). Bular asosida etyudning keyingi rangli-plastik yechimi shakllanadi. Shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, ranglar bilan tasvirlashning so'nggi natijasi mukammal chizilgan qalamtasvir bilan aniqlanadi. Yetarli darajadagi tajribaga ega bo'lgach xomaki rangli etyudlarni mo'yqalam bilan bir zumda dastlabki taassurotlarni saqlagan holda ishlash mumkin.



Manzara etyudi.

Koloritlarni o'rganishga qaratilgan etyudlar bilan bir qatorda o'quv jarayonida "siluetli dog' bilan" xomaki etyudlar ishlash ham kerak. Ularning maqsadi — tezda va ixcham shaklda narsalarning asosiy tus yoki rang munosabatlari, xarakterli nisbatlari, harakatlarini qayd etishdir. Meva va sabzavotlar, qush va hayvonlarning rangli xomaki tasvirlarida eng avvalo koloritga xos vazifalarni yechish kerak. Akvarel texnikasida siluet, dog' usullarida nisbat xarakterini, tus yoki rang ma'lumotlarini namoyish etib ishlash juda ham foydali. "Dog'" usulida mo'yqalamdag'i xomaki rasmlar shakllar bilan ishlashga o'rgatadi, qalamtasvir — bu shaklning tashqi ko'rinishidan emas, balki ichki tomonidan tasvirlanishi haqida tushuncha beradi. Bu bilan birgalikda barcha shakllarni yaxlitlikda ko'rish kerak, siluetni chetlariga tikilmasdan "o'rta qismiga" ko'z nazari yo'naltiriladi, bo'lmasa bunday holda umumiyligi shaklning xarakteri yo'qolib qolishi mumkin. Shu sababli natyurmortlardagi vazalar, qumg'onlar "qiyshaygan", inson qomatining xomaki rasmlarida esa nisbatlarini noto'g'riligi hosil bo'ladi. Demak, chiziqli qalamtasvirda chiziqlar yuritilganda ham nihoyasiga yetkazilgan shaklni ko'rish muhimdir.



Naturadan realistik tasvirlash atrofimizdag'i voqe'a-hodisalar yoki narsalarning shakl va bo'yoqlarini haqqoniy tasvirlash malakasini o'z ichiga oladi. Naturani haqqoniy tasvirlash — bu narsalarni konstruktiv va perspektiva qonunlari asosida qurish, ularning fazoviy joylashuvni, materialligi, hajm va nisbatlarni ifodalash, qalamtasvir yoki etyudni yaxlit bir butunlikka keltirish, tasvirlanayotgan obyektlar va narsalarning xarakterli xususiyatlari va nafis go'zalligini aniqlashdir.

Realistik tasvirlash savodini dastlabki ta'lim bosqichlarida o'quv natyurmortlarini bajarish orqali o'zlashtirish mumkin. Darhaqiqat, savodli tasvirlash asoslarni o'rganishda natyurmort qimmatli tasviriy obyekt bo'lib hisoblanadi.

Masalan, N.Tenning «Natyurmort» asari misol bo'la oladi. Natyurmortni rangtasvirning kamerli musiqasi deb atashadi. Unda mahoratli bo'yoq surtmasi, kolorit monandligi va shakl plastikasini kuzatish mumkin. Ular orqali rangtasvirning asosiy qonuniyatlarini tez va qulay o'zlashtirish

mumkin. Ya'ni, perspektiv va konstruktiv qurilish, shaklning soya-yorug'ligi va rangda tasvirlanishi, tasvirlanayotgan narsalarning fazoviy uzoqlashishdagi holati va materialligi, tus va rang munosabatlari, manzara va interer, inson boshi va qomatini tasvirlashdagi birlik va uyg'unlik hisoblanadi. Badiiy Akademianing raisi T.Qo'zyiev, o'quv jarayonida natyurmortning muhim ekanligini ta'kidlab: "Natyurmort shunday zaminki, unda badiiy maktab mustahkam joylashgan bo'lishi kerak", — deydi.

Natyurmortni xona ichida, ochiq havoda, soyada va quyoshda, tabiiy va sun'iy yorug'likda tasvirlash lozim. Bu esa o'z navbatida o'quv va ijodiy vazifalarni samarali amalga oshirishga puxta zamin yaratadi.

Natyurmortni amaliy tasvirlashning dastlabki bosqichida biroz soddaroq, so'ngra esa narsa va buyumlarning bir guruhini tasvirlash kerak. Narsalarning bir guruh yig'ilganini tasvirlash uchun natyurmort kompozitsiyasini to'g'ri tashkil etish muhimdir. U ikki jihat asosida tuziladi: natura qo'yilmasining tashkiliy qismi (narsalarni tanlay bilish va ularni kompozitsion chiroyli joylashtirish), naturaga nisbatan ko'rish nuqtasini aniqlash va qog'oz yuzasida qo'yilmani tasvirlash.

## NATYURMORT QO'YILMASI



O'quv natyurmort qo'yilmasini tuzishda quyidagi qonun-qoidalarga rioya qilish kerak. Har bir o'quv natyurmortning mazmuni rangtasvir dasturida ko'rsatilganidek aniq maqsad va vazifaga ega bo'lishi kerak. Talabalar natura qo'yilmasini tasvirlash jarayonida aynan qanday nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlarini tasavvur eta olishimiz kerak. O'quv vazifalardan tashqari, natyurmort estetik talablarga ham javob berishi kerak: buyum va narsalar aynan mavzuga oid bo'lishi, mazmun jihatdan ma'noli va ta'sirchan bo'lishi va ma'lum g'oyani ilgari surishi kerak.

O'quv natyurmorti ijodiy natyurmortdan vazifasi bilan farqlanadi: o'quv vazifa muvaffaqiyatli yechim topishi uchun narsalar saralanadi, guruhlashtiriladi va shunday yoritiladiki, qo'yilma natijali yakunlanadi. O'quv natyurmortida biroz bo'lsa-da shartli olinishiga imkon yaratiladi.

Natyurmort kompozitsiyasi ustida odatda narsalardan natura qo'yilmasini tuzmasdan ilgari fikrlar yurgiziladi. O'quv yoki ijodiy vazifalar asosida rassom ongida bo'lajak natura qo'yilmasining xomaki obrazi haqida tasavvur hosil bo'ladi. Masalan, G.Mordvinseva "Nonlar bilan" natyurmortini tasvirlash uchun novvoy yopgan non mahsulotlarini tayyorlab tasvirlagan.

Natyurmortni tuzish mobaynida shakli mayda naqshlar bilan bezatilgan, konstruksiyasi murakkab narsalardan yiroqda bo'lgan ma'qul. Murakkab buyumlarga burmali gazlamani kiritish mumkin. Natyurmort qo'yilmasi haddan tashqari murakkab shaklli va rang jihatdan rang-barang bo'lishi qo'yilmadagi rang munosabatlar mohiyatini tushunishga qiyinchilik tug'diradi.

Natyurmort qo'yilmasining ufq chizig'iga nisbatan pastda joylashganligi ma'qul, chunki buyum va narsalarning ostki qismi (ularning asosi) stol ustida aniq ko'rinish turishi kerak. Agar narsalarning asosi bir chiziq bo'yicha qo'yilsa, stol yuzining gorizontal tekisligi ko'rinnmay qoladi, bu esa natyurmortning fazoviy yechimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.



*G.Mordvinseva. Non bilan natyurmort.*

Natyurmort tuzish vaqtida narsalarning balandligi, ularning surat tekisligida joylashuvi, rang bilan shaklini ham hisobga olish kerak. Narsalar guruhi bir tomonga yig'ilib qolishi noto'g'ri. Yirik buyumlar qisman bo'lsada boshqa buyum bilan biroz to'silgan bolishi mumkin. Qo'yilmadagi narsalar shunday joylashishi kerakki, bir qarashda ularning har birini yaqqol ko'rish mumkin bo'lsin.

Natura qo'yilmasidagi narsalarning ranglari ma'lum darajada bir-biriga yaqin va monand bo'lishi kerak.



O'quv qo'yilmalardagi fon (zamin) muhim ahamiyatga ega. U turli rang va och to'qligi bo'yicha, barobar kontrast kuchi bilan narsalarni idrok etishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Narsalarning yarim-soya va soyali tomonlari och fonda sezilarli ko'rinish turadi. Qoramtil fonda narsalar o'zining yorug'lik sifatlarini ko'proq namoyish etadi. Fonning tusi och va to'q narsalar orasida o'rtacha bo'lishi, rang jihatdan silliq va ko'zga yaqqol ko'rinnmasligi naturaning muvaffaqiyatli tasvirlanishiga yordam beradi. Masalan, to'q-qizil narsalarda fon neytral qizil tanlanadi, agarda narsalar to'yingan och yashil bo'lsa, fon kam to'yingan to'q yashil bo'lgani ma'qul. Iloji boricha, natyurmortning foni bilan tagligi (stolning gorizontal tekisligi) tabiiy bo'lishi kerak. Xonaning devori, interyer kengligi, yog'och uyning tashqi devorlari yoki uzoqdagi manzara kengligi ham fon o'mnda qo'llanilishi mumkin. Nima bo'lganda ham u natura qo'yilmasida hayotiy haqiqatni aks ettira olishi kerak.

O'quv natyurmortining kompozitsiyasi turlicha yechimga egadir. Biroq badiiy pedagogika va realistik san'at tabiat bilan bayon etilgan asosiy talablar o'zgarmay qolmoqda: aniqlik, badiiy ifodalilik, o'quv metodik vazifalarning mavjudligi.

Ijodiy natyurmort tuzish uchun hayotiy voqealarga tayanish kerak. Bunday holda chiroyli va qiziqarli kompozitsiya tuzishda narsalar guruhini kundalik turmushda qo'llaniladigan narsa va buyumlardan olish maqsadga muvofiq. Rangtasvirning asosiy vazifasi shundan iboratki, buyum va narsalarning hajmliligi, materiallik va rangdorlik sifatlarini natura qo'yilmasidek aniq tasvirlash hamda qo'yilmani yaxlit tusda yakunlash maqsadga muvofiqdir.

## NATYURMORT KOMPOZITSIYASI

Rangtasvir mukammal qalamtasvirga asoslanadi. Shuning uchun rangtasvir jarayoniga o'tishdan oldin natyurmortning qalamtasvir kompozitsiyasini surat tekisligida tasvirlash xususiyatlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Tasvirlovchi narsalar to'plamiga (natyurmort) ma'lum bir ko'rish nuqtasidan qaraydi va u ko'z qarashiga qat'iy ravishda kuzatish perspektivasi qonuniyatining o'zaro bog'liqligi bilan namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, naturadagi narsalar o'zaro yoritilganligi va bir-biriga bog'langan bo'lib, ular oralig'ida reflekslar, yarim soyalar, soyalar va yorug'liklar taqsimoti ma'lum bir tartibda bo'ladi. Mabodo ko'rish nuqtasi o'zgartirilsa, naturaning o'zaro joylashuvi va yoritilganligi yangi ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ko'rish nuqtasi yorug'likka qarama-qarshi bo'lganda tasvirni siluet tarzida ko'rish mumkin. Natyurmortni tasvirlash jarayonida to'plamdag'i barcha narsalar, ularning o'zaro joylashuvi, soyayorug' va tus munosabatlarini obrazli ko'rinishiga bo'ysundiriladi va idrok qilinadi. Natyurmort kompozitsiyasini shunday tuzish kerakki, uni qaysi nuqtadan kuzatganda ham u yaxlit bir butun ko'rinishiga erishmoq zarur. Bu ishning muvaffaqiyatli chiqishi rassomning shaxsiy badiiy didi va tajribasiga bog'liqdir. Naturaga nisbatan qiziqarli ko'rish nuqtasini tanlab olgach, qog'oz varag'i yoki mato qanday o'lchamda bo'lishligini aniqlash zarur. Qog'oz varog'ida ifodalanadigan natyurmort qo'yilmasini naturadan to'g'ri aniqlab tasvirlay olish kerak.

Tajribasiz rassomlarning mato yoki qog'oz varag'i tekisligida tasvirlashdagi asosiy kamchilik shundan iboratki, ularda plastikali tasvirlash, izlanish jarayoni mukammal emas. Shuning uchun tasvirlash mobaynida aniq metodik ketma-ketlikka qat'iy rioya qilish samarali natija garovidir.

Natyurmort kompozitsiyasining qurilishida dastlab qog'oz yuzasida tasvirlanayotgan narsalarning puxta joylashuvi, qog'oz o'lchamiga nisbatan tasvirning katta-kichikligini aniq'lashdan iborat. Har bir natura qo'yilmasi muayyan o'lchamdag'i qog'ozni talab qiladi.

Tasvirlanayotgan narsalar ma'lum o'lcham tekisligida "tiqilinch" yoxud juda ham kichik joylashib qolmasligi zarur. Haddan tashqari kichik joylashgan tasvirlar qog'oz tekisligida aniq ko'rinxirmaydi.

Tasvirda asosiy e'tiborni o'ziga jalg etuvchi buyum – kompozitsiya markazi, qolganlari esa unga tobe bo'lib xizmat qiladi.

Tasvirda tomoshabning nazari ana shu markazga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. O'lchamni aniqlab olgach, asosiy ishni boshlashdan oldin kichik o'lchamdag'i qog'oz bo'lagida bo'lajak natura qo'yilmasining

xomaki variantlari tayyorlanadi, shundan so'ng, asosiy ishga o'tish maqsadga muvofiqdir.

Dastlab oddiy natura qo'yilmalaridan - gipsli geometrik shakllardan, keyin esa geometrik shakllarga yaqin bo'lgan maishiy buyumlardan tuzilgan natyurmortlarni ishslash, so'ngra, turli rangdagi, materiallikdagi buyumlardan tuzilgan qo'yilmalarni (plener sharoitida va intererda joylashtirilgan natyurmortlar) tasvirlash mumkin.

Natyurmort qo'yilmasini tasvirlashda ishni alohida-alohida buyumlardan boshlab so'ngra boshqalariga o'tish aslo mumkin emas. Narsalar guruhini g'og'ozga to'g'ri joylashtirishda nisbat, oraliq masofalar, fazoviy joylashuvda xatolikka yo'l qo'ymaslik muhimdir. Buning uchun narsalar to'plamini yengil chiziqlar bilan belgilab chiqish zarur. Tasvirlashda narsa va buyumlarning perspektiv qisqarishlarini puxta bajarish o'ta muhim.


Rangtasvir uchun dastlabki qalamtasvir ishlarini bajarayotganda yosh rassomlar narsa va buyumlarning tekislikdagi fazoviy joylashuvi, nisbatlari, hajmini, buyumlarning konstruktiv qurilish kabi vazifalarni to'liq bajarishmaydi. Ularning diqqat e'tibori narsalarning kontur chiziqlarini tasvirlashga qaratilgan bo'ladi. Ularning fikricha, narsaning sirtqi ko'rinishi chizilsa, shakl ham to'g'ri tasvirlanadi deb hisoblaydilar. Buyumning tashqi ko'rinishini tasvirlayotib, uning konstruktiv qurilishi, nisbat kabi xususiyatlari nazardan qolib ketishi mumkin.

Narsalarning o'zaro joylashuvi, istagan qirrasining yo'nalishi naturada osongina aniqlanadi va naturaning yo'naltiruvchi va vertikal (tik), gorizontal (yotig') chiziqlari yordamida tasvir qog'ozda yengil quriladi. Uzun qalam yordamida qurilmaning perspektiv burchaklarini, qirra nisbatlarini, stol tekisligida o'zaro turgan joylarini tekshirish mumkin. Buning uchun qalamni cho'zilgan qo'lda vertikal, gorizontal yoki burchak ostida ushlab qirralarning perspektiv yo'nalishini tekshirish mumkin.

Narsalarning nisbatlarini aniqlab, ularni perspektiva qonun-qoidalariiga amal qilib qurish hamda yengil-yelpi soyalarni berish mumkin. Bu esa narsalarning nisbatlarini ham va ularning o'zaro joylashganligini ancha aniq yetkazishga imkon beradi. Stol tekisligidagi narsalar to'plamini joylashtirishda ularning asoslарini qurish juda ham muhim. Har bir narsaning joyini aniqlamasdan ular orasidagi kenglikni yetkazish mumkin emas. Ayrim narsalar havoda "muallaq" bo'lishi yoki biri ikkinchisiga "o'yib" kirgandek ko'rinishi mumkin.

Tasvirlash jarayonida alohida narsalarni va ularning qismlarining katta-kichikligini har doim bir-biriga taqoslab borish zarur.

Moybo'yoqli rangtasvir uchun matoda ko'mir yordamida yorug' va soyalar bilan qalamtasvir ishini bajarish mumkin. Narsalarning hajmdor shakli yorug'-soyalar bilan qurilsa qalamtasvir aniq ko'rindi. Tayyor bo'lgan tasvirning tashqi ko'rinishlari tush bilan chizib chiqib, ko'mirni esa latta bilan qoqib tashlanadi. Shunday qilinsa bo'yash uchun zarur bo'lgan natyurmortning aniq ko'rinishi qoladi.



*O'quv natyurmortlari.*

Rang bilan ishlash jarayonida shakllarning xarakteriga aniqlik kiritib borish zarur. Tasvirlash jarayonida ishni boshidan oxirigacha, albatta, metodik ketma-ketlikka rioya qilish muhimdir.

Endi o'quv natyurmortini amaliy bajarishga o'tamiz. Dastlab faqat tusli (grizayl texnikasidagi rangtasvir), keyin rangli (akovarel va moyli bo'yoqlarda) tasvirlash jarayoni bilan tanishamiz.

### Natyurmortning tusli tasvirlanishi (Grizayl)

Tus rangtasvirning ajralmas qismi hisoblanib, u rang bilan birgalikda tasvirlanadi. Tajribasiz rassomlar o'zlarining dastlabki ishlarida faqat rang bilan ovora bo'lib qo'yilmadagi tus yaxlitligini yoddan chiqaradilar, natijada ish sifati buziladi.

Rangtasvirni puxta o'rganishda ko'pgina yetuk rassom va pedagoglar (oq va qora bo'yoqlarda) naturani tusda tasvirlashga katta ahamiyat bergenlar. Bu masalada D.N. Kardovskiy shunday degan: "Tusni yorug'lik orqali yetkazishdan ko'ra ranglarda berish murakkabdir. Shuning uchun rang tasvirga o'tishda, yorug'likdagi tusga bo'lган ko'nikmaga ega bo'lish

kerak...”. Demak, rangtasvirning boshlang’ich kursida grizayl texnikasida mashqlar bajarishni tavsiya qilamiz.

Tasvir qalamda puxta bajarilgach, har bir narsa va buyumning materialligi, uning hajmi, tus munosabatlari ranglar vositasida hal qilishga o’tiladi. Realistik qalamtasvirning bunday sifatlariga har bir narsalardagi (shula, yorug’lik, yarim soya, soya va h.k.) soya-yorug’lik gradatsiyasi va ularning ranglardagi o’zaro tusli farqlarini to’g’ri hal etish orqali erishish mumkin. Tusli farqlar nimani anglatadi? Rang jihatidan ba’zi narsalar naturada zinch va to’qroq, boshqalari esa ochroq ko’rinadi. Ayrim narsalarda shaxsiy soya to’qroq va zichroq ”og’ir” (masalan, chinni ko’zada, cho’yan qozonda), boshqalarida esa soyalar ancha ochroq ”nozik” (gipsli vaza, qog’oz rulon va h.k.) ko’rinadi. Bu tusli farqlarni qalamtasvirda ham teng ravishda mutanosiblikda ifodalash kerak. Bu chog’da narsalar orqasidagi fonni ham hisobga olish zarur. Natura qo’yilmasidagi barcha narsalarni tusga nisbatan foning och-to’qligi munosabatlarining to’g’ri olinayotganligi kenglikni ko’rsatishga imkon tug’diradi.

Tus munosabatlarini eng to’q narsalardan yoki chuqur ichki soyalardan boshlab ko’rsatilishi to’g’riroqdir. Har bir narsalarning tus kuchini bir-biri bilan solishtirish zarur, narsalarning o’zaro och joylarini, soyani-soyalar bilan, yarim tusni yarim tuslar bilan taqqoslash zarur. Qandaydir to’q idishda shaxsiy soya undan tushuvchi soyaga nisbatan to’qroqdir. Mevalardagi yorug’lik eng yorug’ joyiga qaraganda to’qroq bo’lishi mumkin. Tasvirda va naturadagi narsalarni bir-biri bilan doimiy taqqoslash orqali ular orasidagi farqlarning kamayishiga erishish zarur. Eng to’q narsalar yoki uning soyasi — bu qora baxmalda va ko’mir rangida emasligini esda tutish kerak. Qora buyumlar va ularning soyalarini ancha yumshoqroq, lekin juda ham to’q qora tusda ishslash kerak emas. Hattoki qora baxmalni tasvirlashda ham qalam yoki qora bo’yoqni bor kuchidan foydalanish noto’g’ri, aks holda qog’ozda yoki matoda qora teshik paydo bo’ladi. Shuningdek, naturadagi juda oq narsalarni toza oq bo’yoqlar bilan tasvirlashning iloji yo’q, chunki, u oq bo’yoqqa nisbatan ancha to’qroq bo’ladi.

Ishning birinchi bosqichida asosiy munosabatlarni aniqlash kerak. Naturadagi asosiy obyektlarning yorug’-soya munosabatlari: foning och-to’qligi, narsalarning sirtidagi och-to’qligiga va ularning o’zaro bir-birlariga nisbatan aniqlanadi. Avvalo qo’yilmadagi narsalarning umumiyligi tusi bir sidra qoplanadi. Agar umumiyligi munosabatlarni noto’g’ri olsak qalamtasvirning aniqligi, keyingi alohida narsalarning hajmli shakllaridagi yorug’-soya ham, tasvir aniqligi va haqqoniyligini, materiallik va kenglikni

ko'rsata olmaymiz. Ishni soyadan yorug'likka qarab yuritish kerak, buning ustiga soya joylariga imkon boricha bo'yoq qatlamini yupqa va nozik berish, yorug'likni esa ularga nisbatan quyuq bo'yoqda ancha to'qroq qatlamlı va aniq surtmalar bilan qoplash zarur.

Grizayl texnikasida soya, yarimsoya, reflekslarni birdaniga kerakli tusda mos bo'yoqlar bilan qoplash, (iloji boricha bo'yoqni qayta-qayta berishni takrorlamasdan) bo'yoq surtmalarini shakl yo'nalishi bo'yicha harakatlantirish kerak. Masalan, silindrsimon shaklga ega bo'lgan narsaga turli tasodifiy yo'nalishda surtmalar berilsa, ushbu shaklning aylanaligini ko'rsatish mushkuldir.

Naturani tasvirlayotib narsalarning munosabatlarini nafaqat tus kuchi bo'yicha balki uning aniqligini ham, narsalar sirtlarining kontrastli chegaralarini ham kuzatishimiz kerak. Har bir narsaning ko'rinib turgan tashqi ko'rinishi o'zining ko'lamida turlicha, qandaydir narsaning yoritilgan chap tomoni yorug'lik kuchi bo'yicha fonga nisbatan yaqinroq bo'lishi mumkin. Shu narsaning o'ng tomonidagi chegarasi tus jihatdan fon bilan deyarli qo'shilib, uning yuqori qirrasi fonda yaqqol ajralib turadi.

Asosiy narsalar va ularning sirtlari orasidagi tus munosabatlarini to'g'ri ko'rsatishdan tashqari, har bir narsaning hajmli shaklini soya-yorug' bilan ham puxta ishslash kerak. Gipsli narsalarning sharsimon va silindrsimon shakllar (yorug'likdan soyaga bora turib) yuzasini har bir millimetri asta-sekin to'qlashtiriladi, buning ustiga shaxsiy soyasining eng to'q joyi soya tomonidagi narsa chegarasida emas, aksincha bir oz ichkari tomonida bo'ladi. Tashqi ko'rinishning o'ng tomonidagi shaxsiy soyasi refleks tufayli yoritiladi.

Tekisliklar bilan chegaralangan (prizma, kub va h.k.) narsalarning yorug'-soyalarini bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish izchilligining xususiyati shundan iboratki, har bir tekislik boshqa tekislik tusidan farqlanib o'zining ma'lum tusiga ega bo'ladi. Bunday narsalarning hajmi — hamma tomonlari tekislik bilan chegaralangan kenglikdir. Yorug'likka qaratilgan tekisliklardagi yoyilib tushayotgan tekisliklarga nisbatan, yorqinlik ravshan yoritilgan bo'ladi. Shakllarni turlicha tusli tekisliklar bilan yasashning bunday tartibi katta qismlarga ham, kichik shakllarga ham tegishlidir.



### Grizayl texnikasida natyurmort ishlash

Tusli tasvirlash mobaynida tasvirlovchidan narsalarning uzoqligini hisobga olish zarur bo'ladi. Agarda bir qatorga bir xil narsalarni turli masofada joylashtirsak, yaqindagi narsalarning mayda bo'laklari va materiallik fakturasi ancha aniqroq ko'rindi. Uzoqlashgan sari bu aniqligi yo'qolib xiralasha boradi. Uzoqdagi obyektlar siluetli va tekis (yassi) bo'lib ko'rindi. Old ko'rinishdagi buyumlarning soya-yorug' qismlari olisdagidan ravshan va aniqroq ko'rindi.

Narsalarning hajmli shakliga puxta ishlov berilgandan so'ng, ularni umumlashtirishga o'tish zarur. Har bir narsani tasvirlash jarayonida alohida mayda bo'laklarni, ularning yorug' soyasini maromiga yetkazib ishlash lozim. Narsalar guruhini yaxlit bir butun tasvirlash uchun, hammasini bir vaqtda kuzatib, har birining yorug' va soya joylarini barchasiga nisbatan taqqoslash kerak. Narsalar guruhining yaxlitligini saqlash haqqoni y tasvirlashning asosiy shartidir.

## AKVAREL BO‘YOG‘IDA NATYURMORT ISHLASH

Akvarel bo‘yog‘ida dastlabki mashqlarni bajarish uchun 3–5 ta narsadan iborat, rang va tus munosabatlari bir-biridan farq qiladigan, shakli bo‘yicha uncha murakkab bo‘limgan buyumlar bo‘lishi kerak. Sodda qo‘yilmalarni astoydil ishlab ijobjiy natijalarga erishmasdan turib, murakkab natura qo‘yilmalarini bajarishga o‘tish noto‘g‘ri. Akvarel bo‘yog‘ida mashqlarni muntazam ravishda bajarish va ularni asta-sekin murakkablashtirib borish maqsadga muvofiq.

Uzoq vaqtga mo‘ljallangan har qanday vazifa oldidan dastlabki qisqa muddatli etyudlarni bajarish muhimdir. Shu tariqa bajarilgan ranglavhalar tasvirlanayotgan naturani katta hajmga ega bo‘lgan matoda yoki qog‘ozdag‘i kompozitsiyasini to‘g‘ri topishga ko‘maklashadi va ishslash jarayonida naturadagi dastlabki taassurotlarni aniq yetkazishda va uning rang munosabatlariga xos xususiyatlarini aniq ko‘rsatishda namuna bo‘ladi.

Natyurmortni akvarel bo‘yoqlari bilan rangda ishslash jarayonini (ko‘rgazmali) amaliy namoyish etish uchun biroz murakkab bo‘lgan meva, sabzavotlar va maishiy narsalardan tuzilgan natura qo‘yilmasini olamiz. Qo‘yilmadagi sopol idish tekis yaltiroq yuzaga ega, shuningdek, ravshan ifodalangan (nur) shu‘iasi mavjud. Hamma narsalar stol ustiga joylashtirilgan, orqada yorqin kul rangdagi devor foni va sidirg‘a matolar. Mevalarda aniq belgilangan shaxsiy, tushuvchi va yarimsoyalar aniq ko‘rinib turibdi. Sopol idishda iliq va sovuq reflekslar mavjud.

Bunday tuzilgan natyurmortning qalamtasviri qiyinchilik tug‘dirmaydi, ammo ranglarda tasvirlash biroz murakkabroqdir, chunki mevalarning aniq rangini tasvirlash uchun rang munosabatlariga qat‘iy amal qilish zarur. Bo‘yoqning dastlabki qatlamini qo‘yishdan boshlab rang munosabatlaridagi mutanosiblikni saqlab borish kerak. Akvarel bo‘yoqlari qurigach biroz oqaradi, shuning uchun ham ularni rang jihatdan to‘qroq olish mumkin.

Akvarel bo‘yoqlari bilan tasvirlash jarayonida narsa va buyumdag‘i yorug‘ bo‘lib turgan qismlarini bo‘yamaslikka harakat qilish kerak.

Malaka ortib borgan sari kerak bo‘lgan tuslarni tezda hosil qilish mumkin, qog‘oz yuziga qanchalik ortiq‘cha bo‘yoq qatlami surtilsa, narsalarning rangi xira bo‘ladi. Madomiki, ranglar birdaniga olinib kerakli joyga surtilsa, uning yonidagi tuslarni ham topish yengil ko‘chadi.

Birdaniga tanlab qo‘yilgan ranglar naturadan bevosita birinchi taassurotlarni anchagina to‘g‘ri yetkazadi.

Tasvirlovchi har bir narsaning hajmdor shaklini soya yorug‘ning o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan, uning rang o‘zgarishlarini ham e‘tibor

bilan kuzatib borishi kerak. Jigarrang idish yarim soyada va yorug'likda xilma-xil rang turiga ega. Fondan tushayotgan reflekslar jigarrang emas, balki siyohrangdir. Undan tashqari mevalar soyasida reflekslar mavjud, ular o'zaro och-to'qligi bilan va rang turlari bo'yicha farqlanadi.

Eslatib o'tmoqchimizki, hamma (narsalar) buyumlarni bir vaqtning o'zida och-to'qligi, rangdorligi va to'yinganligini taqqoslagan holda rang bilan bo'yash kerak. Demak, narsalarni yakka kuzatmasdan, aksincha to'plamni yaxlit ko'rishga harakat qilish lozim. Yonma-yon turgan ikkita narsaning rang farqlarini taqqoslash qiyin emas. Agarda oldimizda o'nta narsadan tashkil topgan natyurmort bo'lса, har bir narsaning rangini yakka holda, shuningdek hammasi bilan birgalikda yaxlit taqqoslash zarur. Ya'ni xuddi orkestrda bo'lgani kabi.

Orkestr — bu musiqa asboblaridan tashkil topgan ansambl bo'lib, faqat dirijyorgina bu ansamblagi barcha musiqa asboblarini bir vaqtida o'zi eshitadi. Rangtasvirda ham xuddi shunday, faqat yaxlit idrok etish natijasida narsalar guruhining rang munosabatlarini to'g'ri aniqlashga imkon beradi.

Har bir narsaning hajmdor shakliga ishlov berishda undagi mavjud iliq va sovuq rang turlarini diqqat-e'tibor bilan kuzatish lozim. Shu bilan birga umumiy tus va ranglar gammasini (barcha bo'yoqlarni uyg'unlik birligi) nazardan chiqarmaslik kerak.

Narsalarning shu'lalarini tasvirlash mobaynida ularning jozibali ranglarini unutib, faqatgina yorqinligiga erishish bilan chegaralanish kerak emas.

Har bir narsaning och-to'qligi va rangdorligi fon bilan atrofdagi narsalar rangi va och-to'qligiga bog'liq bo'lса, unda narsa rangini atrofdagilari bo'yalmaguncha to'g'ri ifodalash mumkin emas. Agarda bitta narsaning rangi o'zgartirilsa, bu bilan birga ularning yonidagi bo'laklarini ham o'zgartirish kerak. Soyalar to'qlashtirilsa yorug' yanada yorqinlashadi. Ammo fohni qoraytirsak unda narsalardagi yorug' aniq ajralib, soyalarning kontrastligi yo'qoladi.

Narsalarning old va orqa ko'rinishlar orasidagi kenglikni ko'rsatishga ham e'tiborni qaratish lozim. Natyurmordagi narsalar bir-biridan turli masofada joylashadi, yaqindagi narsalar yorqinroq ko'rindi.

Agarda uzoqda turgan narsalarning ranglari yengilroq va xiraroq olinmasa, oldingi qatorga chiqib ketadi. Natyurmortni tasvirlash vaqtida havoiy perspektivaning ta'sirini har doim ham naturada yengil sezish qiyin: shunga qaramay buni har doim yodda tutib qalam bilan tasvirlashda bitta narsani yaqinroq joy lashtirib, boshqasini esa uzoqlashtirib tasvirlash kerak.

Agarda bo'yoq mo'yqalam va suv bilan yaxshilab eritilgan bo'lса.

qog'oz yuzasida yorqin tasvir hosil bo'ladi. Mabodo aksi bo'lsa, qog'oz sathida mo'yqalam izlari qoladi, ish esa sifatsiz chiqadi.



*Natyurmortni bosqichli bajarish.*

Akvarelda tinmay vazifalar bajarish, turli usul va uslublarda astoydil ishlash orqali ko'nikma va malaka ortib boradi.

"Yorqin" yozish texnikasi narsaning materialligini aniq ko'rsatishda va chuqur soya joylarining shaffof bo'lishiga imkoniyat beradi. Agarda ish jarayonida ikkala uslubdan samarali foydalanilsa, barcha soya joylarini va reflekslarni faqat "yorqin" uslubda, yorug'lik va yarim soyalarni esa "quruq" usulda ishlash yaxshi natija beradi. "Yorqin" uslubda ishslash "quruq" ishslashdan ustun bo'lishi kerak.

Narsalarning yoritilgan joylari aniq tashqi ko'rinishga ega. Soya va uzoq ko'rinishdagi tus va rang kontrastlari sustroq, shakllari esa yaqqol tashqi ko'rinishga ega emas.



*O'quv natyurmortlar.*

Soya va orqa ko'rinishdagi narsalarning tasviri umumlashtirilgan holda bo'lishi lozim. Aynan shu joyda namligicha ishslash usulini qo'llash ma'qul. Ishslashdan oldin qog'ozni toza suv bilan yumshoq latta yoki katta mo'yqalam yordamida bir sidra ho'llanadi. Ikki-uch daqiqadan so'ng qog'oz suvni shimib olgach akvarel bilan ishni boshlash mumkin. Bo'yq

surtmalari nam qog'oz yuzida yeyilib. bir-biri bilan qo'shibil, mayin va nozik o'tishlar hosil qiladi. Agarda biror bir joyini ajratish lozim bo'lsa, qog'ozni quritib kerakli bo'yoq surtmasi beriladi yoki "quruq" mo'yqalamda aniq rangli chegarani talab etilgan joylari to'qlashtiriladi. Namligicha ishslash usuli tasvirni nihoyatda nozik va jozibali ko'rsatishga imkon tug'diradi.

Akvarel bo'yoqlari bilan ishslash jarayonida soya-yorug'dagi nozik o'tishlarni silliqlab borish kerak emas.

Quruq qog'ozdagi kuchli namlangan bo'yoq dog'i qurigandan so'ng juda ham yaqqol kontur paydo qiladi. Shuning uchun bunday dog'larni chekka qirralarini qurimasdan yumshatish lozim. Tasvirlanayotgan etyud muvaffaqiyatsiz chiqsa, tuslari xira bo'lsa ish jarayonini to'xtatib katta mo'yqalam yoki paralon yoki momiq paxta yordamida ishni yuvib tashlash kerak. So'ngra ishni qayta akvarel bo'yog'ida ishslash maqsadga muvofiqdir. Juda namlangan qog'oz odatda bo'rtadi, egiladi, ammo qurigan paytda yana tortilib uning yuzida ishni davom ettirish mumkin.

Akvarel bo'yoqlarida bajariladigan dastlabki o'quv mashg'ulotlari har doim ham ko'ngildagidek bo'lavermaydi. Ranglar xira, kir va sifatsiz bo'ladi. Bunday holatda cho'chish kerak emas, chunki taniqli rassomlar ham dastlabki o'rganish jarayonida barcha qiyinchiliklarni boshlaridan kechirganlar.

Umuman haqiqiy mahorat tinmay o'qish, o'rganish va izlanish jarayonida hamda astoydil amaliy mashqlarni bajarish orqali yuzaga chiqadi. Kartina haqida gapirganda: "Bu qanday dadillik bilan tasvirlangan" deb hayqirishdan ko'ra "Qanday ajoyib" yoki "Qanday go'zal tabiat" deyilgani rassom uchun katta baxt.

Rangtasvirda eng muhim shakllarning aniqligi, oddiyligi va mazmunning chuqurligidir.

Kartinadagi vizual harakatni berish uchun muvozanat, ritm, har xillik, yaxlitlik va qarama-qarshilik kabi kompozitsiya qoidalaridan foydalilaniladi.



*O'quv natyurmorti.*

Bu faktorlardan o‘z joyida qo‘llash kartina va undagi obrazga nisbatan tomoshabinning qiziqishini oshiradi. Rassomning hissiy sezgisi orqali kompozitsiyaning asosiy qonun-qoidalariiga amal qilgan holda bu unsurlar va qoidalarni qanday tashkil etishni aniqlashga yordam beradi. Kompozitsiyadagi bu qoidalarni qo‘llashdagi ikkillanish yangi ijodiy eksperimentlar qilishga xalaqit beradi.

*Positioning yourself so that the sun is at the side of your head will allow you to take advantage of a strong light direction, regardless of whether you’re taking photographs or setting up for a plein air painting. When facing into the sunlight, you view only the shadow side of any object and your pupils contract to avoid excessive light, making the shadows appear even darker. If the sun is directly behind you, everything in your view is bleached out in frontal lighting. Flat lighting, on the other hand, is the result of a bright but overcast sky that veils the sun. Without a balance of light and shadows, a painting lacks the value contrast necessary to create three-dimensional forms that generate the illusion of space.<sup>1</sup>*

### **AMALIY MASLAHATLAR:**

Qog‘ozga yozishdan oldin, uning xususiyatlarini tekshirish lozim, bo‘yoqlar qog‘oz yuzasini tekis qoplaydimi, suvda oson yuviladimi, qog‘oz turli o‘zgarish va tuzatishlarni qabul qiladimi va h.k.

Qog‘oz qattiq asosga yelimlangan bo‘lishi kerak, chunki to‘lqinsimon, namlikdan shakli o‘zgaruvchan qog‘ozda samarali natijalarga erishish mumkin emas.

Ishga kirishishdan oldin qog‘ozning old tomoni momiq paxta yoki mo‘yqalam yordamida eng kamida 2 marta toza suv bilan ho‘llanishi kerak. Ikkinchisi marotaba ho‘llash dastlabkisi qurigandan so‘ng bajariladi.

Qog‘ozni planshetga yelimlash. Taxta tozalab artiladi. Yelimlashga mo‘ljallangan qog‘ozning old tomonini pastga qaratib chekkasidan 2—3 sm o‘lchamda yuqoriga qarab bukiladi. Qog‘oz yuzi momiq paxta yordamida ho‘llanib, hoshiyasi qoldiriladi. Hoshiyalari yelim bilan surkalgach, qog‘ozning old tomonini yuqoriga ag‘darib suv bilan ho‘llanadi va hoshiyasini latta bilan ohista yopishtiriladi. Qog‘oz bir tekis barmoqlar bilan qarama-qarshi tomonlariga tortiladi; bu jarayon namlangan qog‘ozni cho‘zadi va qurigandan keyin to‘lqinsimon holati yo‘qolib tekis bo‘ladi.

<sup>1</sup> Suzanne Brooker. Techniques for rendering sky, terrain, trees and water. Published in the United States by Watson-Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House L.L.C. New York. 2015.s-54

**Qog'ozni kartonga yelimlash.** Qalam yoki rang uchun ishlataladigan qog'oz kartonga yelimlanadi. Yelim surtilgach, yelimdan namlangan qog'oz qurish jarayonida karton qog'oz tomonga bukiladi va qurigach egilib qoladi. Buni tuzatish uchun quyidagilarni qo'llaymiz: 1) Agar karton qurigandan so'ng bukilib qolsa, uning orqa tomoniga yupqa qog'oz varag'i yopishtiriladi; 2) Kartonning orqa tomoniga qog'ozni yelimlashdan oldin uni bir tekis va mo'l suv bilan namlanadi. Karton to'g'rilaqandan so'ng, qog'oz yelim bilan surtilib kartonning old tomoniga yopishtiriladi.

**Qog'ozni materialga yelimlash.** Asos sifatida turli zig'ir tolasidan tayyorlangan mato va ip gazlamalardan foydalanish mumkin. Materialning old tomonidagi g'adir-budur tugunchalar olib tashlanadi. Bu jarayon tartibi quyidagicha: 1) Tekis taxta ustiga gazlama tortilib, chetlari mix bilan qotiriladi; 2) Gazlama suv bilan to'liq shimilguncha ho'llanadi; 3) Gazlama qurigandan so'ng qaytadan tarang tortib bir sidra quyuq kraxmal yelim bilan qoplanadi; 4) Yelimlanadigan qog'ozning orqa tomoniga yelim surtiladi va gazlama ustiga qo'yib tekis tortiladi; 5) Yuza to'liq qurigach, mixlar sug'urib olinadi. Qalin qog'ozga, masalan, vatmanga yelim surtishdan oldin ikki tomoni suv bilan namlanadi, so'ngra toza latta bilan ortiqcha suyuqlik sidirib tashlanadi.

Bo'yoqlarni astoydil aralashtirib tayyorlash uchun chinni idishlardan foydalangan ma'qul. Qoida bo'yicha, avvalo, yorug' tusli bo'yoqlar, undan so'ng to'qrog'i surtiladi, ya'ni suyuq bo'yoqlar, keyin esa quyuqroqlari beriladi. Yaxshi akvarel bo'lishi uchun suvli qilib yorqin bo'yoqda yozish kerak. Buyumni bo'yashdan oldin yorug'lik kuchli tushib turgan qismi saqlab qolinadi.

Katta mo'yqalamda bir xil rangda yopish uchun bo'yoqni idishdag'i suvda aralashtirib olgach, unga besh-o'n daqqa vaqt berib tindiriladi. Keyin yangi idishga toza oq mato orqali suzilgach mo'yqalam bo'yoq bilan shimdirliladi. Qog'ozni qiya holatda ushlab, yuqorida pastga qarab mo'yqalam bilan rang beriladi. Maboda bo'yoq idish tagida cho'kib qolsa "eritma"ni ishlatishdan oldin har safar biroz chayqatib (boshqa mo'yqalam bilan), biroz fursat davomida tindirishga imkon berish kerak.

Agar talaba qo'yilmadagi jismlarning ranglarini va yorug'-soyalarini aniq ko'ra bilsa, demak u ranglavhani to'g'ri va mohirlik bilan bajara oladi deb bo'lmaydi. U bemalol alohida jismlarning yorug'-soyalarini, hajmlarini ham yuzaki ko'r-ko'rona ko'chirib tasvirlashi mumkin. ammo aks ettirishda eng muhim sifatlarni, ya'ni materiallikni, fazo va yoritilish holati kabilarni mukammal ko'rsata olmaydi.

Haqqoniy rangtasvirning sir-asrorlarini chuqur egallash uchun badiiy

ta'limning boshidanoq uning asosiy ikkita xususiyatidagi maqsad va ma'nosini tushunib yetish zarurdir. Faqat shundagina yosh rassom ta'lim yo'liga to'g'ri tusha oladi, uning har bir yaratgan yangi mashq ishi rangtasvir sifatlari bo'yicha mukammallikka erishadi.

Birinchi xususiyat shundan iboratki, naturadan rangtasvirni savodli tasvirlash, uning hajmdorlik, fazoviy va materiallik sifatlarini ko'rsatish, tabiatdagi rang munosabatlarini ko'rib idrok qilish orqali palitradagi chegaralangan bo'yoqlarga mutanosiblikda o'tkazish metodiga asoslanadi. Ranglavhadagi rang munosabatlari mazmuni rassom nigohi bilan qabul qilingan munosabatlar mohiyatidan kelib chiqadi. Biroq, ranglavhadagi rang munosabatlari qurilishi yoritilishning umumiyligi tusi va rangli holatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi (kuchga va yoritilishning spektr tarkibiga bog'liq holda-yoritilish rangiga bo'ysunadi). Munosabatlar bilan ishlash usuli rangtasvir savodxonligining asosiy qonunidir. Rassom shunday insonki, u nafaqat nisbatlarni kuchli his etish qobiliyatiga, balki rang munosabatlarini ham sezishga qodir.

Ikkinchi xususiyat shundan iboratki, natura qo'yilmasisidagi narsalarning rang munosabatlarini idrok etish yaxlit taqqoslash bilan aniqlanadi. Aynan shu ikki kasbiy mahorat xususiyatlarini mukammal egallah natijasida yetuk, hissiy ta'sirchan tasvir koloritini yaratish mumkin. Ta'lim olishning ilk davriday oq munosabatlar usuli bilan ishlash zarur. Har bir rangni "xuddi o'ziday" va boshqalardan alohida qilib nusxa ko'chirish mumkin emas.

Bunday nomaqbul nusxa ko'chirish natijasida ranglarning bir-biriga bog'liqligini, ularning o'zaro farqlarini aniqlab bo'lmaydi.

Shu tariqa nusxa ko'chirish davom etaversa, qarashning jonli taassurotidan yiroq tasvir paydo bo'ladi. Xuddi qalamtasvirda barcha kattakichik o'lchamlarning nisbati bir-biriga mos va mutanosib holda tasvirlangani kabi, ranglavhadagi hamma bo'yoqlar ham bir-biriga nisbatan to'g'ri olinishi zarur. Rangtasvirdagi rangni ham faqat uni atrofda o'rab turgan ranglar bilan solishtirib mutanosiblik munosabatlarini hisobga olgan holda tasvirlash lozim.

Taniqli rassomlar doimo ta'kidlab shunday g'oyani ilgari surganlarki, faqatgina munosabatlar bilan ishlab rangtasvir sirlarini qoidalgi, savodli egallah mumkin. Rassom va pedagog N.P.Krimov shunday degan: "Rang rangtasvir munosabatlarining mosligi bilan paydo bo'ladi... Agar rangtasvirda munosabatlar noto'g'ri bo'lsa, eng toza va yorqin ranglar ham chalkash va tushunarsiz bo'lib ko'rindii".<sup>2</sup> Taniqli rangtasvirchi

<sup>2</sup> Крымов Н.П. — Художник и педагог. Статьи и воспоминания. М., 1960, 79-бет.

B.V.Ioganson munosabatlar metodi haqida shunday degan: "Yorug'lik va rang munosabati hamda tuslari aniq ko'rsata olish rangtasvirning asosini tashkil qiladi".<sup>3</sup>

## NISBATLAR MUNOSABATI

Munosabatlar qonuni bu rassomlarning kashfiyoti emas. Munosabat qonuni bu atrof borliqning shakli, rangi va materialliligini ko'rish orqali idrok qilishning fiziologik va psixologik qonunidir. Ular mos ravishda nafaqat naturadan idrok etishda, balki qalamtasvirning tusli va rangli tasvirlarida namoyon bo'ladi. Bularni aniq misollarda ko'rib chiqamiz.

Bizning atrofimizni qurshab turgan buyumlar faqat konstruktiv tuzilishi bilangina emas, asosiysi o'zlarining nisbatlari bilan ham xarakterlanadi. Nisbatlar – bu o'lchamlar munosabatidir. Biz "Osmono"par uy yoki pastqam bino", "ozg'in odam yoki semiz odam", - deganda ularning nisbatlari xususiyatini nazarda tutgan bo'lamiz.

Mana ikkita shisha idishni olsak: biri sut idishi, biri esa ma'danli suv idishi. Agarda ularni solishtirsak farqi juda turlicha ekanini ko'ramiz. Balandligi va kengligi, idishning bosh qismi va chuqurligi har-xil. Ularning nisbatlarini to'g'ri aniqlamay turib ko'rinishini haqqoni tasvirlash mumkin emas. Xuddi shu kabi boshqa buyumlar ham: stol va kursi, tarvuz va oshqovoq, kuchuk va mushuk o'ziga xos shaklga, aniq nisbatlari va qurilishiga ega. Baland, chiroyli qayin va shox-butoqlari tarqoq yoyilgan tolning o'lchamlardagi o'zaro munosabatlarini aniqlamay turib, ularning xususiyatlarini ko'rsatib bo'lmaydi. Nisbat xarakterisiz natyurmort, manzara, portret, inson qomatini haqqoni va ifodali tasvirlash mumkin emas.(rasmlar)



<sup>3</sup> Иогансон Б.В. О живописи. М., 1955. 28-бет.



Demak, portret san'atida rassom ongli ravishda yuz tuzilishining asosiy xarakterli nisbatlarini, bosh va qomatni yaxlit ko'rsatishga intiladi. Naturani ko'rish va qog'ozda o'lchamlarning teng ravishda mutanosibligini ifodalay olish — rassomning eng muhim vazifasidir.

Hammamizga ma'lumki, rassom buyumlarni o'zining haqiqiy kattaligida tasvirlashi shart emas. Tasvirda o'lchamlarni qo'yilmadagiga mos, mutanosib tasvirlashning o'zi kifoya. Inson kallasini 2 – 3 marotaba kattalashtirish yoki 20 – 30 marotaba kichiklashtirishi mumkin, ammo mutanosiblik saqlanib qoladi va tasvirning haqiqiyligi yo'qolib ketmaydi. Zangori ekranda hamma narsa bir necha marta kichiklashtirilgan, kinoteatrлarda esa aksincha bir necha marta kattalashtirilgan, biroq u holda ham, bu holatda ham tasvir haqiqiyligicha qabul qilinadi: zangori ekrandagi odamlar bizga pakana va kinoteatrлarda esa haddan ziyod yirik, bahaybat odamlar bo'lib tuyulmaydi.

Agar biz borliqni va jismlarning odatdagи haqiqiy kattaligini buzib tasvirlasak, u holda haqqoniy tasvirga ega bo'lmaymiz.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, qo'yilmadagi jismni chizayotganda uning haqiqiy kattaligida tasvirlash shart emas, faqatgina uning o'lchamlarining nisbatlarini to'g'ri ifodalashning o'zi kifoya.

Odatda qo'yilmadagi jismlarni chizayotganda o'zining haqiqiy o'lchamidan kichikroq qilib tasvirlanadi. Demak, guruhdagi narsalarning barchasini, yagona mashtabdagи o'lchamda ikki barobar yoki uch barobar kichiklashtirib tasvirlash muhimdir. Predmetlarning alohida bo'laklari ham umumiyl masshtabni hisobga olgan holda kichraytirilishi lozim. Aks holda, tasvir qo'yilmadagi jismlarga nishbaten o'xshashligini yo'qotadi. Demak, tasvirda chizilayotgan narsalarning nisbatlar mutanosibligini saqlab qolish bu tasvirning umumiyl masshtabi chegarasidagi hamma qismlarning bir

butunlikdagi mosligini haqqoniy ifoda etishdir. Faqat shundagina tasvir to‘g‘ri va haqqoniy bo‘lib chiqadi.

Teng nisbatlardagi mutanosiblikni qabul qilish qonuni faqatgina qalamtasvirdagi nisbatlar munosabatlariga xos bo‘lmay, balki yorug‘-soya (tusli) va rangtasvirli ifodalanishiga ham tegishlidir.

## TUS MUNOSABATLARI

Jismlearning yorug‘ligi, rangi va ularga bog‘liq bo‘lgan materiallik bizning ongimizda agar jismlearning tus farqlari tasvir tekisligida qo‘yilma bilan teng ravishda mutanosib bo‘lsa (oq jismlar oq bo‘lib, kulrang esa kulrang, qora esa qora bo‘lib ko‘rinadi) haqqoniy qabul qilinadi. Bunga misollar keltiramiz. Kun mobaynida yorug‘lik keskin o‘zgaradi, ammo har qanday sharoitda ham ma’lum sirtning yorug‘likni qabul qilishi deyarli o‘zgarmasdir. Bir varaq qog‘ozni biz kunduz kuni ham, kechqurun ham, ochiq kunda ham, havo bulut paytda ham, hattoki derazaga yaqin yoki uzoq masofada bo‘lganda ham deyarli oppoq rangda ko‘ramiz. Agarda neytral muhitga uch xil disk oq, kulrang va qora ranglarni o‘rnatsak va ularga kuchli yoki kuchsiz yorug‘likni yo‘naltirsak, biz bu axromatik ranglarning farqlarini o‘zgarmas holatdagi ko‘rinishini guvohi bo‘lamiz. Ana endi faqat kulrang diskni o‘ta kuchli yorug‘lik bilan yoritamiz va uni oq rangdan farqlash ancha mushkul. Bu hodisaning sababi shundaki, jismning ranglari o‘zining yorug‘ligi bilan o‘zgarayotgan yoritilishga bog‘lanmagan holda, agarda yorug‘lik kuchining ko‘payishi yoki kamayishi hamma jismlar uchun bir maromda va bir xil bo‘lsa, sodir bo‘ladi. Boshqacha so‘z bilan aytganda (albatta ma’lum bir chegara asosida) sirtlarning yorug‘lik kuchini kuchaytirish yoki susaytirish mumkin, agarda bu bilan birga teng ravishda tus munosabatlari saqlanib qolsa, ularning ko‘rinishi o‘zgarmaydi.



Natyurmort.

Shunday qilib, bizning ko'rish taassurotimiz aniqlik munosabatlari bilan belgilanadi. Agar qalamtasvir va ranglavhada aniqlik munosabatlari saqlanib qolsa, yaratilgan asar betakror va haqqoniy ko'rinadi. Buyumlarning materialliligi ham va fazoviy yiroqlashishi ham aks ettiriladi.

Ko'rishning bu qonuniyati tusli yoki rangli tasvirni bajarishda juda muhimdir. Buyumlarning tusli va rangli xususiyatlarining haqqoniyligi, agarda ularning tusli farqlari qo'yilmaga nisbatan mutanosiblikda tasvirlangan bo'lsa, tasviriy tekislikda ham saqlanib qoladi. Qo'yilmadan qalamtasvirning tusli yoki rangtasvirning grizayl texnikasida ishslash jarayonida tasvirlanayotgan jismlarning tekislikda yorug'likdan asta to'qlashishga o'tishini shunday tasvirlash kerakki, qo'yilmadagi eng to'q joy tasvirda ham to'q, eng yorug' qismi u erda ham yorug' qolgan oraliq och yarim to'q tuslar esa ikki tomonlama bir xil bo'lmosi lozim.

"Agarda sen chizishni puxta egallamoqchi bo'lsang, - deb yozgan Leonardo da Vinchi, - unda asta-sekinlik bilan tasvirlay borib, rang bilan yoruglik orasidagi munosabatlarni to'g'ri baholay bil, shu yo'sinda soyaning eng to'q va ochroq joylarini farqlay ol...".

Tus munosabatlarni tasvirlash haqida K.A.Korovin shunday maslahat bergen: "Rangni (bo'yoqni) tayyorlashda nima to'qroq, nima ochroqligiga e'tibor berish kerak. Asardagi rangni o'xshatish uchun, bir rangni boshqa rangga nisbatan qanchalar to'q yoki ochligini taqqoslاب so'ngra tasvirlanadi".<sup>3</sup>



R.Xudayberganov. Bolaligim ko'chalari.

Rassom F.S.Bogorodskiy bu masalaga quyidagicha yondoshgan: "... agar biz realistik rangtasvirning asosiy qonuniyatlarini yoddan chiqarsak, ya'ni tasvirga mansub obyektning joylashishi, yorug'lik kuchi (nima to'qroq yoki ochroq) holati, mato yuzasida fazoviylik va ketma-ketlikni ko'rsata olmaymiz. Realist rassom bo'yamaydi, u asarda yaxlit bir

<sup>3</sup> Коровин К. Вспоминает М. 1971, 128-бет

butunlikni saqlagan holda, tus munosabatlarini izlaydi va yaratadi. Masalan, rasm qo'yilmadagi havo rang vazani dastlab sinchiklab kuzatadi, ammo uni havo rangga bo'yashdan avval fon vazifasini o'tayotgan pushti rang bilan taqqoslab qanchalik to'q yoki och tusligini aniqlab so'ngra amaliy ishga o'tadi".<sup>4</sup>

Bulardan shunday xulosa qilish mumkinki, tusli tasvir (tusli qalamtasvir yoki "grizayl" texnikasidagi rangtasvir) yorug'liklar munosabati qurilishi nisbatlariga asoslanadi.

## RANGLAR MUNOSABATI

Rangli tasvirni savodli ifoda etish uchun naturaning qo'yilmada nafaqat tusli, balki buyumlarning rangli farqlarini kuzatish vaqtida qanday qabul qilinsa, tasvirlash jarayonida ham shunga erishish lozim.

Rangli munosabatlarning holati buyumlar bilan atrof-muhitning bir-biriga bog'liqligini aks ettiradi, shuning uchun tasvirlanayotgan buyumlarning tusli va rangli munosabatlarining birligi maromiga yetgan, koloritli yechimga kelishga imkon yaratadi.

Naturali qo'yilmada har bir buyumning shaklini rangli munosabatlarini to'g'ri tasvirlash uchun birinchi navbatda uning rangli tusini (havo rang, sariq, yashil va h.k.), ikkinchidan bu ranglarning yorug'lik munosabatlaridagi farqlari (tus jihatdan), ya'ni qanchalar bir-biriga nisbatan ochroq yoki to'qroqligi, uchinchidan, har bir buyumdagি ranglarning boshqalarga nisbatan yorqinligi va to'yinganligini aniqlash zarur.

Ish jarayonida shuni doimo yodda tutish kerakki, har bir rang yorug'likda, soyada, yarim soyada faqat o'zi emas, balki boshqa ranglarga bog'liqligi bilan muhimdir. Muhimi, uning umumiyl ranglar qatorida ishtirok etib, boshqalardan ajralib turishidir. Rassomni faqat ranglar farqi va munosabatlar qiziqtirishi zarur. Shuning uchun rangtasvir jarayoni naturali qo'yilmadagi buyumlarning doimiy solishtiruv, taqqoslash, ya'ni munosabatlar bilan ishslash jarayoni hisoblanadi. Biroq, o'sha holatda ranglavhada kuzatilayotgan ranglar farqini faqat yorug'ligi bo'yicha emas, balki yorug'lik kuchi, ya'ni to'yinganligini ham saqlab qolish zarur va muhimdir. Rangtasvirning haqqoniyligi ranglardagi nozik farqlarning aniqligidan emas, balki yorug'lik va rang munosabatlarini to'g'ri tasvirlash natijasidir. Tusi va kuchi bo'yicha noto'g'ri olingen ranglar (ya'ni yorug'ligi va to'yinganligi) munosabati fazoviy ko'rinishda tasvirning chalkashuviga va tasvirlanayotgan buyumlarning materiallik sisatiga va

yorug'lik holatlarini ifodalashda salbiy ta'sir ko'rsatadi.

"Kenglikdagi materiallik rangtasvirida. - deb aytgan N.P.Krimov, - rang va tus ajralmas... Tus bo'yicha noto'g'ri olingen rang, rang emas, bu oddiy bo'yoq va u orqali kenglikda hajm materialligini tasvirlab bo'lmaydi". Shu tariqa rangni tusdan cheklab qo'yish mumkin emas, tasvirning haqqoniyligi rang birligi bilan yorug'lik munosabatlari orqali belgilanadi.

Ranglar munosabati usulidagi rangtasvir jarayonini musiqa ohanglariga qiyoslash mumkin, ya'ni alohida tovushlar o'z-o'zidan hech narsani aks ettirmaydi, ammo boshqa ohanglar bilan mujassamlashganda zarur taassurotni beradi. Musiqiy asarni biroz pastroq yoki yanada balandroq ohangda yangratish mumkin, ammo u yoki bu holatda ham u o'zining zarur musiqiy ohang taassurotini saqlab qoladi. Ammo tovushlarning bir-biriga bog'liqligi buzilsa, ohang mavjudligi yo'qoladi. Xuddi shu holatni rangtasvirga ham taqqoslash mumkin. Tusli va rangli munosabatlarni kuchli yoki kuchsiz yorug'lik va to'yingan ranglar yig'indisida qurish mumkin, lekin shu bilan birga jismlarning tusi va rang kuchining naturadan obrazli ko'rishga mos ravishda bir-biriga bog'liqligini saqlab borish muhimdir. Etyud o'ta sodda usulda va juda yengil tusda bajarilishi mumkin. Naturadagi ranglar munosabatini xuddi tabiiy holatdagi kuchi bo'yicha tasvirlash shart emas. Ammo, belgilab olingen tus bo'yicha eng och qismidan eng to'qqa qarab borish jarayonidagi mutanosiblikni saqlab qolish juda muhimdir. Aks holda rangtasvir yaxlit bir butun garmonik taassurot qoldirmaydi.

Etyudda yorug'ligi va to'yinganligi bo'yicha naturadagi munosabatlarga mos bo'lmanган rangni tanlash, bamisol muqadagi soxta nota kabitidir.

"Realistik maktabni bitirgan har bir rassom. - deb yozgan B.V.loganson, - shu narsani puxta biladiki, naturadan tasvirlash usuli yorug'ligi bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lgan tuslarning o'ta nozik munosabatlarini solishtirilishiga asoslangan".<sup>5</sup>

V.I.Surikovning ranglar munosabatlari haqidagi g'oyalarini puxta o'rgangan P.P.Konchalovskiy shunday ta'kidlaydi: "Naturadan aniq rang olish mumkin emas, chunki har daqiqada yoritilishga qarab rang o'zgarib boradi. Shuning uchun rang aynan ko'chirilmasdan, faqatgina natura asosida yaratiladi".<sup>6</sup>

Иогансон Б.В. Молодым художникам о мастерстве. М., 1959, 198-й лист

О живописи 80-х годов



R.Ahmedov. Yoz.



A.Abdullayev. Shomahmudovlar oilasi.

Munosabatlar usuli bo'yicha ishlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan V.A.Serov o'zining "Qizcha va shaftolilar", "Quyosh orqali yoritilgan qiz" asarlarida betakror olam go'zalligini, yorug'lik va turli ranglar jozibasida mohirona tasvirlay olgan. Naturadagi ranglar munosabatlarining ustalik bilan tasvirlanishi, tasvir texnikasining ifodaliligi, rassomning munosabatlarga asoslangan koloritni qurishning yangi imkoniyatlarini ochib berdi. Ranglarning bog'liqligi munosabatlar ish uslubini rivojlantira borib, rassomlar ma'lum maqsadda yo'naltirilgan holda kolorit kuchini muvaffaqiyatli qo'llab yuqori natijalarga erishganlar. Bular safiga M.Nabihev, G'.Abdurahmonov, B.Jalolov, J.Umarbekov, A.Mirzayev, A.Ikromjonov, I.Haydarov, Ya.Salpinkidi, O.Qozoqov, N.Oripova, B.V.Ioganson, P.P.Konchalovskiy, A.A.Plastov va boshqa rassomlarni kiritish mumkin.

## YORITILISHNING UMUMIY TUSLI VA RANGLI HOLATLARI

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ranglarni ko'rish yoritilish kuchi o'zgarishiga bog'liq bo'lмаган муносабатларга асосланади. Biroq, biz yoritilishda unga bog'liq bo'lган тус ва rangda tabiatning umumiyl bo'yoq yig'indisidagi past yoki yuqori bo'lган kuchli o'zgarishni his etamiz: quyosh yordamida yoritilgan manzara oqshom yoki tongdagidan yorug'roq; havo bulut paytida yorug'lik va soya farqlari keskin bo'lmaydi. Yoritilish kuchi ta'sirida nafaqat jismlar yorug'ligi, balki uning rangi ham o'zgaradi. Yoritilish sust bo'lsa, jism rangining to'yiganligi pasayib xiraroq ko'rindi. Xonadagi jismni derazadan uzoqlashtirgan sayin uning rangi xiralashadi va to'qlashib boradi. Kunduzgi kuchli yorug'lik bilan yoritilgan jismlarning issiq soyalari hosil bo'ladi. Masalan, havo bulut bo'lishi bilan tabiatdagi yoruglik va ranglar keskin o'zgarib, manzara sovuq kumushsimon tusga kirib qoladi. Darvoqe, jala qu'yishdan oldin ob-havo holatini bir eslab ko'ring! Bulutlar quyuni yaqinlashib, atrof bir zumda qorong'ulashdi, ammo qayerdadir dalaning bir qismi quyosh yorug'ligi bilan tovlanib turibdi. Demak, naturadagi ranglar xilma-xilligi yoritilish ranglarining holatiga bo'ysunadi.

Realistik rangtasvirda tabiatning yoritilish holatini mohirona tasvirlay bilish juda muhimdir. Rangtasvirda naturaning umumiyl tus va rang qoplamlari kunning ma'lum vaqtiga mos ravishda (tonggi, peshingi, kechki) yoki ma'lum yil fasli va ob-havo sharoiti nazarda tutiladi. Kunning turli vaqtida, har qanday ob-havoda yoki yil faslida tasvirlangan manzaralar bir-biridan shunday farqlanishi kerakki, xuddi naturadan tonggi va kechki, quyoshli va bulutli kunda bajarilgan ishlar singari farqlansin. Agarda bir qancha rangtasvir asarlariga nazar solsak, kunning turli vaqtida, ya'ni tabiat manzarasi quyoshli kunda tasvirlanganda bo'yoqlar yorqinroq va jozibali soya va yorug' joylari esa keskin farq qiladi, bulutli havoda esa aksinchal. Bularning hammasi rassomning yoritilish kuchi bilan aniqlanadigan umumiyl tus va rang holatini saqlay bilish natijasidir. V.I. Surikovning "O'qchilar qatl etish tongi" asarini yodga olamiz. Bu asar past tusli diapazonda tasvirlangan. Agar o'qchilar ko'ylagini oq qog'oz bilan solishtirsak, ular mutlaqo oq emas, balki kulrangdir. Ammo, aslida asarda ular ko'y lagi oqdir. Asarning qolgan qismlari to'q quyuq bo'yoqlar bilan ishlangan, chunki nozik tong yorug'ligi sharoitida hamma jismlar yorug'likni kam aks ettiradi. Aravada o'tirgan kampirning yuzi ham to'q bo'yoqlarda ishlangan. Agar diqqatni bir joyga jamlab, kampirga sinchkovlik bilan nazar solinsa, bu juda yaqqol seziladi.




V.I. Surikov. *O'qchilarni qatl etish tongi*.

Ammo, atrofdagi barcha narsalar o'zlariga tonggi yengil yorug'lik kuchini qabul qilganda, kampir yuzidagi rang tabiiy hisoblanadi. Agarda asarning istalgan bir qismiga, kuchli yorug'likning bir bo'lagini qo'shmoqchi bo'lsangiz, bu kolorit muhitida u begonadir. Shu tariqa, umumiy tus va rang holatlardagi eng yorug' va yorqin dog'ni matoga ishlayotganda doim ham naturadagi kabi eng yorug', eng yorqin rang qilib olish shart emas. Naturadagi tus va ranglar munosabatiga mutanosiblikni yo'qotmaslik uchun, avvalo, bu munosabatlarni qanday bo'yoqlar yig'indisida ishlashni, ya'ni juda yorug', juda to'q va qanday rangni jarangdorlik chegarasida olish zarurligini aniqlab olish kerak. Dastgohli rangtasvirda yoritilishning umumiy holatini to'g'ri yetkazib berish hal etuvchi omildir. Agar asar o'ta darajada yoritilib yuborilsa ham tasvir kuzatuvchi nigohida xuddi "otilib" ketayotganday bo'lib, yoritilish holati yo'qoladi, yoki aksincha asardagi umumiy tusni juda to'qlashtirib yuborilsa, tasvir qorayib, kishi diqqatini o'ziga tortadi. Umumiylar yoritilishni (umumiy tusni) yetkazib berish natyurmort rangtasvirida, interyerda, inson boshi va qomatida juda muhimdir. Shu maqsadda berilgan masalani hal etishda avvalo etyuda jismalarning eng yorug', och va eng to'q dog'larning aniqlanishi keyingi rang qatorlari qurilish xususiyatlarini belgilaydi. I.Grabarning "Yig'ilmagan dasturxon" mavzusidagi natyurmortida oq dasturxon oppoq emas, balki to'qroq tusda ifodalangan.

"Umumiylikni izlang, - deb aytgan I. Levitan, - rangtasvir qaror emas, u tabiatni rangtasvir ashyolarda ifodalaydi. Asarda mayda-chuyda, ikir-

chikirlar bilan chalg'ib qolmasdan, umumiy tusni qidiring".<sup>1</sup>

Umumiy tus va rang holatini manzara rangtasvirida saqlash juda muhimdir. Manzara etyudini tasvirlashda, avvalo eng asosiysi — tus va rang munosabatlarini to'g'ri tanlash kerak, masalan: yer, osmon va svjni. Agar umumiy tus va ranglar holati hisobga olinmasa, tasvirdagi bo'yoqlar tus kuchi va rangi bo'yicha kuchayib ketishi mumkin. Bulutli ob-havoda etyud ishlayotganda toza oq rang va ochiq to'yingan bo'yoqlar ishlatiladi. Masalan, qish faslida shom oldidan qor unchalik oppoq emas, ammo tajribasiz rassom nigohida u oppoq tusda, yam-yashil barglar yoki maysalarning yozdag'i har qanday ob-havo sharoitida ham ko'm-ko'k rangda tasvirlanishi mumkin. Yo'l qo'yilgan bunday xato natijasida manzara etyudida eng asosiy narsa muhit holati mavjud bo'lmaydi. Axir, aynan shu bilan manzaraning kayfiyati va hissiyotga ta'siri belgilanadida.



I.Levitan. Yo'l.



R.Ahmedov. Portret.

Buyuk "kolorist"lar bo'yoqlar munosabatini doimo naturaning umumiy tus va ranglar holatini hisobga olib ish yuritganlar. Levitan, Korovin, O'.Tansiqboyev, R. Ahmedov, A. Mirzayevlar yagona umumiy bo'yoq surtmasi yordamida etyuddagi o't-o'lanlarni, bulutlarni va daraxtlarni mohirlik bilan tasvirlaganki, ularning moddiy o'zigaxosligi, rangdorligi, jozibadorligi ko'pchilikni hayratga soladi. Buning sababi, ularning etyudlaridagi ranglar yoritilishining umumiy holati mezonlari to'g'ri hisobga olinib yaratilganligidandir.

Afsuski, shogird-talabalarning ba'zi mashq ishlarida umumiy tus yig'indisining mavjud emasligi pand beradi, natura obyektlari jismlarga xos "lokal" ranglar bilan bo'yalib, umumiy yoritilish hisobga olinmaydi.

Umumiy yoritilishga bog'liq bo'lgan naturaning umumiy tus va rang

holati kuchidan tashqari, yana barcha jismlarga yoritilishning spektr tarkibiga ta'sir etib umumlashtiruvchi kuch ya'ni yoritilishning rangini ham hisobga olish joiz. Kechki sun'iy yoritilish xona muhitiga sarg'ish-olovrang tusni beradi. Tongda tabiat yaltiroq-pushti tusga, oqshomda sarg'ish-olovrang, havo bulut bolganda esa xolis kumushrang tusga ega bo'ladi. To'liq oyning kuchsiz yorug'ligida tabiatan kulrang-havorang yoki kulrang-yashil tuslar namoyon bo'ladi. Naturadagi ranglar sifati, xususiyati qanchalar xilma-xil bo'lmasin, uning har-bir qismida, har bolagida yoritilish rangi mavjud va barcha bo'yoqlar unga bo'ysunadi.



*A.Nur. Quyosh botish oldi.*

Agar biz rassomlarning asarlari reproduksiyalarini birma-bir taqqoslab ko'radigan bo'lsak (natyurmort, manzara asarlari), ularda turli xil yoritilish sharoitida, ya'ni quyosh botish oldidagi tasvirga nazar solsak umumiyligi olovrang-qizg'ish tusni, oy nuridagi tasvirda esa yashilsimon-havorang tusda bajarilganligining shohidi bolamiz. Bulutli ob-havoda tasvirlangan manzaralar umuman o'zgacha, ammo umumiyligi bir-biriga yaqin bo'lgan bo'yoqlar yig'indisidan tashkil topgan.

Ranglar birligi va bo'yoqlar uyg'unligi hamma holatda asosiy yoki aks etayotgan yorug'lik manbai spektral tarkibi bilan shartlangan. Shuning uchun, naturadan ishlayotganda rassom nafaqat umumiyligi ranglar munosabatini ma'lum bir tus va rang mashtabida qurishi kerak, balki koloritli birlikni kuzatib borishi ham lozim. Qog'ozga yoki matoga beriladigan rang shunchaki bo'lmasligi, birlashtiradigan va bir-biriga yaqin qiladigan oraliqdagi umumiylikni tushunib yetmasdan turib "ma'lum" bo'lgan jismlar rangini olish mumkin emas. Bunday hamjihatlik va ranglar koloriti uyg'unligi etyud va asardagi tus-ranglar qurilishi muvofiqligining asosidir.

Realistik rangtasvirdagi kolorit - bu tasvirdagi barcha ranglarning bir-biriga o'zaro bog'liqligi, uning rangli qurilishidir. Uning asosiy xususiyati -

ranglarning boyligi va o'ziga xosligi, naturaga mosligi, tasvirlanayotgan paytning jismli va fazoviy sifatlari va yoritilish holati yorug'-soya bilan birgalikda ko'rsatiladi. Etyud yoki asar koloriti quyidagicha aniqlanadi:

1.Hajm shaklini yasashda va fazoni ko'rsatishda rang-barang reflekslarning boyligi va xilma-xilligi;

2.Yoritilishning umumiy tus va rang xususiyatini hisobga olgan holda naturaga mutanosib tarzdagi asosiy ranglar munosabati;

3.Natura ranglarini birlashtiradigan, ularni bir-biriga yaqinlashtirib o'zaro bo'yundiradigan, yoritilish rangi ta'sirini yetkazib berish.

Asardagi bu masalani hal etish, demak ko'p narsada badiiy masalani ham yechish, rangtasvir obraz sababini, uning tus va rang holatini topish, ko'p jihatdan koloritning hissiy ta'sirida aniqlanadi.

Inson tabiat go'zalligini nozik his etish bilan boshqa mayjudotlardan tubdan farq qiladi. Insonlarning his-tuyg'u tajribasi, ulardag'i sezish dinamikasi, kayfiyati, tabiatning ham zavq-shavqi, ko'tarinkiligi hamda ma'yus, g'amgin koloritli holatlari bilan bog'liq. Yoritilishning haqqoniy holatini to'g'ri aks ettirish, shu sharoitda buyumlarning hajmini, materialligini, fazoviy sifatlarini, tasvirdagi ranglar jozibasini mohirona ko'rsata bilish, tomoshabinning nozik hissiyotiga ta'sir etib, ma'lum bir kayfiyat bag'ishlaydi, estetik his-hayajonini ko'taradi.

### Ranglarni yaxlit ko'rish

Rangtasvida xuddi qo'shiq san'atida ovoz sozlash kabi mohirona ko'z qarash ham juda muhimdir. Rassomga o'ta zarur bo'lган bu malaka negizini ko'rib chiqamiz.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, rangtasvir etyudini ishlashda ranglar munosabati naturadagi buyumlarning ranglarini uch xil xususiyatini solishtirish usuli orqali aniqlanadi: ranglar tusi, yoritilishi va to'yinganligi. Bu uch xil alomat har qanday rangning to'liq tavsifi uchun asosiy hisoblanadi. Biroq, naturadagi buyumlarning ranglar munosabatini aniqlash, ularni galma-gal ko'rish xususiyati bilan mushkullashadi va shu bilan birga qarash, nazar yo'naltirilgan buyumga nisbatan "aniqlikka" moslashadi. Ko'z qorachig'i shunday tuzilganki, u buyumdag'i ingichka va yo'g'on chiziqlarni, tusni va kontrastlarni yaqqol ko'radi. Masalan, buyumlar guruhini ikki ko'rinishda joylashtirib, diqqat bilan birinchi ko'rinishdagi buyumlarga razm solsak, ikkinchi ko'rinishdagi buyumlar noaniq va xiraroq yoki aksincha, agar ikkinchi ko'rinishga diqqat bilan qarasak, ulardag'i rang, yorug'-soya kontrasti hamda mayda bo'laklari aniqroq ko'rindi.



### Etyud.

Natura qo'yilmasida tus va ranglar munosabatini haqqoniy tasvirlash uchun naturadagi hamma jismlarga barobar qarashni bilish muhimdir. Agar ochiq deraza oldida turgan guldastani tasvirlamoqchi bo'lsak, bir vaqtning o'zida ham gullarni, ham deraza pardasini va deraza ortidagi shahar ko'rinishini ham kuzata olishimiz zarur.

Manzara rangtasvirini ishlash jarayonida har bir bo'lak joy tusini alohida emas, aksincha yaxlit tusda ko'ra bilish hamda ularning munosabatini ham sezish: eng ochi osmon, eng to'qi yer, ularning orasidagi suv.

Bo'laklar ustida ish olib borilayotgan jarayonda predmetlar guruhini yoki butun predmetni yaxlit ko'rish zarur. Naturaning alohida qismalarini yaxlit ko'rmasdan turib yakka ko'rish mumkin emas. Naturadagi rang munosabatlarini faqat bir butun ko'rish orqali ularni matoda to'g'ri ifoda etish mumkin. Naturani yaxlit idrok etish to'g'risida ingliz rassomi D.Reynolds jumladan shunday degan: "Agar rassom predmetlarga yaxlitlikda qarashni odat qilmas ekan, u qalamli tasvirda ham, rangda ham yuksak darajaga hech qachon erisholmaydi".<sup>7</sup>

"Odatda biz rang deb ataganimiz. - deb tushuntiradi R. Falk. - predmet bo'yog'idan o'zga narsa emas, u bizning yaxlit ko'rish sharoitidagi narsa ham emas. Shu tariqa biz uchun yangi ranglardan, yangi shakl va munosabatlardan tashkil topgan yangi bir dunyo paydo bo'ladi... Asarni alohida buyumlar emas, aksincha o'zaro bir-biriga bog'liq buyumlar, ular turgan muhit va siz ko'rayotgan joy yaratadi. Asar mana shu o'zaro bir-biriga bog'liqlik natijasida yaratiladi, u bamisolli tovushlari sozlangan

<sup>7</sup> Мастера искусства об искусстве. М., 1967. Т.3. 422-бет.

musiqa kabitidir. Umumiy ko'rish - ya'ni, siz tasvirlamoqchi bo'lgan buyumlar guruhini yaxlit ko'rishga harakat qilish zarur. Qarshingizda turgan natyurmort, biz uchun bir asar bo'lib ko'rinishi kerak. Buning uchun vaqtinchalik bu kub, bu anor, olma ekanligini yoddan chiqarib turish lozim. Bular qarshingizdag'i rangli asarning rangli bo'laklaridir. Asar kuchining bir butunligida, rang-barang ohangdorligida, ya'ni xuddi turli asboblar ishtirokida orkestr kabitidir".<sup>8</sup>

O'zining rangtasvir usuli haqida K.A. Korovin shunday degan: "Men aniq bo'lishga, juda to'g'ri va juda yaxlit ko'rishga harakat qilaman".<sup>9</sup>



*R.Falk. Sariq koftadagi  
ayol portreti.*



*Etyud.*

B.V. Ioganson quyidagi usul bilan yaxlit ko'rishdagi munosabatlар bilan ishlashning ma'nosini ochib berdi: "Bizni doimo solishtirishga va doimo farqlarni aniqlagan holda ishlashga, aynan bir rangning yorug'lik kuchi va yengil rang turi bo'yicha boshqalardan farqlanishini hamda naturadan ana shu farqlarni "ajratib olish"ga o'rgatishgan. Hamma narsani bir joyga jamlab qaraganda, rassom to'satdan birinchi ovozga intilayotgan yorqin bir aniqlikni va unga jo'r bo'layotganlarni sezib qoladi; qaysidir kombinatsiya o'zining birinchilik mohiyatini yorqin bildirmoqda. Boshqa kombinatsiyalar esa unga bo'y sunadi, o'z o'rnida uchinchi kombinatsiyani o'ziga bo'y sundiradi va h.k."

Yaxlit ko'rish va naturaning hamma bo'laklarini barobar solishtirish qobiliyatini shakkantirish — bu rangtasvir ta'limida muhim masala. Agar havaskor rassom bu masalalarni o'zida mujassamlashtirmasa, kelgusi ishlarida ijobiy natijalarga erisha olmaydi. Aynan bir butun ko'ra bilishlik

<sup>8</sup> Фальк Р. Беседы об искусстве. 172-бет.

<sup>9</sup> Коровин К. Жизнь и творчество. М., 1963, 426-бет.

<sup>10</sup> Иогансон Б.В. Молодым художникам о живописи. М., 1959, 64-бет.

va munosabatlar bilan ishlay olish eng usta rassomni havaskordan ajratib turadi.

Naturaga keng va umumiy qaray olish uchun rassomlar bir necha amaliy usullarni ishlab chiqishgan. Ulardan biri hamma narsani birdek saqlash; naturani kuzatish jarayonida ko‘zni biroz “qisib” qarashdan iboratdir. Ko‘zni qisib qaraganda unga tushayotgan yorug‘lik miqdori pasayadi, buning natijasida xuddi oqshom payti kabi naturadagi ikkinchi darajali detallar xiraroq ko‘rinadi.



*Etyud.*



*R.Falk. Tomorqa hovli.*

P.P.Chistyakov yorug‘-soya va rang munosabatlarini aniqlash uchun shunday maslahat bergen: “Doimo qalamda yorug‘-soya topishda va koloritda “xayolan” ko‘z oldida yassi bir oynani faraz qilish lozim: u munosabatlarni yaqqollashtiradi, usiz esa hamma narsa alohidalashib ketadi”.<sup>10</sup>

R.Falk ham shu kabi maslahat bergen: “Manzaraga shunday qarash kerakki. u bamisol deraza oynasi yuzasida mujassamlashgan bo‘lsin. Bu munosabatda avval deraza ortidagi manzarani ishlash foydalidir...”.<sup>11</sup>

Ranglar munosabatini to‘g‘ri baholash uchun, oddiy ramkali kuzatgichdan foydalanish mumkin. Naturaning ko‘rinayotgan qismini ramkaning ichiga joylab uni yaxlit ko‘rish oson. Xuddi shu maqsadda yanada qulayi qattiq kartondan 2xl sm o‘lchamdagи to‘g‘ri to‘rtburchak kesib olinadi. Ishni boshlashdan avval naturani shu teshikchaning tekisligida yotgan proeksiyasida kuzatish kerak. Agar biz buyumlar guruhini oddiy qarashda kuzatgan bo‘lsak, endi esa ular bo‘yoqlari bo‘yicha

<sup>10</sup> Гинзбург И.И. Чистяков и его педагогическая система. Л.—М. 1944. 170-бет

<sup>11</sup> Фальк Р. Беседы об искусстве. 21-бет

ohangdor, bamisoli qimmatbaho toshlar mozaikasiga aylanadi. Shu tariqa naturadagi asosiy ranglar munosabatining antiqa yaxlit rangtasvir obrazzi hosil bo‘ladi.

Shakllari puxta ishlangan va tasviri yaxlit saqlangan etyudni yakuniga yetkazish o‘ta mushkul masaladir. Bunday vazifani yosh rassom darhol hal eta olmaydi. Odatda tajribasiz rassom mashqida buyumlarning hamma bo‘laklari ularning rang va tus dog‘lari turli fazoviy ko‘rinishlarda joylashtirilgan va bir xil urg‘u-kuchlanishda tasvirlanadi. Birinchi va undan keyingi qatorlardagi buyumlar ko‘zga birdaniga tashlanib ranglavhani maydalashtirib yuboradi. Bularning hammasiga sababchi naturani bir butun umumlashtirib ko‘ra bilmaslik hamda kompozitsiya markazini ajrata olmaslikdir.

Tasvirning yaxlitligi va birligi - bu nafaqat yaxlit ko‘rishning, balki asosiyni, ya’ni kompozitsiya markazini aniqlash hamdir. Rangli tasvir kompozitsiyasining yaxlitligi asosiy va ikkinchi darajali o‘zaro munosabatdagi barcha unsurlarni birlashtirib yagona asar holiga keltirishga bog‘liq.



*I.Levitan. Gullayotgan olmalar.*

Asosiysi odatda surat tekisligining optik markazi yaqinida joylashgan bo‘ladi. Uni ajratib ko‘rsatishda rassom detallarni umumlashtirishi, kompozitsiya markazidan uzoqlashayotgan buyumlardagi tus va rang kuchini sustlashtirishi, barcha tus va rang munosabatlarini asosiyyga bo‘ysundirishi lozim. Bularning hammasi tomoshabin diqqatini kartinaning asosiy kompozitsion markaziga yo‘naltirishiga imkon beradi.

Tajribali rassomlarning asarlari hamisha yaxlit ko'rindi. Agar portret bo'lsa, u holatda kiyim, qo'llar, fondagi jismlar asosiydan, ya'ni yuz qismidan ajralib kishini chalg'itmaydi.

Bunday asosiy, ya'ni: kompozitsiya markaziga bo'ysunishni natyurmortda ham, manzarada ham kuzatish mumkin. Agarda tasvir bir maromdag'i tuslar va ranglar yig'indisini o'z ichiga olgan bo'lsa, u tomoshabin diqqatini o'ziga tortmaydi.

Ma'lumki, kuzatilayotgan obyektning obrazli ko'rinishi tanlash va umumlashtirish natijasida paydo bo'ladi. Inson buyumlar guruhiga nazar tashlasa, doimo ko'z nimanidir ajratib, alohida yaqqol ko'radi, nimanidir esa yaxshi ilg'amaydi, ana shu ko'rish markaziga bo'ysunadi. Ko'rish obrazining bu markazi qismi eng kuchli yorug'lik va ranglar kontrastiga egadir. Ko'rish maydonining chekka joylarida detallarning aniqligi, yorug'-soya va rangning kontrasti kamayib boradi. Rassom ko'rish qobiliyatining bu xususiyatlarini hisobga olib va unga moslashtirgan holda butun tasvirni umumlashtirishga va kompozitsiya markazini ajratishga harakat qiladi.

Bir butunlik, yaxlitlik, jismlarning barchasini asosiyga bo'ysunishi mavjud bo'lgan natyurmortga "Baliqlar" o'quv natyurmorti misol bo'la oladi. Baliqlar stolning gorizontal tekisligida joylashtirilgan. Ularning tanalari asarning xuddi ichiga kirib ketgandek tasvirlangan bo'lib, tus va rang bo'yicha biroz to'qroq. Ulardagi shakllarning aniq modellashtirilishi, issiq va sovuq tuslar mozaikasi - bularning hammasi ularning real muhitda ma'lum bir yoritilishda ekanligini ko'rsatadi. Natyurmortning boshqa bo'laklari - tovoqcha va mato juda nafosatlari, mayin ishlangan bolib, asosiyga, kompozitsiya markaziga bo'ysungan holda tasvirlangan. Natyurmortning umumiyligi tus holati juda to'q, sust yoritilgan bo'yoqlar gammasida aks ettirilgan.

Mavzu-voqeali asarlarning yaxlitligi ham, tasvirlanayotgan barcha buyumlar va obyektlarning kompozitsiya markaziga bo'ysundirilishi bilan yaratiladi. Sodir bo'layotgan harakatlar mantiq, personajlarning ruhiy holatlari o'zaro harakatlari, tasvirning umumiyligi yaxlitligini yaratishda ishtiroy etadi. Bularga kompozitsiya qurilishining hamma elementlari xizmat qiladi: ular qarash nuqtasi, simmetriya va marom, tus va rang kontrastlari, tasvirlashning texnik usullari, matoning o'lehami va boshqalardir.



*Qo'y junini oluvchilar.*

Naturani tasvirlashda kuzatishning tartibsizligidan xolos bo'lish uchun, kompozitsion markazni ajratish masalasiga mos ravishda tasvirni mazmunli tashkil qilishga erishish uchun, natura qo'yilmasini uch xil variantda bajarishni tavsiya etamiz, ular 3-5 jismdan iborat bo'lgani ma'qul.

Birinchi ranglavha ko'rish markazini bir joyga yo'naltirish kerak, masalan, chap tomonda turgan jismga (boshqa jismlarni nazardan chetlashtirmagan holda). Keyingi etyudlarni ishslashda diqqatni navbatma-navbat boshqa jismlarga ham yo'naltirish mumkin. Masalan, markaziy qismga yoki ikkinchi ko'rinishga. Shundan so'ng ishlarni kompozitsion markazning yechim xarakteri bo'yicha solishtirish kerak. Qarash markaziga tushgan buyumlar, hajmi bo'yicha bo'rtgan, shakli bo'yicha aniq tusi va rangi bo'yicha jozibador bo'lishi kerak. Qarash markazidan uzoq bo'lgan buyumlar esa aksincha, hajm bo'rttirilishi kuchsiz, ishlab berilishi kamaygan, tus kontrasti sustlashgan, tus va rang umumlashgan, shakl chegaralari esa noaniq bo'lib ko'rindi.

## Naturadagi rangtasvir jarayoni

Naturadan ranga tasvirlash jarayoni o‘z qonun qoidalariga ega. Ishning boshlanish qismida nimalar qilish, o‘rtasida qaysi masalalarni hal etish va oxirlab qolganda uni qanday yakunlash kerakligini bilish zarurdir. Rangtasvirda quyidagi asosiy masalalarni hal etish zarur:

- umumiylis va rang holatlari va natura bo‘yoqlarining bir-biriga yaqinligidagi tus va rang munosabatlarini topa bilish;
- katta rang-tusli munosabatlar chegarasidagi rang-tuslarning “cho‘zilishi”, alohida buyumlarning hajmli shakllarining bat afsil rangli qayta ishlanishi;
- butun tasvirning umumiyligi, yaxlitligi hamda kompozitsiya markazini ko‘rsata bilish.

Bu masalalarning har biri nima bilan yakunlanishini ketma-ketlikda ko‘rib chiqamiz.

Tasvirlashning to‘liq rangtasvirli qurilishi, naturaning asosiy qismlari oralig‘idagi tus va ranglar munosabatining aniq va to‘g‘ri ko‘rsatilishi bilan aniqlanadi. Natyurmortda ular – fon, natura qo‘yilmasidagi stol yuzasi va buyumlar hisoblanadi. Manzarada esa – osmon oralig‘idagi yer yuzasi va daryodagi suv, oldingi, o‘rta va orqa oraliqdagi ko‘rinishlardir. Agar bu asosiy rang-tuslar munosabati (farqlari) “etyud”da noto‘g‘ri tasvirlansa, manzaradagi obyektlar yoki buyumlar shaklidagi rang tuslari, reflekslar va jism bo‘laklari ustida har qancha berilib ishlanmasin, yuqori saviyali mukammal rangtasvirga erishib bo‘lmaydi. Qalamtasvirni ishlashda ham tahliliy masala bajariлади: dastlab buyumning “konstruktiv” ichki qurilishi, nisbatlari, yaxlit umumiyligi shakl topiladi. Rassom shunday sharoitda aslo bu

masaladan chekinmaydi, naturani umumiyligi va yaxlit ko‘radi. N.N.Ge bejiz rassomlarni ogohlan-tirmagan: “Natura”dagi bosh qismlarni belgilab, nisbatlarni tekshirish uchun darhol asosiy soya va yorug‘likni umumiyligi sinchiklab o‘rganib chiqing va har doim, har vaqt tasvirni boshidan oxirigacha umumlashtirgan holda chizing hamda mayda bo‘laklarga ohista kirishing. Mana sizlarga chizishning siri”.

Rangtasvirda ham ish boshlashdan avval naturadagi umumiyligi rang munosabatlarini diqqat bilan o‘rganib chiqish lozim. Shuning uchun bu masalaga 5-10 daqiqa vaqt sarflab, nuturaning umumiyligi rang munosabatlarini tushunish kerak;



eng och va eng to'q (zich) dog‘ qayerda, tusi va rang kuchi bo‘yicha asosiy farqlar (to‘yinganligi) qanday ekanligini topish kerak. Masalan, naturadagi sariq olmalar fondagi sariq mato bilan solishtirilsa, olmalar matodan ochroq, ularning sariq tusi sariq matoga nisbatan yorqinroq (to‘yingan) ko‘rinadi. Rangning uch xil o‘ziga xosligi bo‘yicha natura qo‘yilmasidagi buyumlarning asosiy rang xususiyatliligi mavjud.

Obyektdagi umumiylikni topilishi rassomni naturadagi ikkinchi darajali belgilari, uning mayda bo‘laklariga, koloritli masalaga mustasno holda e’tibor berishdan, umumiyligini tus va rang holatini, asosiy tus va rang munosabatlarini paydo qilishdan chalg‘itishga harakat qiladi. Shunday qilib naturaning ranglar qonuniyatlarida ham asosiya erishiladi, etyudning keyingi mayda detallli ishlariga poydevor yaratiladi.

Rang munosabatlarini, avvalo, eng och va intensiv ranglarni qidirishdan boshlash kerak, so‘ng eng to‘qini topib, qolganlarini esa shularga nisbatan aniqlash ma’qul. Keyingi tuslarga biroz to‘qroq va biroz intensiv bo‘lganlar va boshqalar kiradi. Murakkab kulrang tuslar oxirida beriladi.

Dastlabki va yakunlovchi tuslarni har doim ham eng och va eng to‘q hamda to‘yingan qilib bo‘lmaydi. Qo‘yilmadagi eng och joy har doim ham oq bo‘lmaydi, eng to‘q joy esa qora bo‘lmaydi. Kuchli to‘yingan yorqin ranglar ham kamdan-kam uchraydi. Natyurmortdagagi qizil pomidorni odatda yorqinligi bo‘yicha toza qirmizi rangda emas, balki uni 50%ga sustroq tusda berish ma’qul. Hattoki bahorgi o‘t-o‘lanlarni tasvirlashda juda ehtiyyotkor bo‘lish lozim. Uning yorqinligini shunday kuchaytirib tasvirlash mumkinki, natijada u tabiiy ko‘rinishdan boshqacha bo‘lib chiqib qoladi. Shuning uchun, ishga kirishishdan avval, umumiyligini tus va ranglar kuchini aniqlab olish kerak: munosabatlarni qanday bo‘yoqlar yig‘indisida bajarish — och yoki to‘q, yorqinlikning (to‘yinganlik) qanday chegarasida bo‘lishini ham aniqlash muhim.



*Natyurmort.*

Qisqa qilib aytganda, naturaning umumiy tus va rang holatini bilish kerak. Bunday holatni saqlab qolish uchun balki ranglar munosabatini chegaralangan bo‘yoqlarda tasvirlashga to‘g‘ri keladi.

Ishni eng och, to‘q va yorqin tuslardan boshlaganda palitradagi barcha ranglardan, shu bilan birga eng yorqin va keskin bo‘yoqlardan foydalanish shart emas.

Yorug‘-soya va rang munosabatlarini aniqlashda umumiyyadan xususiyga qarab borish lozim. Avvalo asosiy obyekt oralig‘idagi tus farqlarini topish muhim: natyurmortda, masalan, stol yuzasi va fon oralig‘idagi ko‘za, choynak va ko‘zaga tushayotgan yorug‘lik va boshqa manzarani tasvirlashda avvalo osmon va arning alohida jismlarini bir-biriga va ularning yaxlitligida bo‘lgan rang munosabatlarida aniqlash kerak. Inson qomati tasviri yoki portret ham xuddi shu tariqa bajariladi.

Rassomlarning amaliy tajribasida shunday bir jumlalar mavjud: “Katta yorug‘lik”, “katta soya”, “katta shakl”, “katta ranglar munosabati”. Bulardan maqsad natura obyektini yaxlit ko‘rish va ularni barqaror qilib tasvirlashdir.

Naturani yaxlit idrok etganda, yorug‘lik tikka ta’sir etayotgan joydagি narsalar yagona bir qismni tashkil etadi va undagi dog‘lar kuchliligi bo‘yicha soya qismidagiga teng kela olmaydi. Xuddi shularni shaxsiy va tushayotgan soyalarga moslash mumkin: ular tus bo‘yicha yarim soya bilan yaxshi chiqishadi, yarim soya esa tasvirning yorug‘lik qismlaridagi kuchga teng kelolmaydi. Soyadagi refleks yarim soyadan och bo‘la olmaydi, ammo shaxsiy soyaning umumiy tusiga bo‘ysunadi. Obyektdagi ushbu katta shakllar yoki buyumlar guruhi tusi va rangining to‘g‘ri saqlanishi tasvirga yaxlitlik va yoritilishining to‘g‘ri bo‘lishiga turki bo‘ladi.

Umumiy ranglar munosabati va navbatdagи ishning davomi naturaga xos koloritni hisobga olgan holda borishi kerak. Naturadan kam ishlagan tajribasiz rassomlar u yoki bu natyurmort ranglavha etyudini, manzarani yoki portretni tasvirlayotganda har doim ham undagi yaxlitlik va bo‘yoqlar birligini muvaffaqiyatli bajara olishmaydi. Naturada ishlash jarayonida har bir aniq holatda koloritni tushunib yetish, tusli va rangli holat xususiyatini ko‘rsata bilishlari zarur. Hamma gap natura bo‘yoqlaridagi umumiy tus, rang holati va kolorit birligini ko‘rish va tushunib yetishadir.



*Kompozitsiya.*

Yirik ko'rinishdagi tus munosabatlarini aniqlab olgandan so'ng, yorug'-soya qismlarini modellashtirishga ya'ni, har bir buyumning yorug' soyasi, yarim-soya, shaxsiy hamda tushayotgan soyalarini topgan holda hajmli shaklini rang-barang qilib tasvirlashga o'tish mumkin. Shuni yodda tutish kerakki, buyumlarning ustki qismi ham rang tusi bo'yicha, ham yorug'ligi bo'yicha, ham to'yinganligi bo'yicha tushayotgan yorug'lik nurining oraliq masofasiga, sinish burchagiga hamda atrofida o'rab turgan buyumlarning reflekslariga va kontrast munosabatlariga bogliq holda o'zgaradi. Yorug'likka, yarim-soyaga yoki soyada yonma-yon turgan qandaydir ikkita yuza jismlaridagi narsalarda bir xil yoritilish sharoiti mavjud emas. Buyumning barcha qismini palitrada topilgan rang bilan unga och yoki to'q rangni qo'shib ishlash mumkin emas. Buyumning har bir bo'lagi uchun yangi va yana yangi bo'yoq qorishmalarini topish kerak. Odatda lokal (buyum) rangi yarim-soyada sezilarliroq, chunki yarim-soya yorug'lik manbaining asosiya va aks etayotgan tomonlardidan ancha sust ta'sir etadi. Buyumning hajmli shaklini jozibadorligi va natura qo'yilmasining yaxlitligini to'g'ri anglash uchun, issiq tuslar bilan yonma-yon aralash kontrast kuchida inson ko'zi sovuq rangni ko'radi, bir rang boshqasiga qo'shimcha bo'lgan rangni his qiladi. Buning natijasida naturadagi sovuq ranglarga issiq ranglar hamisha yo'ldoshdir. Agar biz buyumning sirtida zarg'aldoq rangni ko'rsak, yonida esa, albatta, havo rangni sezamiz.



### *Kompozitsiya.*

Issiq va sovuq tuslar tasvir ohangdorligini oshiradi, naturadagi tabiiy ko'rinishni namoyon etadi.

Buyumning katta shaklini modellashtirayotib, mayda bo'laklarini chiza turib, shuni yodda tutish kerakki, katta shaklning ham yoritilgan, ham soyadagi yuzasida joylashgan ko'plab kichik shakkarda aniqlanadigan tusni oshirib yubormaslik kerak. Yorug'likda yoki soyada joylashgan mayda shakl tuslarining yaqinligini ilg'ab olish uchun, ish jarayonida atrof muhitga bog'liq bo'lмаган buyumlarga e'tibor berish shart emas. Aytib o'tganimizdek, buyumlarni yaxlit ko'rib, doimo ularni o'zaro solishtirib turish zarur. Buyumning och qismini tasvirlay turib, qaysi nuqtada u yorug'ligi va rangining eng quyuqligi va qayerda kamroq namoyon bo'lishini, so'ngra esa hajmli shaklning qolgan qismida topilgan tus bilan taqqoslab aniqlash kerak. Eslatib o'tamiz, ranglarni uch xususiyat bo'yicha taqqoslasmiz: yorug'ligi, rang tusi va to'yinganligi. Agar biror bir rang yorug'ligi bo'yicha to'g'ri topilib, boshqa xususiyatlari aniq bo'lmasa, bu rangni to'g'ri deb bo'lmaydi - munosabatlar rang tusi va to'yinganligi bo'yicha ham aniqlangan bo'lishi kerak. Buyumlarni solishtirib o'xshashligini yoki ularning orasidagi farqlarini aniqlash shunday holatda yengillashadiki, agar havorang buyumni boshqa bir tusi o'zgacharoq buyum bilan solishtirsak. Bunday taqqoslash bizni sinchiklab qarashimizni charxlaydi hamda ulardagi rang tusini aniq ko'rishga ko'mak beradi.

Buyumlarni rangi bo'yicha taqqoslashda yana bir holatni hisobga olish

zarur. Ketma-ketlikdagi rang kontrasti tufayli, kulrangning nozik tusi uni nima bilan qiyoslashimizga bog'liq bo'lib, goh issiq, goh sovuq bo'lgan holda tuyuladi. Agar kulrangni qizil rang bilan solishtirsak u sovuq tusda, havorang bilan taqqoslasak issiq tusda ko'rindi. Shu sababli buyumning nozik tusini aniqlashda xolis rangni xolis bilan, issiqni issiq bilan, sovuqni sovuq bilan, och rangni och bilan, to'q rangni to'q bilan o'zaro solishtirish kerak.

Tasvirlanayotgan buyumlarni nafaqat asosiy yuqorida qayd etilgan rangning uchta xususiyati bo'yicha, balki tashqi ko'rinishining aniqligi bo'yicha ham taqqoslash zarur. Tasvirlanayotgan buyumlarning chegarasi hamma joyda ham bir xil aniq ko'rindiydi. Bir xil joyda buyumning silueti yaxshi ko'rindi, boshqa joyda esa fon bilan birikib ketadi. Buyumdan tushayotgan soyalar chegarasi hamma joyda bir xil emas. Ish jarayonida doimo munosabatlар bilan fikrlash kerak: matoda tasvirlanayotgan bir necha buyumlarni naturadagi xuddi shu guruh buyumlari bilan qiyoslab borish maqsadga muvoofiқ. Faraz qilamizki, birinchi ko'rinishdagi buyumlar guruhining ranglari ikkinchi ko'rinishdagi buyumlar rangiga nisbatan juda ham yorqin va to'q tusadir. Ularning naturadagi bu farqlarini sezgach. "palitra"da ranglarni alohida bitta emas, balki bordaniga bir necha rangni munosabatlarda tanlash zarurdir.

Havaskor rassom manzara lavhani tasvirlayotganda old ko'rinishdan boshlashi ma'qul. Agar rang qatlamlarini orqa ko'rinishdan qo'ya boshlasa, uning rang va tus kuchlarini oshirib yuborib, birinchi ko'rinishni bo'rttirib ko'rsatishga bo'yoqlarning kuchi yetmaydi.

Matoning to'liq yuzasi bo'yoqlar bilan butkul qoplanib, munosabatlар to'g'ri olinmaguncha, haqiqiy jarangdor bo'yoqlarni, yorug'lik kuchini va tasvirlanayotgan buyumlar moddiyligini his qilib bo'lmaydi. Palitradagi yorqin bo'yoq, hali matodagi yorqin tus emas. Buyumlarning yoritilishi va materialliliqi munosabatlarning to'g'ri olinishiga bog'liq, aks holda yon atrofdagi tuslar to'g'ri topilmasa qaysidir bir rangning jarangdorligiga erishib bo'lmaydi.

Manzaraning fazoviy kengligini, masalan, faqat havo perspektivasi tufayli ranglar o'zgarishini ko'rsatib beruvchi rangli dog'lar emas, balki yer yuzasida joylashgan narsalar va obyektlar: daraxtlar, qurilishlar, to'g'ri to'rtburchakli va notekis maydonlarni o'lchamlari va chiziqlar aniqligi ranglarda o'zgarib manzaraning fazoviy uzoqlashishini yaratadi. Tog'larni, masalan, ikkinchi va olis ko'rinishda umumiyl rang dog'larida ifoda etish mumkin emas. Rang bilan ularning relefini va o'simliklar tuzilishini tasvirlash kerak.



### *Ranglar munosabati. Kompozitsiya.*

Ishning yakunida natyurmort, manzara yoki portretning u yoki bu joylari kerakli yorqinlikni olmay qolgan bo'lishi mumkin yoki aksincha, haddan tashqari tusi va rangi bo'yicha kuchli, umumiy rang tusidan "ajralib" ko'rinishi mumkin. Yoritilgan joylar tusi bo'yicha o'ta keskin bo'lib, qog'oz yoki mato yuzasidan "chiqib" ketishi mumkin. Ba'zan, soyali joylar sezilarli mayda detallarga ega bo'lib, maydalashib ko'rindi. Bu holatlarning hammasida ham umumlashtirish masalasi hal etiladi: mayda bo'laklarning keskin chegaralari mayinlashtiriladi, buyumlarning rangdorligi kuchaytiriladi yoki xiralashtiriladi, keskin tuslar ochlashtiriladi yoki to'qlashtiriladi.

Umumlashtirish bosqichida naturaga yaxlitligicha qarash, hamma narsani bordaniga ko'rish, ya'ni "tikilib qarash" kerak. Buyumlar guruhining barchasi tarqoq bo'lib tuyuladi, ammo shu paytda tus munosabatlarini, natura yaxlitligini tezroq tushunish mumkin. Navbatma-navbat naturaga ham, etyudga ham yaxlit qarash kerak, shunda qayerda qanday xatoga yo'l qo'yilganligini ilg'ab olish mumkin. Butunligicha, yaxlitligicha ko'ra olish qobiliyati, ishni umumiydan xususiyga qarab va undan yana umumlashtirishga tomon boriladi. Ish jarayonida yaxlit ko'rish - rangtasvir ishlash mahoratining asosidir. Faqatgina shu malakaga ega bo'lgan rassom, naturani obrazli ko'rinishini to'g'ri ifoda etishi, undagi asosiy va har bir bo'lakning o'z o'mini topishini, ishning yakuniy darajasini hamda kompozitsiyaviy markazga bo'yundirishni samarali bajara oladi.

Tasvirdagi qismlar yig'indisi yaxlitga teng emas, chunki yaxlitlik - bu qismlar yig'indisiga yaxlitlik, birlik, shu qismlarning bir-biriga bo'yunganligi va jamlanganligi qo'shiladi. Akademik E.A.Kibrik tasvirlashning yaxlitligi haqida shunday yozgan: "Yaxlitlik qonuniga bo'yusunmasdan turib naturadan na qalamda, na rangda tasvirlash mumkin emas. Shakl ham, rang ham o'z-o'zidan mavjud bo'lmaydi, faqat yaxlitlik qismi kabi yaxlitlikka nisbatan bo'ladi".

Manzaraning rangtasviri - rangtasvir dasturining kerakli bo'limi bo'lib, rassom-pedagoglarni tayyorlash jarayonida muhimdir.

Tabiat benihoya jozibali va go'zaldir. Quyosh nuri va atrof muhit cheksiz turli ranglarni hosil qildi.

Manzara tasviriy san'atning eng hissiyotli janrlaridan biri hisoblanadi. Go'zal manzara asarlar o'zining nafosatli ta'siri bilan insonni ma'naviy boyitishga erishadi.



Z. Islamshikov. Manzara.

Ona tabiat qo'ynida bo'lish ijodiy fikrlar tug'ilishi va ruhlanishni o'zgarmas manbai hisoblanadi. Rassom biror bir joyni tasvirlashda o'sha muhitni chuqur o'rganmay, tahlil etmay xayolan tasvirlasa bu ish soxta chiqib tomoshabinni o'ziga jalb eta olmaydi. Muntazam ijod etish rassomni nozik sezishga va tabiatni ma'lum holatini rangli va tusli xususiyatlarini to'laqonli yetkazishga o'rgatadi.

Dala amaliyotida ijod qilish xona ichkarisidagi ishslash sharoitidan

farqlanadi. Kuchli yorug'likni hosil qiluvchi yorug'likning ko'pligi, reflekslarni turli-tumanligi, manzara obyektlarini kuzatuvchidan yiroqligi, yoritilishning tezlik bilan almashuvi, yil fasli va ob-havoning turli holati — buning hammasi yosh rassomga yangi va odatlanmagan sharoitdir.

Manzara etyudining muhim afzalligi tabiatning ma'lum holatini, yoritilganligini, havoiy muhit ta'sirini ma'noli makonni yetkazishdir. Manzara tasvirini bunday sifatlariga rassom havo perspektiva qonuniyatlariga amal qilish, rang munosabatlari bilan ishslash usuli, umumiytus va rang holatini to'g'ri topish yordamida erishadi. Manzara obyektlari va narsalarni rang, och-to'qligi va to'yinganligi bo'yicha taqqoslash, solishtirish, ularning naturadagi farqlarini belgilash - bular etyudning rangli munosabatlarini to'g'ri ifodalashda asos qilib olinadi.

Manzara etyudini mahoratli tasvirlash - uning rang munosabatlarini naturada ko'rinyotganday o'xshatib bajarishdir. Bunday talablar natyurmortning rangli tasvirida ham asos bo'lgan. Manzara etyudining birinchi mashqlaridanoq naturani haqqoniy tasvirlash uchun rangning och-to'qligi va to'yinganligi, rang munosabatlarini aniq topish muhimligini tushunish kerak.

Manzarani kuchli quyosh nuri bilan yoritilganlik darajasini rassom teng ravishda palitranning bo'yoqlar doirasiga o'tkazadi, so'ngra tomoshabin etyuddagi ko'rinishni absolyut yorqinlikda emas, balki naturaga teng ravishda etyuddagi rang munosabatlarini o'matilganligi tufayli qabul qiladi.

Manzarada yoritilish darajasi kuch jihatdan ham, rang jihatdan ham juda tez o'zgaruvchandir. U yil fasllariga qarab, bulutli havo, yorug'lik nurlarini tushish burchagiga (ertalab, kunduzi, kechqurun) qarab o'zgaradi. Kunning qoq peshindagi yoritilishni ertalabki va kechkiga qaraganda yuz barobar kuchlidir. Shuning uchun etyuddagi tus munosabatlari ma'lum tusli va rangdoriлик darajasida saqlanib turishi kerak. Ayrim holatda rang munosabatlarini ifodalashda palitranning och va yorqin bo'yoqlari (quyoshli kun), boshqasida esa kam to'yingan quyuq, qoramtilr bo'yoqlar qo'llamiladi (bulutli kun). Shunday qilib etyud tasvirlashda yoritilish kuchi va umumiytusni hisobga olish kerak. Bunga, avvalambor barcha narsalarni yorqinligi, ranglarni to'yinganligi bo'ysunishi zarur. Shuning uchun etyudni tasvirlashga kirishishdan oldin quyidagi masalani yechish zarur: naturaning etyudida ko'proq yorqin, to'q va to'yingan dog'lar rang va yorug'lik kuchi jihatdan qanday bo'ladi. Shular atrofida etyudning barcha narsalari va obyektlari rang munosabatlarida qurilgan bo'lishi kerak.

Ko'zning moslashuvi deb ataluvchi (yoruglikka ko'zning sezuvchanligining ko'tarilishi va pasayishi) natura (tabiat) har xil

yoritilishda turli taassurotlarni yuzaga keltirishi mumkin. Masalan, quyosh nurlarida kuzatilgan tabiat to'satdan bulutlar bilan qoplanganda barcha ranglar o'zgarib to'qroq bo'lib ko'rindi.



#### *Manzara etyudlari.*

Manzara etyudlarini bajarish jarayonida taqqoslash va munosabatlar bilan ishlayotganda naturani yaxlit ko'rish kerak, aks holda naturaning tus va rang munosabatlarini to'g'ri aniqlash va etyudning jozibador ko'rinishiga erishish mumkin emas.

Rangtasvir ishlash jarayonida manzara obyektlari va narsalarni yaxlit ko'rib turish muhim. Amaliy ishlash vaqtida birinchi ko'rinishni yorqin ranglarda, keyingi ko'rinishlarni esa xiraroq ishlash kerak. Faqat yaxlit ko'rish orqali manzaraning perspektiv o'lchamlarini, ularning turli ko'rinishdagi rang munosabatlarini to'g'ri aniqlash hamda tasvirlashga erishish mumkin.

Naturaning rang munosabatlarini ifodalayotganda ranglar birdamligini ham nazarda tutish kerak, u esa yoritilish spektr tizimini yaratadi. Ertalab naturada oltinsimon pushti bo'yqlar, kechqurun esa sariq zarg'aldoq, bulutli kunda esa neytral kumushsimon ranglar ustun keladi. O'rmonda yashil issiq ranglar doim ustun turadi. Oydin kechada kulrang-havorang va yashil ranglar kuzatiladi.

Naturada ishlash jarayonida rassom rang munosabatlarining mutanosibligi, umumiy rang va tus holatining vazminligini kuzatib qolmay, rang koloriti va ranglar garmoniyasining yaxlitligiga erishishi kerak.



*Shahar manzarasi.*

Kolorit hissiyotining tomoshabinga ta'sir kuchi shunda namoyon bo'ladiki, kartinadagi narsalar, obyekt yoki voqeа ma'lum yoritilish sharoitlarida kolorit holatini haqqoni yifodalay olsa. "Kim men uchun haqiqiy kolorist hisoblanadi?" - deb D. Didro o'zi javob beradi: "Tabiat ranglarini to'g'ri yoritiganligini tasvirlay olib kartinada uyg'unlikka erisha olgan rassomgina". Plener sharoitida munosabatlar bilan ishslash uslubi ko'pchilik metodik adapbiyotlarda muallif tomonidan yoki e'tiborga olinmaydi yoki aniq tushuncha berilmaydi, ko'pincha umuman noto'g'ri "munosabatlar" tushunchasi deyilganda rang turlarini mutanosibsizligi, etyud va natura tomoshabin obrazida rang munosabatlarining farqlanishi aniq emasligi nazarda tutiladi.

Rassomlar ko'p asrlar oldin narsalarning ranglari muhit bilan, yoritilish sharoitlari bilan o'zgarishlarini bilishgan. Uyg'onish davridan boshlab rassomlar rangtasvir haqida turli risololar yozib, chiziqli va havoiy perspektiva qoidalari, naturaning ranglardagi ko'rinishida muhitning o'rni (Leonardo da Vinchi, A.Dyurer, D.Konstebli, D.Reynolds) to'laqonli bayon etilgan. Shunday bo'lsa ham bu rassomlar plenerli manzarani kashf etmaganlar. Ma'lum bo'lishicha plener rangtasviri XIX asrning ikkinchi yarmida rassomlar tasvirni tusli va rangli ko'lamini saqlagan holda munosabatlar usuli bilan ishslashni boshlagan vaqtida paydo bo'lgan (V.D.Polenov, I.I.Levitan, K.A.Korovin va boshqalar).

Manzara rangtasviri bo'yicha birinchi mashg'ulotlar manzaraning asosiy obyektlari orasidagi ranglar farqini tasvirlashga qaratilgan qisqa vaqtli etyudlar bo'lishi kerak (bino silueti, osmonning umumiyligi dog'i, yer

yuzining umumiy tekisligi, daryoning oynali yuzining bir xildagi rang dog'i va hokazolar).

“Etyudni tasvirlashda osmonga nisbatan suv va yer tusining munosabatlari bordaniga inobatga olib tasvirlash kerak”, — deb yozgan K.A.Korovin.

I.I.Levitan yosh rassomlarga maslahat beradi: “Biz hali manzaradagi yer, suv, osmonni umumlashtirish, bir-birini boglash ko'nikmalarini to'laqonli egallamaganmiz: hammasi alohida, barobar esa yaxlit bolib jaranglamaydi. Axir eng muhimi va murakkabligi - manzarada suv, yer va osmonning to'g'ri rangli munosabatlari erishishdir”.

Misol tariqasida N.N.Ge “Bulutlar”, “Dengizda quyosh botishi” va A.E.Arkipovning “Shimoliy manzara” asarlarini ko'rishimiz mumkin. Rassom N.N. Ge osmon, suv va yer munosabatlari, old ko'rinishdan ichkari tomongacha ranglarning perspektiv o'zgarishlarini nozik ifodalagan. A.E. Arkipovning etyudi esa betartib to'q rang surtmalari bilan osmon, yerning asosiy munosabatlari ko'l bo'yidagi katta bo'l imagan omborxonasi tasvirlangan. Bunday dastlabki bir seansli etyudlarda naturaning yirik rang munosabatlari astoydil tasvirlashi talabani manzara etyudidagi rang tuzilishi, uning materiallik va fazoviy sifatlarini hamda tabiatdagi turli yoritilish holatlarini mahoratli yaratish malakalarini rivojlantiradi.

Yoritilish holatini hisobga olib, umumiy ranglar munosabatini qisqa vaqtli etyudda bajarish bo'yicha biroz tajribaga ega bo'lgach ikki-uch seansga mo'ljallangan mashqlarga o'tish mumkin. Uzoq vaqtli etyudlarni ishlash jarayonida ham dastlab asosiy rang munosabatlarda (asosiy dog'lar), yaxlit surtmalarni qollash, so'ng old, o'rta ko'rinishdagi mayda bo'laklarni bajarishga o'tiladi va hokazo.

Tajribasiz rassom uzoqda joy lashgan (100—300 m) ko'katlar rangini xuddi oldida turgandek ko'radi. Vaholanki, yiroqdagi rang mutlaqo boshqacha ko'rindi: yashilning nozik ranglari va uning to'yinganligi uzoqlashish ta'sirida albatta o'zgaradi. Tajribasiz rassomlarning asosiy kamchiligi: ishni yaxlit ko'rmaslik, mayda shakllarni tasvirlash bilan chalg'ib ishni samarali yakunlay olmaydilar.

Tabiatdagi narsalarning ranglari yoritilish kuchi va spektr birikmalariga bog'liq (kunduzi, kechqurun, quyoshli kunda, bulutli ob-havoda) holda o'zgaradi. Masalan, kechqurun quyosh botish vaqtida qayin tanasi zargaldoq qizil tusda ko'rindi. Shunday bo'lsa ham tajribasiz rassom qayin tanasini oq rangda tasavvur etadi.

Manzarani rangli tasvirlash jarayonida narsalarning predmetlik

ranglarini yoddan chiqarish ko'nikmasiga erishish (shaxsiy rangini), yorug'lik ta'siri va uzoqlashgandagi ranglarni sezish mahoratini rivojlantirish zarur. Ayniqsa, ta'limning boshlang'ich davrida plenerdagi rangtasvir bo'yicha vazifa va mashqlar xuddi shunga bag'ishlangan bo'lishi kerak.



*Ge N. Dengizda quyosh botishi.*



*O'quv ishi. Bahor.*

Manzara rangtasvirini boshlang'ich davr dasturini juda yaxshi o'zlashtirish uchun quyidagi mavzulardagi vazifalarni bajarish kerak:

- plener ochiq havo sharoitida naturani yaxlit idrok etish va rangdorlik munosabatlari bilan ishlash usuli;
- asosiy rangdorlik munosabatlarini qabul qilish va tasvirlash;
- umumiyl tus va rangdorlik holati;
- manzara obyektlarini kolorit yaxlitligi va yoritilish rangi;
- manzaraning mayda bo'laklarini tasviri;
- manzarada kenglik.

## **Plenerda naturani yaxlit idrok qilish va rang munosabatlari bilan ishlash usuli**

Haqqoni tasvirlash etyudning rangdorlik qatorining qurilishiga, naturaning rang munosabatlari mutanosibligiga asoslanadi. Rang munosabatlarini aniqlanishi bir vaqtning o'zida manzara obyektlarini yaxlit taqqoslashda amalga oshiriladi. Shuning uchun plenerda ishlashdan oldin e'tiborni mavjud ko'rinishning hammasini yaxlit idrok etishga yo'naltirish muhim. Faqat shunday yaxlit ko'rish manzaraning asosiy obyektlari (osmon, yer, suv, old va uzoqdagi ko'rinishlari) orasidagi ranglar farqini aniqlashga imkoniyat tug'diradi. Manzaraning (osmon, yer, daryo va h.k) barcha obyektlarini ishlash vaqtida birdaniga yaxlit ko'rish qiyin. Manzaraning barcha obyektlarini yaxlit idrok qilish uchun ancha kengroq ko'rish maydoni talab qilinadi. Naturani yaxlit qabul qilishda yordam beradigan mashqlarga intererdag'i natyurmortni bajarish, keyin esa, ayvonda yoki ochiq deraza tokchasida turgan gullar dastasini tasvirlashni maslahat beramiz. Mashqlarni bajarishda natyurmort, interer, gullar dastasi, deraza pardasi, deraza orqasidagi shahar ko'rinishlarini ham birdaniga idrok qilib ko'rish juda muhim.



*O'quv etyudi. Manzara.*

### **Asosiy rang munosabatlarni idrok qilish va tasvirlash**

Har qanday tasvir mayda qismlardan emas, yaxlitlikdan boshlanadi. Dastlab katta umumiy shakl topiladi, keyin esa mayda bo'laklari ishlanadi. Shu munosabat bilan tasvirlash jarayoni qoidasi mavjud: umumiydan mayda bo'laklarga va yana umumlashtirishga. Manzara etyudini ishlash yaxlit asosiy munosabatlarni qurishdan manzaraning asosiy obyektlari (osmon, er, suv, old, o'rta va olisdagi ko'rinishlari bilan) orasidagi rang

farqlaridan boshlanadi. Manzaraning obyektlaridagi asosiy munosabatlarning to'g'ri olinishi keyingi rang qurilishi, mayda bo'laklarni tasvirlashda ishni osonlashtiradi. Agarda asosiy rang munosabatlari noto'g'ri topilgan bo'lsa, reflekslar va ranglardagi nozik farqlar, mayda qismlarni qanchalik sinchiklab (astoydil) bajarilmasin, mazmunli tasvir hosil bo'lmaydi.



*O'quv etyudi. Manzara.*

Plenerda boshlang'ich ishlar jarayonida kichik etyudlar (15x10sm) bajarish zarur. Qo'yilmadagi keskin kontrastlar (tusli va rangdorlik) ko'rish taassurotlari bo'yicha taqqoslanadi. Birinchi navbatda old ko'rinish munosabatlari olisdagiga nisbatan aniqlashtiriladi. Qoida bo'yicha kichik o'lchamdagи etyudlarda maydalangan qismlarni idrok etish mumkin emas. Yosh rassom naturani aynan "ko'chirmasdan", balki yaxlit rang munosabatlarida tasvirlaydi.

Tus va rang munosabatlari metodi bilan etyudni bajarish aslida naturadagi och-to'qlik, intensiv va to'q rang dog'larni aniqlashdan boshlanadi. Ular oraliqdagi tus va rang dog'larni kuchi jihatdan taqqoslanadi. Manzarada, masalan, quyosh nuri bilan yoritilgan yashil yalanglik eng yorugi va rang bo'yicha yorqin bo'lishi, to'q tusda esa old ko'rinish.

Manzaraning umumiy rang munosabatlarini topish maqsadida talaba vazifani yetarli darajada savodli uddalay olmasa qisqa vaqtli etyndlarni ko'p marta takrorlash zarur. Dastlab tasvirlash uchun uncha murakkab bo'limgan yopiq kenglikli syujetlar (masalan, qisman hovlili uyni va h.k.), obyektlar bo'lib xizmat qilishi mumkin. Keyin vazifani biroz murakkablashtirib, bir nechta ko'rinishga (old, o'rta va uzoqqa ega bo'lgan ochiq kenglikdagi manzarani) tanlash zarur. Bu etyudlarda esa e'tiborni havoyi perspektivaga,

osmon rangi, manzaraning barcha obyektlarining nozik farqlari bo'yicha och-to'qligi va to'yigan ranglarining o'zgarishlariga qaratish kerak. Ularni baravar idrok qilishda manzarani barcha ko'rinishlarini taqqoslash yo'li bilan sezish mumkin. Masalan, old ko'rinishdagi daryo qirg'og'ini ikkinchi va yiroqdagagi ko'rinishlari bilan bir vaqt o'zida osmonning suvdagi aksi bilan ham qiyoslanadi. Etyudning rangdor munosabatlari yaxlit belgilanmaguncha uning bir qismini tugatish mumkin emas. Har bir etyud 30 daqiqadan 1 soatgacha davom etadi.

### **Yoritilishning umumiy va rangli holati**

Manzara etyudida yechiladigan muhim vazifa — turli ob-havoda, kunning istagan vaqtini, yoritilgan holatini tasvirlashdir. Professional tilda bu umumiy tus va rang holatini ko'rsatish deyiladi. Xohlagan etyudning rang qatori faqat narsalarning ranglaridagi tus va rang munosabatlariaga mos bo'lmasligi kerak. Etyudning rang farqlari, albatta, naturaning yoritilgan holatini hisobga olib qurilishi zarur.

Bulutli kunda ko'katlar rangi ancha quyuq (qoramtil) va kam to'yigan bo'ladi. Qosh qorayganda hamma narsalar to'qlashadi, qizil, zarg'aldoq va sariq ranglar to'yiganligi jihatidan xiralashadi, yashil bilan zangori rang esa faollashadi. Shuning uchun bunday holatlarni hisobga olmasdan manzarani tasvirlab bo'lmaydi. Kunning istalgan vaqtida yoki turli ob-havo sharoitida tasvirlangan etyudlar, umumiy tus va rang jihatdan bir-biridan farq qilishi lozim.

"Manzarada - deydi R. Falk, - asosiysi - havoyi muhitning rangli holatidir".



*O'quv etyudi. Manzara.*

Manzara ko'rinishlarini yuqori yoki past darajada yoritilgan holatini tasvirlash uchun to'liq diapazonli och-to'q, yorqin va qoramitir bo'yoqlardan rassom har doim ham foydalana olmaydi. Ishni boshlashdan oldin rassom etyudda naturaning eng yorqin va intensiv qismlarini qanchalik yorug' va rang kuchlariga ega ekanligini aniqlaydi.



*I.Xaydarov. Hovlicha.*

Quyoshli kunda etyud bajarishda palitradagi yorqin va jozibali diapazonini to'liq ishlataladi. Kechqurin yoki bulutli kunda etyuddagi rang munosabatlari to'qroq va kam to'yingan bo'yoqlar bilan ifodalanadi. Rangtasvirchi shunday qilib tus va rang ko'lamini saqlab qoladi. Masalan, I. Haydarovning "Kichkina hovli" kartinasida ranglar nihoyatda jozibali. U asarda quyosh nurini sezdira olgan. Uning "Baxmaldagi kuz" kartinası qoramitir va quyuq bo'yoqlar bilan tasvirlangan.

Manzara etyudining yoritilishi holatini puxta o'rganish uchun bulutli, quyoshli kunda, yoz va qishda aynan bir mavzuni tasvirlash juda foydali. Qator bajarilgan etyudlarni solishtirib, manzaraning turli holatini jozibali xususiyatlarini sezish mumkin: barcha etyudlarda eng yorqin va ravshan dog'lar palitranning yorqin to'yingan bo'yoqlarida tasvirlangan.

### **Manzara obyektlarida kolorit birligi va yoritilish rangi**

Manzarani munosabatlar metodi bilan tasvirlash jarayonida yosh rassom tabiatning haqiqiy bo'yoqlarini tushunishga, ularning asl rangini umumiy tusi bilan mosligini ko'rishga birdaniga erishmaydi. Tabiatdagi

bo‘yoqlarni noto‘g‘ri tahlil etish natijasida rassom rang va tus munosabatlarini adashtirib etyudning jozibali chiqishiga erisha olmaydi. Ayniqsa tajribasiz rassom yoritilishning umumiy rangi ta’sirida tabiatdagi o‘zgargan ranglarni yaxshi sezmaydi.



*Kechqurun.*

Ertalabki quyosh barcha narsalarga va manzara obyektlariga pushti — sariq nozik rangni, kunduzgi quyosh esa — oltinsimon, kechqurungisi — to‘q sariq yoki qizil rangni baxsh etadi. Tungi oy yorug‘ligi narsalar rangini ko‘kimir yashil tomonga o‘zartiradi. Elektor chirog‘ida narsalar och-to‘q sariqni, sham esa — to‘q sariq bo‘yoqni hadya etadi. Demak, yoritilishning o‘zgaruvchan sharoitida narsalar rangi yoritilish manbai ta’sirida boladi.



*I. Haydarov. Oydin kecha.*



### *Etyud.*

Yoppasiga bulutlar quyuni bilan qoplanib yorugligi tarqatilgan osmonda narsaning shaxsiy rangi ko'proq namoyon boladi. Bulutli kunning yengil tekis yorug'ligi narsalarning shaxsiy ranglaridagi xarakter va xususiyatlarini aniqlashga imkon tug'diradi.

Manzaraning turli yoritilgan holatdagi etyudlarni bajarish uchun bulutsiz quyoshli kun, bulutli osmondag'i quyosh yorug'ligi, kunbotar vaqt, bulutli kun, qosh qoraygan paytlarni tanlash mumkin.

Bunday yoritilgan sharoitlarda mashqlarni bajara turib barcha e'tiborni tabiatdagi umumiy tus va rang holatining o'zgarishlariga qaratish lozim. Manzara etyudlarida tus va rang yaxlitligi va birligining yo'qligi, ranglarning maydalanishi, pala-partishlikka yo'l qo'yilishi ishning sifatini buzadi. Bunday etyud ifodali bo'la olmaydi va tomoshabinga nozik ta'sir etmaydi. M.A.Vrubelning "Nastarin" va I.N.Kramskoy va I.Xaydarovlarning "Oydin kecha" mavzuidagi asarlari rang jozibasi hamda asarning yaxlit topilishi bilan tomoshabinni o'ziga maftun eta oladi.

### **Manzarada mayda bo'laklarni tasvirlash**

Mazmun jihatdan ancha murakkab va uzoq davomli manzara etyudlarini ishlashga o'tishdan oldin, naturaning umumiy ranglar munosabatini tasvirlashga qisqa vaqtli etyudlarni bajarish bilan, masalan, arralangan daraxt tanasining bir bolagi yoki bir necha toshlar, osmondag'i bulutlar to'plami kabilarni ishlash zarur.

Ranglar dog'i o'z-o'zidan narsa yoki obyektning aniq shakllarisiz bezakli tasvirdan boshqa hech narsani ifodalamaydi.

"Tabiatni to'laqonli tasvirlash va uning go'zalligini ko'rsatish uchun — deydi T.Russo, — daraxtlar yerda mustahkam turishi, ularning shohlari

esa oldinga intilishi, qolgan qismi polotno ichiga kirib ketgandek tuyulishi, xuddi tomoshabin daraxtning atrofidan aylanib o'ta oladiganday tasavvur qilishi kerak. Har bir bo'yoq surtmasi shunchaki yuzaki qo'yilmasdan, har bir surtma yaxlit bo'lishi va biron-bir narsani aniq ifodalashi kerak".

Etyudda aniq obyektlarni tasvirlash ishi naturadagi manzara va muhit detallaridagi asosiy rang munosabatlarini aniqlashdan boshlanadi. Keyin esa obyekt shakli, uning hajmi va h.k. astoydil ishlab chiqiladi. Bularning hammasi yoritilishning umumiy kolorit holatini to'g'ri hisobga olib, rang bilan hal qilinadi.

Manzarani tasvirlash tabiatni sinchiklab o'rganishni talab qiladi. Har bir daraxt alohida o'zining xarakterli tuzilishiga ega.



*A.Mirsoatoev. Yong'oqzor.*

Tabiatni turli holatlarda, ko'katlar bilan butalar, har xil daraxt turlarining xarakterli xususiyatlarini rang bilan tasvirlashni o'rganish uchun naturadan juda ko'p etyudlar bajarish kerak. Manzaraning obyektlarini bo'yoqlar orqali tasvirlash bilan barobarida qalam bilan ularning murakkab shaklini chizish ham zarur.

Manzaraning alohida obyektlarini va mayda bo'lak ishlanmalariga qaratilgan mashqlarni bajarish bilan bir qatororda ochiq havoda qator natyurmortlar bajarilsa yaxshi bo'ladi. Plenerda (quyoshda, soyada va h.k.) yoritilish sharoitiga qarab natyurmortni joylashtirib, qator mashqlarni bajarish maqsadga muvofiqliqdir.


Daraxt soyasiga qo'yilgan natyurmort osmon va daraxt yaproqlari reflekslari ta'sirida o'zgacha ko'rindi.

Yashil yaproqlar va ko'k osmon — bu ikki rang natyurmortning

barcha ranglar qatorini belgilaydi. Bunday natyurmortga misol tariqasida A.A.Plastovning "Yoz" kartinasini ko'rish mumkin. Daraxt soyasida qiz bilan ayol tasvirlangan. Osmondan kumushsimon sovuq rang, soyalari esa yashilroq ranglarga ega.

Ko'pgina aks va shu'lalar mavjudligi tufayli bulutli ob-havoda yorug'-soyalar o'z kontrastligini yo'qotadi va yengil tashqi ko'rinishlari va yumshoq soyalari bilan fazoviy muhitni yaratadi.

Shakllarni modellash shunday amalga oshiriladiki, har bir narsa hajmini va materialligini umumiy yoritilish va muhit ta'siri natijasida paydo bolgan nozik ranglar bilan ko'rsatiladi.



*A.Plastov. Yoz.*



*A.Plastov. Traktorchilarning kechki ovqati.*

Bulutli ob-havoda koloritning xarakterli holatini A.A.Plastovning "O'rim" kartinasining natyurmort qismida ko'rish mumkin. Kartinadagi voqealari bulutlar bilan qoplangan tush vaqtida sodir bo'lgan. Nartyurmordagi narsalarning yorug'-soyasi bir-biridan kam farqlanadi. Kechki yoritilish holatidagi natyurmort rangtasviri misolida rassomni boshqa "Traktorchilarning kechki ovqati" asarida ko'rish mumkin. Narsalarning yoritilgan qismi qizil, to'q sariq ranglar bilan, soyalari esa quyuq to'q ranglarda tasvirlangan. Kartinada keskin ranglar gammasi o'yini tasvirlangan bolib, asar nihoyatda jozibali yaratilgan.

## **Manzarada kenglik**

Manzarali rangtasvirning keyingi bosqichida ko‘p seansli davomli etyud mashqlari bo‘lib, ilgari o‘zlashtirilgan nazariy qoidalarni eslash, amaliy ko‘nikmalarni qo‘llash hamda yangilarini o‘zlashtirish kerak.

Uzoq vaqtli etyudlarda shakllar puxta ishlanishi bilan farqlanishi kerak. Ularni bajarish vaqt 2—4 soatdan (bir seansli) bir necha o‘n soatgacha (ko‘p seansli) davom etishi mumkin. Ko‘p seansli etyud quyoshda ham, bulutli ob-havoda ham belgilangan bir vaqtda bajarilishi lozim.

Manzara mazmuni uning hayotiy mavzusi naturaning yaxlit ko‘rinishi plastik-kompozitsiya munosabatlarda ham, koloritda ham asosiy aniqlash kompozitsyaning ajralmas qismidir. Shuning uchun davomli etyud bajarish jarayonida kompozitsiya syujetini puxta o‘ylash, tahlil etish va uni tasvirlash muhimdir. Tasvirlash tekisligida obyektlar va narsalar joylashuvini mukammal tasavvur qilish zarur. Manzara obyektiga yaqinlashib yoki uzoqlashib joy xususiyatlarini o‘rganish, ko‘rish nuqtasini topish mumkin. Kompozitsiyada osmon bilan yer va boshqa obyektlar orasidagi munosabatlarni aniqlash juda ham muhimdir.

Naturadan manzara kompozitsiyasini yaratish natyurmort qo‘yilmalari uchun narsalar tanlash bilan ayrim o‘xshashlikka egadir. Etyud kompozitsiyasini yaratishda rassom chuqur fikrashi, joyni tanlay bilishi, perspektiva qoidalariga amal qilishi va fazoviy kenglikni mohirona tasvirlay olishi zarur. Manzara mavzusini tanlashda did, badiiylik va kompozitsiyani asarda maromiga yetkazib tasvirlash, rang va tus munosabatlarda ishni yaxlit yakunlay olish rassomning professional mahoratiga bog‘liq.

Ma’lumki, narsalar katta masofada hajmliligini, relefligini yo‘qotib siluetli tekislik xarakteriga ega boladi. Old ko‘rinishdagi narsalar ancha hajmli, soya-yorugi kontrast bo‘lib ko‘rinadi. Yaqinda joylashgan yashil dala masofa uzoqlashgan sari yashil rangdor bo‘yogi asta-sekin moviyga o‘tadi. Olisdagi to‘q narsalar ochroq va ko‘kimtir bolib ko‘rinadi. Quyosh nurida bulutlar va uzoqdagi qorli tog‘ cho‘qqilari ham qizil to‘q-sariq ranglarga kiradi.

Tuman, chang yoki tutun bilan to‘yingan fazoda narsalarning siluet aniqligi pasayadi. Toza havoda masofadagi shaklning aniq tashqi ko‘rinishining ozigina o‘zgaradi.

Old ko‘rinishlarni tasvirlashda narsalarning shaxsiy ranglari uzoqdagilarda esa — shartli rang muhim o‘rinni egallaydi. Havoyi muhitda shartli ranglar narsalarni uzoqlashtiradi va aksincha, shaxsiy narsalarning rangi ulami xuddi old ko‘rinishga olib kelayotganday tuyuladi. Ish

jarayonida old ko'rinishga biron-bir narsani "yaqinlashtirish" zaruriyati bo'lsa uncha lokallik (narsa) mohiyatini rangga qaratish lozim. Etyudning qandaydir qismini "uzoqlashtirish" zaruriyati tug'ilsa unda shartli ranglarni qo'llash kifoya.

Fazoviy sifatlarni aniqlashda zarur mashqlar bo'lib mavzuli manzarani ochiq fazoviy olislari bilan tasvirlash, masalan, tog'lardagi ko'p ko'rinishli dara yoki egri-bugri ariqli vodiy va old ko'rinishda daraxtli o'rmon va bir necha daraxtlar ko'rinishi bilan o'tloq (ko'kalamzor) xizmat qiladi.

Uzoq ko'rinishdagi och-to'qligi va rang tusini to'g'ri aniqlash uchun hammasini yaxlit ko'rib mayda qismlarga e'tibor bermasdan qarash muhimdir. Faqat shundagina old, o'rta va olis ko'rinishdagi rang farqlarini to'g'ri aniqlab tasvirlash mumkin.



Z.Inogomov. Choyga.

"Havoni tasvirlashda, — deydi A.A.Deyneka — ayniqsa, old ko'rinishni uzoqdagiga nisbatan munosabatlarini aniqlab va to'g'ri yetkazilishi muhimdir, shundagina rangtasvir o'z yechimini topadi, asarda havoyi muhit holatini to'g'ri tasvirlashga erishiladi".

Plener rangtasvirining boshlang'ich ta'lim bosqichida qisqa vaqtli va uzoq davomli etyudlar bajariladi.

Keyinchalik esa manzara etyndlari ishlash jarayonida tabiatning nozik holatini tasvirlashga harakat qilish zarur.

Tasvirlash mobaynida rassom tabiatning nozik o'zgarishlarini kuzatar ekan, o'z hissiyotini bo'lajak asarda ko'rsatishga harakat qiladi.

Demak, naturada asosiy rang dog'larni umumiy va katta rang munosabatlarini to'g'ri topish va mohirona tasvirlay olish rangtasvirning muhim asosidir. Shular asosida manzara obyektlarining mayda bo'laklarining nozik farqlanishlari amalga oshiriladi. Tabiat bo'yoglari

haddan tashqari rang-barang. O't-o'lanlar, ko'kat va daraxtlar yashil rangda. Lekin tabiatdagi bu ranglar turli-tuman tuslarga ega. O'tloqda o'sayotgan maysalar, kuzgi bug'doy ekinlari, sabzavotlar, daraxtlarning har xil turlari — hammasi ham o'ziga xos yashil rangdagi tusga ega. Tabiat o'ta nozik, ana shu o'ziga xos xususiyatlarni manzara etyudida tasvirlay bilish rassomdan juda katta bilim, malaka va tinmay izlanishni talab etadi.

### AMALIY MASLAHATLAR:

Etyud bajarish vaqtida rassom yorqin ranglarda kiyigan bo'lsa palitra va kartina tekisligiga kuchli reflekslar tushishi aniq. Kuchli quyoshli yoritilishda bu ranglar, reflekslar palitradagi bo'yoqlarni to'g'ri qabul qilishni qiyinlashtiradi va etyudning rangli gammasini o'zgartirib yuboradi. Bunday holatda etyud kiyim rangiga qo'shimcha umumiy rangni orttiradi va albatta, naturani haqqoniylashtiradi. Shu sababli etyudlarni daraxt soyasi yoki devor yonida tasvirlash mumkin emas, chunki palitraga, qog'oz yoki matoga osmonning ko'kimtir yoki daraxt yaproqlaridan yashil ranglar tushib ishni o'zgartirib yuboradi. Quyoshli kunda etyudni soyabon tagida bajarish lozim. Mato va palitraga quyosh nurlari tushmasligi kerak.

Oq nur bilan yoritilgan qizil buyum quyosh nurining qisqa to'lqinli qismini o'ziga yutadi, o'zi aks ettirgan qizil rangga tegishli to'lqinlar bundan mustasno. Qizil yorug'lik bilan yoritilgan qizil buyum, intensiv qizil bo'lib qabul qilinadi. Bu narsa qizildan tashqari, boshg'a rang bilan yoritsa, xira zarg'aldoq, jigarrang yoki qoramtilar bo'lib qabul qilinadi.

Kumushsimon rangdagi manzarani (ayniqsa zangori rangdagini) sovuq tusdagi yoritilishda namoyish qilish mumkin. Impressionistlarning nozik zangori ranglari bunday yoritilishda ancha to'qroq va neytral bo'lib ko'rindi.

Etyudda rang va tus munosabatlari masalasini aniqlashda tayanch bo'lib xizmat g'iluvchi dastlabki moybo'yoq variantlari yoki akvarel bo'yoqlari aralashmasi yordam berishi mumkin.

Manzaraning asosiy obyektlariga ma'lum tus va rang munosabatlari mos bo'yoqlar aralashmasi palitrada tayyorlab olinadi. Bu esa o'z navbatida etyudda umumiy yaxlit koloritning oson topilishiga zamin hozirlaydi.

N.N.Volkov naturadan katta o'lchamdagagi qog'ozga etyudni akvarel bo'yoqlari bilan bajarish tajribasini quyidagicha yozadi: "Men tutunsimon sariq uzuq-yuluq osmonni va quyuq to'q yashil suvni tasvirladim. Asosiy masala uchta rangni tanlab olish: suv, narsalar va osmon. Tanlov kuchli uchlikni yaratса-yutuq. Tanlangan uchlikka bo'yoqlarni kosachalarda

g‘amlash kerak. Bo‘yoqni biroz ko‘proq tayyorlash zarar qilmaydi. Chunki qayta tayyorlangan bo‘yoq xuddi o‘ziday bo‘lmaydi”.



*A. Mirsoatov. Xodjikent.*

E.Repinning o‘quvchisi M.N.Toidze ustozining libossiz qiyofasi etyudini ishlashi haqida o‘zining xotiralarida shunday yozadi: ”U bordaniga asosiy to‘q tusda ishni boshlardi: “Bo‘yoq bilan emas, balki gavdani “dog‘chalar” bilan tasvirlash zarur deb uqtirardi”. Uning palitrasida o‘rtacha quyuqlikdagi asosiy qorishma yarim tus bo‘lardi. Zaruriyat tug‘ilishi bilan unga goh qizilni, goh boshqa bo‘yoqlarni aralashtirib ishni davom ettirar edi”.

K.A.Korovin ham asosiy ranglarni palitrada oldindan aralashtirib so‘ng ularni matoga o‘tkazardi. ”Ishni eng toza to‘q joylaridan boshlashni yahshi ko‘raman”, — derdi u. Bu esa ishchida oq rangni ko‘p ishlatishga yo‘l qo‘ymaydi. Korovin ustaxonasida o‘quvchilari baxmal matoda yalang‘och modelni tasvirlash mashg‘ulotlarida qatnashgan B.V.Ioganson shunday eslaydi: ”Palitrada qora bahmal tusini qoraroq qilib tayyorlagan: toza holatda Berlin lazuri, to‘q kraplak va hind sariq bo‘yog‘iga o‘xhash tiniq bo‘yoq lok ular tarkibiga kiradi. Keyin esa palitrani o‘zida u qora barxatni atrofидagi barcha tuslarni topayotib turli materialning soyadagi qismlarini va sochning soya bo‘lagini topganki u kamerton kabi rang palitrasida jamlangan...”.

Pedagogika oliy o‘quv yurtlaririning kasb ta‘limi (san‘at) fakultetlarida odam tasvirini o‘rganish eng asosiy vazifalardan biridir. Murakkab ijodiy asarlar yaratishda odam gavdasi va portretini to‘g‘ri chiza

bilish juda muhimdir. Jumladan: qiyofani konstruktiv qurish, harakat va xarakterni topa bilish, ifodalay olish. Talaba bu shartlarni to'liq bajara olmas ekan, inson ichki psixologik holatini ochib bera olmaydi.



*A.Abdullayev. Buvi va nevara.*

Odam boshi va gavda rangtasvirini mukammal ishlash nazariy hamda amaliy bilimlarni chuqur o'rganish natijasida hosil bo'ladi. Ma'lum bir muhitda odam qiyofasining anatomik tuzilishini perspektivada to'g'ri tasvirlash hamda tus va rangda aniq ifodalash uchun rassomdan katta tajriba talab etiladi. Misol tariqasida A.Abdullayevning "Buvi va nevara" asari.

Inson rangtasvirini tasvirlashda ham tasviriy san'atning boshqa janrlaridagi kabi jarayon talab etiladi. Ya'ni, shakl konstruksiyasi nisbatlarni aniqlash, xarakter topish, rangda va tusda ifodalashdir.

Odam boshini tasvirlashda uning anatomiyasini chuqur tahlil etib, ichki psixologik holatini ko'rsata bilish, rangda va tusda yaxlit holatda yakunlash vazifasi yuklatiladi. Talaba inson tanasini tasvirlashda uning rang xarakteristikasi hamda atrof- muhit bilan yoritilish holatlarini haqqoniy aks ettirishi muhimdir.

Endigina inson boshi va qomatini tasvirlayotgan yosh rassom nisbatlarni aniq olishi kerak. Shundagina u ko'zlangan maqsadga erisha oladi.

Odam boshi va gavda rangtasvirini o'rganish jarayonini quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

- Inson boshini grizayl texnikasida tasvirlash;
- Tabiiy yorug'likda bosh rangtasvirini ishlash;
- Sun'iy yorug'likda rangtasvir ishlash;
- Inson boshi rangtasvirini plenerda ishlash.

## **ODAM BOSHI RANGTASVIRINI TUSDA ISHLASH (GRIZAYL)**

Realistik rangtasvir qo'yilmasida tus munosabatlarini to'g'ri topa bilish asosiy vazifalardan biridir. Rangtasvirda tus va rang munosabatlarining o'zaro birligi naturani haqqoniy ifodalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Odam boshini grizayl texnikasida mukammal ishlay bilish, rangtasvirda muvaffaqiyatli ishlash garovidir.

*MASHQ. Och va to'q fonda odam boshini ifodalash.*

Bu mashqning asosiy maqsadi yirik tus munosabatlarini to'g'ri topa bilish (fon va naturaning o'zaro bog'liqligiga urg'u bergen holda) dan iborat.

Mashqni bajarish uchun naturaga to'g'ridan yorug'lik tushgani ma'qul. Shunday qilinganda qo'yilmada yorug'-soyalarning keskin holati bo'lmaydi. Fon boshga nisbatan ba'zan och, ba'zan to'q bolishi mumkin.

Bu mashg'ulotning asosiy metodik ahamiyati shundaki, bosh va fondagi yirik tus munosabatlarini aniqlashga qaratilgan.

Odatda talabalar fonni alohida yozishadi, buning natijasida ishni tus jihatdan qaralganda tasvirda yaxlitlikka erishib bo'lmaydi. Naturani ko'r-ko'rona ko'chirish muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. Shuning uchun tasvirlashda to'g'ri yo'lni tanlash, metodik ketma-ketlikda ishni davom ettirish muhimdir.

Bu kabi mashg'ulotlar tasviriy san'at sir-asrorlarini puxta o'rganishda muhim va zarur bosqichdir. Ma'lumki, portret ustida ish olib boray otgan mutaxassis rassom dastlab modelning siluetini fonga nisbatan topib, so'ngra mayda detallarga ishlov beradi hamda refleks, yarim soya, soyalarni ko'rsatadi. Shuning uchun tasvirlashda yirik tus munosabatlarini ko'rish va to'g'ri ifodalash hamda mayda detallarga o'tish kerak.

Grizayl ishlashda ko'proq jigarrang, qora, ultramarin va oq bo'yoqlardan foydalangan ma'qul.

*MASHQ. Odam boshini yon tarafdan yoritilgan holatdagi ranglavhasini ishlash.*

Bu mashg'ulotda quyidagi maqsad ko'zda tutiladi: boshning yorug' va soya qismlaridagi tus munosabatlarini (fanning ham) hamda bosh shaklini tusda tasvirlash.




Bu mashqni bajarish uchun anatomiq qurilmasi aniq model tanlanadi. U shunday qo'yilishi kerakki, kuchli yorug'-soya kontrasti vujudga kelsin. Boshning yorug' va soya qismlaridagi tus munosabati fon bilan birgalikda yaqqol ko'rinishi kerak. Fon sifatida kulrang mato tanlanib, boshning yorug' tarafidan, to'q, soya tarafidan esa och bo'lib ko'ringani ma'qul. Soya tomonda shakl aniqligiga erishish uchun yoruglik qaytaruvchi tekislikdan foydalanish mumkin. Aynan shunday sharoitda yuzning soya qismida anatomiq chiziqlarni aniq ko'rish mumkin.

Bu mashqni bajarishda talabalar biroz qiyinchilikka uchraydi. Talabalar modelni yaxlit qabul qilishni o'rganmay turib, mayda detallarga berilib ketishadi. Yirik shakl yo'qotib qo'yilgach naturani fonga bog'lay olishmaydi. Naturani yaxlit qabul eta olmagan bu bosqichda talabadan maksimal diqqat e'tibor talab etiladi.

Mashqlar jarayonida yuz ajinlari, ko'z kipriklardan umumiyligi mayda detallardan ongli ravishda voz kechish kerak. Yirik tus, shakl munosabatlarini to'g'ri topish portret rangtasvirini o'zlashtirishga keng yo'l ochib beradi.

Talaba bu mashqlarni bajarish jarayonida boshning har bir bo'lagini tusda bir-biridan farqini, yorug'-soya xarakterini o'rgana borishi kerak. Yuz bo'laklari, ko'z-olmasi, burunning oldi, yon tomonlari, yonoqqa ishlov berayotganda katta shaklni hisobga olgan holda, juda maydalashtirib yubormasdan ishlash zarur.



### *N.Bloxin. Etyud.*

Topshiriqning muvaffaqiyatli chiqishiga qo'yilmani to'g'ri yaxlit ko'rishga erishish bilan etishish mumkin.

Bosh shakliga ishlov berish soya qismidan boshlanadi. Soya yaxlit. katta shaklni ajratib, tus munosabatida kamerton vazifasini ham o'taydi. Soyadan keyin fon yechimi hal etiladi.

Talabalar ko'pincha fonga unchalik e'tibor berishmaydi. Boshni ishlab bo'lishgach, fonni bo'yab qo'ya qolishadi. Natijada yirik shakllar, shuningdek bosh bo'laklari munosabatida xatolikka yo'l qo'yiladi. Boshning soya va fon munosabatlari topilgach yoritilgan qismi ishlana boshlanadi. Tasvirlashning bu bosqichida boshning kontur chizig'i fonda qanday xarakterda bo'lishiga ko'proq e'tibor berish talab etiladi. Odatda talabalar boshning yoritilgan qismi fonini to'qroq, soya qismini ochroq olishga harakat qilishadi. Model kontrast yoritilgan bo'lmasa, boshning yorug' qismi konturi fonga nisbatan bir oz to'qroq bo'ladi, shuningdek soya qismi fonga nisbatan reflekslar yordamida yorug' chiziqqa ega bo'ladi.

Boshning shunday yoritilishi refleks chiziq konturi yordamida fondan ajratib olishga yordam beradi.



*G.Golbeyn. Ambrozius va Gans rassom o'g'illari.*

Boshning soya qismi fonga nisbatan belgilab olingach, uning konstruksiyasi, xarakteriga e'tiborni kuchaytirib katta shaklni aniqlashga o'tiladi. Shaklni bir qancha tekisliklardan tashkil topgan hajm deb tushunish kerak. Mana shu har bir mayda tekislik o'z tusiga ega. Hajmlli shaklni ifodalash uchun tekisliklar chegarasini silliqlash shart emas. Har bir tekislikni bo'laklarga bo'lib ishlov berish maqsadga muvofiqlir. Yuz bo'laklari — ko'z, burun, lab va hokazolar — dastlab yirik tekisliklarda yaxlit shaklda tasvirlanib, so'ngra tus munosabatlari hal etiladi.

Bu mashqni bajarishda peshona, burun kabi yuz bo'laklarining tus xarakteristikasiga e'tibor kuchaytiriladi. Yuzning pastki qismi, ya'ni yonoq suyaklaridan boshlab nur o'tkir burchak ostida tushadi. Shuning uchun yuzning bu qismi kam yoritiladi.

Katta tekislikda shakl munosabatlarini astoydil mashq qilgach, grizayl

texnikasida mayda detallarga ishlov berishni ko'rish kerak. Bunda bosh siluetida xarakterli detallarga ahamiyat bergen holda maydalab ishlov beriladi.

Masalan, rassom Golbeyn portretlariga e'tibor bersak, portretning eng xarakterli joylariga katta e'tibor berib tasvirlagan.

Masalan, og'ir osilib turgan jag' yoki ko'zlarining juda keng joylashishi, ba'zi portretlarda esa burunning kattaligi bilan xarakter bera olgan.

***MASHQ. Anatomiq tuzilishi aniq bo'lgan qiyofali boshning ranglavhasi.*** Ushbu natura kontrast yorug'likda qo'yiladi (deraza yoki eshik yonida).

Bu mashg'ulot uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lib, boshning rang va tus yechimini hal etuvchi yakuniy bosqichdir.

Mashq quyidagi tartibda ishlanadi:

- Bosh va kiyimning fonga nisbatan yorug' va soya joylaridagi yirik munosabatlarni aniqlash.

- Shakldagi mayda bo'laklarga ishlov berish.

- Tasviri tus va konstruktiv yaxlitlikda umumlashtirish.

Birinchi topshiriqning yechimi talabalar uchun ancha tanish. Asosiy kuchni 2—3 topshiriqlarga qaratgan holda berilgan mashq astoydil bajariladi. Mayda bo'laklarga puxta ishlov bergach, ishni yaxlit yechimga olib kelmay turib, portret xarakterini to'laqonli yoritib bo'lmaydi.

Boshning umumiylar konstruksiyasi va bo'laklarining katta tus munosabatlari topilgach, ko'z, burun, qulqoq kabi mayda bo'laklarga puxta ishlov beriladi. Masalan, ko'zni tasvirlashda ko'z olmasi, qovoq, qorachiqqa yorug'-soya berish orqali hajmli ifodalananadi. Ko'zning shakli mayda-mayda tekisliklardan iborat. Ko'zni ishlaganda uzun chiziqlar orqali emas, balki bir necha planda turgan tekisliklar orqali topamiz. Rasm chizishni o'rganayotgan talaba chiziq orqali qovoq. kiprik, qoshni ko'rsatishga urinib katta kamchilikka yo'l qo'yadi. Yuzning boshqa bo'laklarida ham shunday urinishni kuzatishimiz mumkin.

Yorug'-soya munosabatlarda ham talabalar jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yadilar. Chunki ularga har birini "alohida ko'rish" sabab bo'ladi. Shuning uchun tasvirlashda tez-tez taqqoslash, naturani yaxlit ko'rishni o'rganish lozim. Yaxlitlash ishning yakuniy bosqichi hisoblanadi.



Ishning so'nggi bosqichida naturaga yaxlit qarash kerak. Naturada qaysi bo'lak ko'zga yaqqol ko'rinishib, qaysi bo'lagi fon bilan birlashib ketayotganini yana bir karra ko'zdan kechiriladi. Boshni shu tarzda yaxlit qarash bilan tekshirib ko'rilib. Nihoyat, tasvirning ba'zi joylarini kuchaytirib, ayrim joylarini susaytirib yoki umumlashtirib soyadagi shaklni soyaga, yorug'likdagi shaklni yorug'ga bo'ysundirgan holda eng yorug' va eng to'q joylarini belgilash zarur.



Naturaning yorug'-soya tomonlarida, fonda bir xil tus takrorlanmasligi kerak. Bosh shakli puxta qurilgach, uning xarakteri, harakati topiladi. Boshning yuz qismi kompozitsion markaz deb olinadi. Unga barcha boshqa bo'laklar bo'ysundiriladi. Bu so'nggi yaxlitlash

bosqichi edi. P.P.Chistyakovning shunday fikri bor: "Ko'zlar va ko'z qorachiqlarini astoydil, boshqa yuz bo'laklarini esa erkinroq ishlang, burun va lab bo'laklariga e'tiborni susaytirmang". Bu usul belgacha bo'lgan portret tasvirida ham qo'l keladi. Ya'ni asosiy e'tibor bosh tasviriga qaratiladi. Kiyimlarni erkinroq, qo'llarga katta e'tibor berib ishlash, asosiy diqqat kompozitsiya markazi hisoblangan bosh tasviriga bo'yundiriladi.

Bu mashg'ulotlarning uchallasini ham talabalar mukammal o'zlashtirib olgunlaricha tasvirlayverish mumkin.

Agar talaba bosh shakl konstruksiyasini tusda ifodalash malakasiga erisha olmasa, u zarur rangni kerakli joyda qo'llay olmaydi.

### **Boshning rangtasviri (tabiiy yorug'likda)**

Rangtasvir ham grizaylga o'xhash munosabatlар asosida ishlanadi. Rangtasvirda nafaqat tus, balki rang farqlari ham mukammal ko'rsatiladi.

Agar portretda rang munosabatlari to'g'ri olingan bo'lsa, odamning yuz, ko'z va boshqa xarakterlarini topish ancha oson bo'ladi.

Qalamtasvir qurilishida asosiy shaklning nisbatlarini topamiz. Tasvirlashning asosiy qoidasi mavjud: umumiydan mayda bo'laklarga qarab ishlab borishdir. Rangtasvirda ham xuddi shu qoidaga asosan matoda muhim yirik rang munosabatlari topiladi. Mashhur rassomlarning ijodiy ishlarini kuzatganimizda mahobatli suratlar ham o'z rangtasvir jozibasini yo'qotmaganini ko'ramiz. Sinchiklab kuzatsak, aynan to'g'ri olingan rang munosabatlari bunga misol bo'la oladi.



*Bola portreti.*

Bosh rangtasvirining dastlabki mashqlarida yaxlit rang munosabatlarini to'g'ri topish ma'qul. Shu maqsadda 1-2 soatga

mo'ljallangan qisqa muddatli etyud ishlanadi. Bu ishlar yechimi yirik rang munosabatlari: bosh shaklining fonga nisbatan to'g'ri olinishi bilan belgilanadi. Mayda bo'laklarga ishlov berilmaydi. Bunday qisqa muddatli etyndlarni portret yoki odam gavdasini tasvirlash oldidan mashq qilib ko'rish tavsiya etiladi.

### *MASHQ. Individual va ranglarning turli tavsifiga ega bo'lgan qiyofachilar boshlarining ranglavhalari.*

Turli individual rang xarakteriga ega bo'lgan 2—3 model yonma-yon kulrang mato fonda qo'yiladi. Bu narsa turli modellarning rang farqini solishtirish imkoniyatini beradi.

Mashqning vazifasi boshning yaxlit shakli, rangini fonga nisbatan bajarish bilan cheklandi. Yuz qismining har-bir bo'lagi o'z rang tavsifiga ega. Masalan, peshonaning chekka qismlari rang jihatidan birmuncha sovuqtus, bo'yin qismi esa yuzga nisbatan qizg'ish bo'ladi. Tus jihatidan ham bu farqlar turlicha.

Bu mashqni bajarishdan maqsad rang farqlarini puxta o'rganish ekanligini yoddan chiqarmasligimiz kerak. Turli odamlarning bosh etyudi ishlaganda rang munosabatlarini to'g'ri topish, faqat tus emas, balki rang jihatdan to'yinganligini ham inobatga olish zarur. Rangtasvirning haqqoniy chiqishi mana shu uchala solishtirish natijasiga bevosita bog'liq.



*O'quv portretlari.*

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, yosh rassom rang to'yinganligini to'g'ri farqlay olmaydi. Oq bo'yoqni keragidan ortiq yoki xira ranglarni ko'p ishlatadilar. Burunni qizartirib, chekka qismlarini deyarli aniq ishlay olmaydilar. Ya'ni ranglar juda bo'rttirib yuboriladi.

Bosh rangtasviri faqat rang xususiyati bilangina emas, yoritilish kuchi bilan ham xarakterlidir. Shuning uchun keyingi mashg'ulotimiz naturaning

yoritilishiga qarab, ranglarning o‘zgarish xususiyatiga qaratiladi.

### ***MASHQ. Yon tomondan kontrast yoritilgan bosh etyudi.***

Anatomik qurilmasi aniq bo‘lgan qiyofa deraza yaqiniga qo‘yiladi. Boshning soya qismi qo‘srimcha issiq tusli tekislik aksi bilan yoritiladi. Diqqat rang va tusning yoritilish muhitiga qaratiladi.

Bu qo‘yilma orqali kontrast yorug‘likda tus va rang xususiyatlarini chuqr tahlil qilish mumkin. Osmon rangi, ayniqsa, boshning to‘g‘ri burchak ostida yoritilib turgan qismlarida yaqqol bilinadi.

Boshning soya qismi atrof-muhitga qarab iliq tusli bo‘ladi. Yuqorida shift, pastdan pol, yon tarafdan esa devordagi reflekslar o‘rab turadi. Reflekslar yordamida soyaning shaklini aniq ko‘rish mumkin.



Naturaning derazaga yaqinroq qismida yorug‘ va soya o‘yini keskin bo‘ladi. Agar xona, atrof-muhit yorug‘ (och) rangda bo‘lsa, keskinlik kuchi kamayishi mumkin, aksincha to‘q bo‘lsa, konstrastlik tobora kuchayadi.

Ataylab qo‘yilgan issiq tusli, tekislikdan tushgan refleks soya qismini qo‘srimcha yoritadi va yaxlitlik beradi. Bu qo‘srimcha yoritilish talabalarning soya qismini keragidan ortiq to‘q qilib yuborishidan saqlaydi hamda shakl hajmini aniq chiqarishga yordam beradi.

Eslatib o‘tamiz, talabalar uchun naturaning soya qismidagi tana rangini topish juda murakkab bo‘ladi.

### ***MASHQ. To‘g‘ridan yoritilgan boshning ranglavhasi.***

Bosh shaklini siluet ko‘rinishiga ega bo‘lishini mo‘ljallab fon tanlanadi. Oq yuzli odamga to‘q fon, qoramag‘iz odamga esa och fon tanlanadi. Ishning boshlanishida boshning fonga nisbatan rang va tus munosabatlarini siluetda topib olinadi.

Bu mashq birmuncha murakkab, chunki to'g'ridan yoritilgan boshning soya qismi kam bo'ladi. Natijada shakl ifodasini berish qiyinlashadi. Shuning uchun, ish yo'nalishi shaklning rang va tusdagi umumiyl ifodasiga qaratiladi.



*Bosh etyudi.*

Ishning muvaffaqiyati talabalarning sinchkov ko'ra bilishi, rang va tus munosabatlarini ongli his etib, alohida mayda bo'laklarga puxta ishlov berish, ishni yaxlit tusda yakunlay olishiga bog'liq.

#### *MASHQ. Yorug'likka qarshi qo'yilgan boshning ranglavhasi.*

Yorug'likka qarshi qo'yilgan natura tasvirini ishslash birmuncha murakkabdir. Bunda boshning rangi birmuncha o'zgarib, to'q siluet bo'lib ko'rindi. Bu qo'yilmani tasvirlashda talabalarning asosiy kamchiligi boshni qoraytirib yuborishidir.

Boshning soya qismidagi rang va tus refleks kuchi orqali aniqlanadi. Yorug'lik qanchalik kuchli bo'lsa, ranglar shunchalik to'yingan bo'lib, refleksni yanada kuchaytiradi. Boshning shakli yanada yaqqol ko'rindi. Biroq, yorug'lik kuchi susayganda rang to'yinganligi pasayib reflekslar xiralashadi. Odadta boshning soya qismi intererdag'i reflekslar ta'sirida iliq tusli bo'ladi. Boshning yoritilgan qismlaridagi umumiyl rang ham o'zgaradi. Derazadan tushib turgan yorug'lik soch va yuz qismlarini sovuq och tusda ko'rsatadi.

Bunday yoritilgan qo'yilmani ishslash jarayonida talabalar ko'pincha soya qismidagi reflekslarni kuchaytirib yuborishadi.

Talaba unutmasligi kerakki, boshning soya qismi bilinar-bilinmas reflekslar yordamida shakllanadi. Faqat shundagina modelni to'g'ri va yaxlit ifodalash mumkin.



*V. Serov. Qizcha va shaftolilar.*

Xuddi shu holatda yaratilgan mashhur rassom V.Serovning "Qizcha va shaftolilar" asarini yorqin misol qilib keltirish mumkin. Unda bosh, gavda siluet ko'rinsada yuz qismi reflekslar ta'sirida mohirona tasvirlangan.

Tabiiy yorug'likda yirik munosabatlar bilan shakl hajmini to'g'ri ishlashni o'rganib bo'lgach, uzoq muddatli seanslarga o'tish mumkin. Unda esa bosh tasviri puxta o'rganilgan holda uning rangli va obrazli xarakterini ifodalashga o'tiladi.

***MASHQ. Kontrast yoritilgan aniq anatomik ifodalangan ayol boshining ranglavhasi.***

Uzoq muddatli qo'yilma ustida ishlash jarayonining har bir bosqichida aniq vazifalar yechimi talab etiladi.

Birinchi bosqichda dastlabki taassurotni yo'qtomagan holda butun e'tiborni rang yechimi va yirik shakl ifodasiga qaratilib, eskiz ranglavha ishlanadi. Natura matoda kompozitsion jihatdan to'g'ri joylashtirilib qalamtasviri ishlangach, uning umumiy rang holati topiladi.

Uzoq muddatli qo'yilmani ishlashda, avvalo suyuq rangqoplama berish bilan boshlanadi. U akvarelga o'xshab suyuq berilib, butun mato yuzasi qoplanadi. Toza matoga qo'yilgan quyuq surtmadan ko'ra, suyuq rang-qoplama ustidan berilgan ishlov ancha puxta bo'ladi. Suyuq rangqoplamani boshning soya qismidan boshlab berish tavsiya etiladi. Yuzning soya qismi, soch va fon rangning bor kuchi bilan olinishi mumkin. Mayda bo'laklarni ishlashda doim yaxlit bir butunlikni yoddan chiqarmaslik zarur.



Ikkinchı bosqichda esa naturani maydalab ishlashga o'tiladi, ammo umumiy tusni yo'qtotib qo'yish kerak emas.

Uchinehi bosqichda ishni yaxlitlash, tasvirni butun bir ko'rinishga olib kelish ishlari olib boriladi. Buning uchun maydalab ishlangan natura bo'laklari yana umumlashtiriladi. Alovida xarakterli joylarini bo'rttirib, ikkinchi darajali bo'laklarni esa xiraroq qilib ishlanadi.




### *Bosqichli tasvirlash.*

Ma'lum vazifani o'z oldiga qo'ygan qo'yilmalar turlicha yoritilgan (yon, old va orqadan) holatda ishlab ko'rildi. Ishni bajarish jarayoni xuddi shunday qolaveradi: kichik ranglavha, qalamtasvir, suyuq rang-qoplama va boshning yirik shakl ifodasi, bolaklarni maydalab ishlash va nihoyat, tasvirni yaxlit ifodaga olib kelib, yagona rang yechimiga erishiladi.

### *MASHQ. Naturani beligacha ishlash.*

Odam tuzilishining anatomik qurilmasini o'rganish maqsadida (ya'ni bo'yin qurilmasi, ko'krak mushaklari, bo'yin chuqurchasi) natura belgacha yalong'ochlanadi. Anatomik tuzilishi aniq bo'lgan model devordan biroz uzoqroq, shakl ifodasi yaqqol ko'rindigan qilib, tabiiy yorug'likda qo'yiladi. Naturani masofada to'g'ri tasvirlash ikkinchi vazifa deb belgilanadi. Talaba bu topshiriqni bajarishda interer muhitida rang va tus holatini aniqlashga o'rganadi.



*O'quv topshiriq.*

Bu mashg'ulotda, asosan yuzning oftobda qoraygan va mudom kiyim bilan yopiq turgan tananing rang va tus munosabatiga diqqat jalb etiladi.

Ko'krak mushaklari bosh va yelka qismning qanday bog'lanib turishini aniqlab beradi. Shuning uchun asosiy diqqatni anatomik qurilmaga qaratish maqsadga muvofiqdir.

### **Sun'iy yoritilgan boshning rangtasviri**

Tajribasiz rassom kechki elektor nurida naturadan ishlasa, (natyurmort yoki portret) uning rang koloriti xuddi kunduzgi yorug'likda ishlanganga o'xshab turadi.

Sun'iy yoritilgan naturani ishlashda eng muhimi rang koloritini aniqlash muhimdir. Mohir rassom ikkala holatda ham (tabiiy va sun'iy yoritilish) o'ta sezgirlik bilan naturani rang va tus holatini aniq ilg'ab tasvirlay oladi. Tajribasiz rassom har bir predmetning o'z rangini alohida ko'rib, faqat shunga tayangan holda rang ishlatadi. U naturaning rang va tus holatlarini topishda qator xatoliklarga yo'l qo'yadi. Bunday xatoliklarga yo'l qo'ymaslik uchun bir qancha mashqlarni astoydil bajarish kerak. Shundagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.



*N.Bloxin. Milliy musiqa.*

### ***MASHQ. Boshning soya tarafdan sun'iy yoritilgan ranglavhasi.***



Mashqning asosiy maqsadi — ikki xil yoritilgan holatda naturadagi rangning shaxsiy va shakl qurilmasining xarakterli o'zgarishlarini o'rGANISHdan iboratdir.

Naturaning yorug' tarafi tabiiy yorug'lik bilan, soya qismi esa elektor lampochkada (40—60 vt) yoritiladi.

Sun'iy sariq rangda yoritilgan yuzning soya qismi tabiiy yoritilgan sovuq tusli rang bilan issiq-sovuqlik kontrastini kuchaytiradi. Bunday holatda odatiy ko'rish ko'nikmasi susayadi va talabalar issiq-sovuq yoritilgan naturaning asl rang xususiyatini yaxshiroq ilg'ashadi.

### ***MASHQ. Suni'iy yoritilgan boshning ranglavhasi.***

Mashqni bajarishda rang o'zgarishlarini ifodalash birmuncha qiyinehiliklar tug'diradi. Kechki elektor nuri sarg'ish-zarg'aldoq rangli bo'lib, butun xona muhitini o'z rangiga bo'ysundiradi. Ayniqsa, yorug'lik yo'naltirilgan naturaga kuchliroq ta'sir etadi. Elektor nurida oq vaza yoki gips bosh go'yoq bo'lib ko'rindi. Haqiqatda esa sarg'ish-zarg'aldoq rang o'z ta'sirini o'tkazib turadi. Ularni oq bo'yoq bilan ishlab bo'lmaydi. Tajribali rassom, albatta, oq bo'yoq o'rnida zarg'aldoq-sariq bo'yoqni ishlataadi.



### *Portret. Etyud.*

Vaziyatni yaxshiroq tushunish uchun bu mashqni boshqacharoq sharoitda takrorlab ko'rish mumkin. Natura elektor yoritgichda yoritilib boshqa xonada, rassom esa tabiiy yorug'likda o'zga xonadan tasvirlab ko'radi.

Bunday sharoitda ko'rish ko'nikmasi elektor yoritgichda aldanmaydi, naturani issiq koloritda oson yozish mumkin.

Qisqa muddatli sun'iy yoritilgan naturani astoydil ishlashdan so'ng, uzoq muddatli natura ustida ishlab ko'riladi. Bunday tasvirlash natijasida mayda bo'laklarga puxta ishlov berilgach, ish yaxlit bir butun holatda yakunlanadi.

### **PLENER SHAROITIDA BOSHNING RANGTASVIRI**

Bu rangtasvir qo'yilmasi ham o'ziga xos xususiyatga ega. Quyoshda yoritilgan natura rangini to'g'ri olishda palitradagi bo'yoqlar bor kuchida ishlatiladi. Quyoshda yoritilgan obyektni, xona sharoiti kabi holatidek bor kuchida ifodalash biroz qiyin. Biron ta rang yoki tusni aynan o'zidek olish mumkin emas. Masalan, osmon rangi va tusini tasvirlashda xuddi o'zidek rangini topish mushkul. Faqatgina o'zaro rang — tus munosabatlarni saqlagan holda asliga yaqinlashtirish mumkin. xolos.



Plener sharoitida odam boshi yoki gavda rangtasvirini ishlashda yuqorida aytib o'tilgan o'zigaxoslikni o'zlashtirib olish bilan birgalikda taniqli rassomlar ijodidagi plener rangtasvirini o'rganish, tahlil qilish kerak. Plener rangtasvirida ijod etib, yuqori darajaga erishgan ko'pgina rassomlar ijodini o'rganish ko'proq samara beradi.

Ishlash jarayonida shuni kuzatish mumkinki, talaba ishlayotgan matoga quyosh hamda atrofdan turli reflekslar tushib turadi. Uning rangtasviri yorqin va jarangdor ko'rindi. Xonaga olib kirilishi bilan rangtasvir o'z yorqinligini yo'qotib rangsiz, kulrang tus oladi. Shuning uchun ish jarayonini to'g'ri tashkil eta bilish kerak. Mato kuchli quyosh nuri va reflekslardan holi bo'lishi kerak. Har bir seansdan so'ng rangtasvirni xona sharoitida kuzatib ko'rish kerak. Bu esa ishingizni o'z vaqtida nazorat qilib turish, xatolarni vaqtida tuzatish imkoniyatini beradi.

Har bir mashg'ulotga aniq vazifa belgilash zarur. Dastlabki ishlarda mayda ishlov berish befoyda. Masalan, agar bosh tasviri mashqida quyosh nuri va kenglikni ifodalash vazifa qilib berilgan bo'lsa-yu, talaba mayda detallarni puxta ishslash bilan ovora bo'lib qolsa, natijada boshning muhitidagi rang koloritini yo'qotib qo'yadi va naturadan quruq ko'chirish kabi yomon illatni egallay boshlaydi.

Har bir uzoq muddatli mashqdan oldin 15 – 30 daqiqaga mo'ljallangan ranglavha ishlab olish zarur. Yorug'lik tez o'zgaradigan plener sharoitida dastlabki taassurotni muhrlab qo'yadigan qisqa fursatlari ranglavhalar ishslash ayniqsa muhim.

**MASHQ. Kunduzgi quyosh nurida yoritilgan boshning ranglavhasi.**

Mashqning maqsadi – kunduzgi quyosh nurida yorug'lik muhitini ifodalash. Bosh quyosh nuri bilan yoritilgan bo'lsa, bo'yоqlarning umumiy

gammasi yorug'lashadi. Kuchli quyosh nuridan boshning lokal rangi deyarli rangsizlanib qoladi.

Quyosh nuri qiya burchak ostida yoritilishi biroz kamayadi. Boshning yoritilgan qismi reflekslar yordamida asta ma'lum ranglarni egallay boshlaydi. Yuqoridagi osmon rangi, pastdan yer, ko'katlar tasvirlanayotgan boshga reflekslar berib ranglar kuchayadi.

Soyadagi kolorit ranglar naturaning yorug' qismiga nisbatan ancha kontrast boladi. Bu kontrastlik o'ta shaffof, serbo'yoq va to'yiganligi bilan xarakterlidir. Moviy osmondan tushgan refleks qolgan barcha reflekslarni birlashtirib, umumiy rang koloritini yaratadi. Quyosh nuridagi reflekslar juda kuchli, rangda juda to'yigan va tusda yorug' boladi. E'tibor berish kerakki, bunday qo'yilmaning yoritilgan qismida rang sustroq va aksincha soyada rang jarangdorroq boladi. Tajribasiz rassomlar bunday sharoitda xatolikka yol qo'yishadi, ya'ni reflekslarni juda yoritib yuborishadi yoki aksincha, soyani qoraytirib olishadi.



Bulutli kunda bosh etyudini uzoqroq muddatda yozish mumkin, quyoshli kunda esa ertalab yoki kechki payt 1 soatdan oshmaslik kerak. Bulutli kunda yoruglik tez o'zgarmaydi, quyoshli kunda esa aksincha. Shuning uchun quyoshli kunda etyudlarni kichik hajmda 1 seansga mo'ljallab ishlash tavsiya etiladi.

### ***MASHQ. Soyadagi boshning ranglavhasi.***

Ma'lumki, bulutli kunda narsa va buyumlar quyoshli kunga qaraganda xiraroq, to'qroq ko'rinadi. A.Abdullayev, R.Ahmedov, M.Nabiiev, R.Choriyev, G.Abdurahmonov kabi taniqli rassomlarning asarlarida eng yorqin va jarangdor ranglar majmuasini serquyosh kunda ifodalagan talaygina asarlarida ko'rish mumkin.

Rassom palitra shkalasining eng past tusi bulutli kun manzaralariga mansubdir. Aynan shunday kunda odam boshi rangtasvirini ishlashdan

oldin tasvirda ishlataladigan ranglar diapozonini aniqlab olish zarur. Quyoshsiz kunda tasvirlanayotgan odam boshi rangtasvirida juda yorqin, to'yingan ranglarni ishlatib bo'lmaydi. Quyosh nuri bulut oralab ketadi va natura bir xil yorug'lik bilan yoritiladi. Bu esa nurning spektr xususiyatini yo'qotadi. Natijada boshning xarakteristikasi o'zining tabiiy lokal (predmet) xarakteristikasiga yaqin bo'ladi. Bulutli kunning bu xususiyati talabalardan yanada e'tiborliroq bo'lib, shakl ifodasini ishlashda ko'proq tasavvurga tayanishlariga majbur etadi.

*MASHQ. Kechki yoki ertalabki yorug'likda ishlangan boshning ranglavhasi.*

Mashqning maqsadi - naturaning ertalabki va kechqurungi yoruglikdagi rang ifodasini o'zlashtirish.

Avvalo bu mashqning ertalabki va kechki spekr nurlanish xususiyatlarini eslab ko'rish lozim. Yorug'lik muhitini tahlil qilib, kechki quyosh nurida yoritilgan boshda zarg'aldoq-qizil ranglar, soya qismida osmonning sovuq refleks tuslanishlari mavjud boladi. Masalan, zarg'aldoq quyosh nurida boshning soya qismida zangori, sariq nurdagi soya qismida esa havorang ranglar hosil bo'ladi.



Plener amaliyotida ertalabki va kechki qo'yilmalarini navbat bilan ishlash maqsadga muvofiqdir.

Ertalab qo'yilgan naturani ishlash kechqurungiga o'xshaydi, lekin ranglar yorqin va jozibadorroq boiadi. Ertalabki yorug'likning fizik xossasi shundan iboratki, havoda chang kamroq bo'lganligi uchun quyosh nuri spektrining keng diapazonida yerga tushadi.

Ertalab va kechqurungi yorug'likda naturani ishlaganda ishning

muvaqqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan yodda saqlab qolingan dastlabki taassurotga bog'liq.

Shuningdek, tasvirlash uchun tanlangan etyud o'lchami yana ham kichikroq bo'lgani ma'qul. Chunki kunning bu vaqtlarida (ertalab va kechqurun) o'zgarish juda tez sodir bo'ladi. Etyud vaqtiga 15-20 daqiqaga mo'ljallanadi.

Plenerda astoydil bir qancha etyudlar bajarilgach, uzoq muddatli mashqlarni 2-3 seansga mo'ljallab bajarish mumkin.

## PORTRRET RANGTASVIRI

Yuqorida bajarilgan mashqlar, asosan, boshning rangtasviriga qaratilgan edi. Portret kompozitsiyasi, badiiy obraz, umuman ijodiy vazifalar to'g'risida so'z yuritmadik. Kompozitsiya darslarida bu mavzu muhim o'rinni tutadi. Rangtasvir xususiyati ustida gap ketganda bu mavzuga qo'shimcha ijodiy portretning ba'zi bir talablari haqida fikr yuritsak.



Portretning to'g'ri topilgan yechimi uning plastik xarakteristikasi, ruhiy holati, psixologiyasini, shuningdek, uning millatini ham aniq ochib beradi.

Tomoshabinning asosiy diqqati portretning bosh, yuz qismiga ko'proq qaratilgan bo'ladi. Portretda eng muhimi uning ko'rinishi va yuz ifodasidir. Aynan shu ifodada insonning ichki ruhiy dunyosi aks etadi. Inson xarakterini, umuman butun borlig'ini yorqin namoyon etadigan ifodani topish juda muhimdir. Boshqa detallar esa, uni to'ldiradi va kuchaytiradi. Inson tasvirida ko'z, burun va lablar uning xarakterini ifodalaydi.

Portretda qo'llar ham katta ahamiyatga ega. Qo'lga qarab odamning kasbi, xarakteri, hatto bajaradigan ishini ham aniqlash mumkin.

Bosh xarakteri, uning burilib, egilib turishi, yuz mimikasi, gavdaning umumiy holati inson xarakterini ochishga yordam beradi. Insonning ichki ruhiy holatini ifodalash rassomning muhim, asosiy vazifasidir. Xarakterli ishoralar ham rassom nazaridan qolmasligi zarur. Ular yuz ifodasiga mos bo'lishi kerak.

Inson dunyoqarashi uning ruhiyati, har bir harakati, o'zini tutishi, voqealarga bo'lgan munosabati, fikrlashi ham obrazni to'laqonli yoritishga yordam beradi. Harakat insonning eng zo'r o'ziga xos xarakteridir. Bu narsani faqat mavzuli asar ishlaganda emas, portret ustida ish yuritish jarayonida ham unutish kerak emas.

O'zbekiston xalq rassomi, professor, Respublika BA faxriy akademigi Malik Nabiyev yaratgan betakror tarixiy asarlar sirasidan Beruniy portretini ko'rsatish mumkin.

Bu portret ustida izlanish 1949-yildan boshlanib 1973-yilgacha davom etadi. Taniqli musavvir bu portret ustida 32 yil izlandi. Bu siymo musavvir mo'yqalamida jonlanib Abu Rayhon Beruniy qiyofasi yaratildi.

Asarning jigarringga moyil bo'yoqlarda aks etishi ramziy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lib, bu siymo tarixiy shaxs ekanligidan dalolat berar edi. Ishlatilgan ranglardan tashqari, tashqi qiyofa, kiyim-kechaklarga, atrof-muhit tasviriga alohida e'tibor berilishi ham tarixiy muhitni tomoshabinga ifodali qilib ko'rsatishga imkon tug'dirgan.

Mutafakkir inson Beruniy obrazini rassom Malik Nabiyev bir necha yillik izlanishlari, uzoq vaqt davomida mashaqqatli ijodiy mehnat qilishi, alloma yashagan davrni o'rganishi, u yashagan joylarda bo'lishi hamda portretning bir necha bor eskiz va ranglamalarini ishlashi natijasida yuzaga keltirdi.

Portretda ilm muammolarini echishga chog'langan, vazmin nigohi esa olisga nazar tashlayotgan alloma siymosi ifoda etilgan. Rassom asarda ilm sirlarini yechish uchun butun vujudi bilan kirishgan tarixiy shaxs, insonparvar olim Abu Rayhon Beruniyning butun salobatini, nufuzini gavdalantiradi. Kartinaning keyingi ko'rinishlaridagi kitoblar, tibbiyotda, ilm, fanga bog'liq bo'lgan buyumlar Beruniyning qomusiy olim va mutafakkir inson ekanini yanada bo'rttirib ko'rsatilishiga xizmat qilgan.

Portret san'atida kiyim tanlanishi ham muhim o'rinn tutadi. Kiyim insonning kasbi, kelib chiqishi, ichki ruhiy holatini ochib berishga ko'maklashuvchi vosita hamdir.



*M.Nabiiev. Abu Rayhon Beruniy portreti.*

Portretda fon ham katta ahamiyat kasb etadi. Muvaffaqiyatli chiqqan fon tasvirlanayotgan portret bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Portret ishlaganda naturadagi kattalikdan kattaroq ishslash maslahat berilmaydi. Har qanday asar ma'lum bir masofada ko'rildi.

Portret san'atida o'xshashlikni topish o'ta muhim. O'xshashliksiz portret portret hisoblanmaydi.

Inson tashqi qiyofasini ichki qiyofasi bilan mos keltirish portretga xos xususiyatdir. "Portret san'atida rassomning ushbu odam to'g'risidagi fikri, tasavvuri yaratiladi".

Agar rassom portret yozishda yetuk texnik usulni o'zlashtirgan bo'lsa, dadil xarakatlar bilan rang va tus munosabatlarini mohirona uyg'unlashtira olsa, bu uning ulkan yutug'idir.

## **ODAM QOMATINI TASVIRLASH**

Odam gavda rangtasvirini ishlashdan oldin, uning mukammal qalamtasviri, konstruktiv qurilishi umumiy, yaxlit shakl va mayda bo'laklar ifodasini puxta o'rgangan bo'lishi kerak. Shaklni mohirona topa bilih, nisbatlarni to'g'ri aniqlash, yaxlit va mayda detallarning anatomik va

konstruktiv qurilmasini to'g'ri topish natijasida ko'zlangan natijaga erishish mumkin.

Rangtasvir – shaklning to'g'ri qurilishi tus va rang yechimining birligidadir. Kimki grizayl texnikasida odam tasvirini maromiga yetkazib bajara olsa, rangtasvirni ham muvaffaqiyatli chiqishiga zamin yaratgan bo'ladi.

Odam qomatining rangtasvirida uning hajmi, sirt, muhit sifatlari, rang yaxlitligi va mayda shakl ifodasini doimo solishtirib turish va fikr yuritib ishslash natijasida yaratiladi. Dastlabki rang qoplamadan boshlab, keyingi ishlovlargacha ochib beruvchi shakl xarakterini ish yakunida qanday bo'lishini hisobga olib rejalashtirish kerak bo'ladi.



*N.Bloxin. O'quv natura modeli.*

Yoritilishiga qarab rang yorqin, xira va och bo'lishi mumkin. Xuddi bosh rangtasviri kabi odam qomatining rangtasvirini ishlashda ham kompozitsiya ustida izlanib, bir necha ranglavhalar bajariladi. Eng chiroyli plastik yechim tanlanadi. Bu eskizlarda gavdaning kompozitsion-plastik yechimi, rang yechimi tanlanadi, o'lcham aniqlanadi. Model xarakterini ocha turib, rassom barcha psixologik nyuanslardan xarakterli xususiyatlardan eng ifodaliliginи ajratib topishi zarur. Kiyimsiz gavda tasvirida tana rang xususiyatlarini uning atrof-muhit bilan bog'liqligini

ifodalash kerak. Odam tana rangi o'zining tabiiy rangidan tashqari nozik ko'z bilan ilg'ash juda qivin issiq-sovuq, och-to'q tuslanishlarga ham ega bo'ladi.

Odam tanasidagi ranglarning turlicha bo'lishi birinchi navbatda qon tomirlarining chuqur yuzada bo'lishi, tanadagi yog' qatlamiga, teri yuzasi xarakteriga bog'liq. Ko'krak, qorin yoki yelka rangidan son terisi rangi tizza yoki oyoq tovoni rangidan farq qiladi. Yuz, qo'l, bo'yin odatda tananing yopiq qismlardan to'qroq bo'ladi. Tanadagi ranglar jilosи albatta reflekslarga ham bog'liq. Tananing yuqori qismiga shiftdan, oyoq qismiga poldan reflekslar tushib turadi. Bundan tashqari, fon va kiyimlар ta'sirini ham sezish mumkin. Yuz, tana, kiyimlarda fondan qo'shimcha to'ldiruvchi ranglar bo'ladi.

Yalang'och qomatni ishlash jarayoni to'g'risida professor O.E.Braz shunday degan: "Siz gavdaga yaxlit qarab ko'rishni o'rganing, busiz rangtasvir yozib bo'lmaydi. Yaxlit bo'laklarni doimo solishtiring, bo'yin va tizza, qorin va oyoqlarga qarang, yaxlitlikda ranglar kuchini topping". Shunday bo'lishi mumkinki, talaba naturani alohida bo'laklarga bo'lib ko'chiradi, natijada ish sifati buziladi.

Ikki kishilik qo'yilmada gavdalarni birgalikda ishlang, alohida-alohida ishlashga yo'l qo'y mang. Sizga yaqin turgan gavdaning tayanch nuqtasini topping, keyin masofani hisobga olgan holda ikkinchisini tasvirlang.

Bir gavdani ikkinchisi bilan solishtirib guruh shaklida birgalikda yozish kerak (yaxlit narsa singari). Qaysi gavdaning asosiyligini (kattalikda va masofada) oldindan belgilab olish zarur.

Gavda atrofidagi predmetlar rangi ishning rangtasvir yechimiga katta ta'sir etadi. Shuning uchun gavdani tasvirlab turib, albatta, atrofdagi predmetlar rangi bilan ham solishtirib turish shart. Albatta, bu ikkinchi darajali qo'shimcha detallarga asosiy obyekt bo'lgan odam gavdasidek ishlov berilmaydi.

*....artists can also work meticulously to refine the subject and achieve very developed surfaces that suggest volume.<sup>1</sup>*

....rassomlar ishlash jarayonini puxta olib borishadi, negaki tasvir jozibali bo'lishiga va ishlanayotgan ishlanma rang-barangligiga erishish maqsadida, natijada hajmli jonli aks ettirishdir.

Gavdani qo'shimcha nozik ranglar bilan boyitib borish kerak. Lekin ularning jarangdorligini oshirib yuborish kerak emas. Boshlovchi rassomlar.

<sup>1</sup>Thomas P., Anita Taylor. "Drawing" London. – 2004. p. 155.

odatda issiq va sovuq ranglarning oddiy tarkibidan foydalanishadi. Murakkab issiq ranglarni qandaydir qizg'ish rang bilan sovuq ranglarni yashil, siyohrang yoki ko'k rang bilan olishadi. Bunday ranglar tana sirti ifodasini bera olmaydi. Tanada deyarli har doim kamida 2–3 ranglar birikmasini ishlatish kerak.

Oxra, siena, kuydirilgan suyak rangi kabi bo'yoqlar tanadagi sovuq hamda issiq ranglarni chiroyli ifodalaydi. Ularning oq bilan aralashmasi turlicha issiq hamda sovuq ranglar tuslanishini kashf etadi. Politrada bo'yоq turi ko'p bo`lmasligi kerak. Chegaralangan ranglar bilan ko'p rang va tuslar topishga harakat qilish kerak.

Ishning yakuniy qismi — yaxlitlash, ya`ni mayda detallarning bir butunlikka bo`ysunishidir. Bu ishda asosiy bo'laklarning tus yechimiga e'tibor berish kerak. Agar ola-bula chiporlik yaxlitlikka xalaqit bersa, ularga ishlov berish kerak. Naturani yaxlit ko'rishga xalaqit berayotgan har bir bo'lakni o'z joyiga qo'yish kerak. Agar shunday qilmasak, qo'shimcha detallar asosiy obyektdan chalg'itib, diqqatni tortadi, yaxlitlikni buzadi. Agar rassom yaxlit ko'rishni o'rgangan bo`lsa, tasvirni oqilona bajaradi. Bu bosqichda gavda siluetiga ham e'tiborni kuchaytirish darkor.


Tasvirda juda nozik tus farqini saqlab qolish kerak. Siluetning ba'zi jaylorini kuchaytirib (chiziq orqali) ba'zi joylarni fon bilan qo'shib yuborish kerak. Qo'yilmada nimani bo'rttirib (chizib), nimani fonga yaqin tusda birlashtirib yuborishni hal etish zarur. Buni naturaga yaxlit qaraganda ajratib olish mumkin.

Shundan so'ng, gavdaning to'g'ri konstruktiv qurilmasiga ega bo'lish mumkin. Nihoyat, portreti ishlanayotgan odamning ichki psixologiyasini ochishga ham urinib ko'rish mumkin. Bu narsaga detallarni yaxlitlab, asosiy xarakterli joylarini bo'rttirish bilan erishish mumkin.

Shuning uchun tasviri chizilayotgan odamni uning o'zi uchun xarakterli bo'lган muhitda, ish ustida tasvirlagan ma'qul.


Yuz ifodasi, qol va gavda xarakteri, rang - aynan shu odamni xarakterlashi o'ta-muhimdir. Bu o'rganishlar, kuzatishlar portret kompozitsiyasi, plastik va kolorit yechimining asosiga poydevor bo'la oлади.

## ILOVALAR



*Tabiiy yoruqlikda bola portretini ishlash.<sup>1</sup>*

<sup>1</sup> Charles Reid. Portrait painting in watercolor. Published in the United States by Watson-Guptill Publications, New York. 2012. – page 147-148.



*Erkak kishi libosli portretining turli korinishlardagi tasvirlari.*



*Ayol kishi portretini turli nuqtalardan yozilgan o'quv etyudlari.*



*Ayol kishining libossiz yarim qomatini ishlash.*



*D. Kardovskiy. Binafsha rangli ko'ylakdag'i qiz.*



*Turli materiallarda ayol kishining libosli qomatini ishlash.*



*Etyud  
qalamtasviri.*



*Suyuq akvarel  
bo`yog`ida yozish.*



*Yuzning yorug` va  
to`q qismiga ishlov  
berish.*



*Qo`l va kiyim qismlariga  
ishlov berish.*



*Ayol boshi etyudlarini yakunlash.*

## ***GLOSSARIY***

Avtoportret — portret janrining ko'rinishlaridan biri bo'lib, rassomning o'zini tasvirlashi.

Axromatik rang — oq, kulrang, qora ranglar bir-biridan yorug'lik kuchlari bilan farqlanadi.

Asosiy rang — tabiatda mavjud bo'lgan sariq, qizil va zangori ranglar.

Amaliy grafika — grafika san'atining turlaridan biri.

Animalist — (lotin "animal"- hayvon) hayvonlarni tasvirlovchi rassom yoki haykaltaroш.

Applikatsiya — har xil rangli qog'oz yoki mato parchalaridan soya tasvir (siluet), naqsh, gul va hokazolarni qirqib qog'ozga yoki maxsus pannoga yopishtirish.

Assimmetriya — nomutanosiblik, biror buyum qismlari, bo'laklarining ma'lum bir nuqta, chiziq yoki tekislikka nisbatan bir-biriga o'xshamasligi, munosib kelmasligi.

Afrodisiya — qadimgi yunon afsonalaridagi sevgi va go'zallik ma'budasi.

Batalist — jang manzaralarini tasvirlovchi rassom.

Venera — Yunon va Rim afsonalarida muhabbat va go'zallik ma'budasi.

Vitraj — (frans — deraza oynasi) rangli shisha, oyna bilan dekorativ xarakterdagi naqsh yoki tasvir ishslash.

Garmoniya — xarmoniya (grek) — bog'liq bo'lish, munosiblik, muvofiqlik, badiiy asar qismlarining mutanosibligi.

Grizayl — (frans. grizaille, griz — kul rang) kul rang yordamida bir rangning har xil tuslari orqali ishlangan tasvir.

Diptix — (grek, diptigos-ikki qatlangan) o'rta asrlar san'atida keng tarqalgan, ikki qismdan iborat relef va rangtasvirdan tuzilgan asar.

Drapirovka — fon uchun ishlatiladigan har xil rangli materiallar, gazlamalar.

Janr — (frans. tur. ko'rinish). Tasviriy san'atda janr deyilganda, biror bir mavzuni o'zida aks ettiradigan san'at asarlari tushuniladi. Masalan, manzarada tabiatning turli ko'rinishlari aks ettiriladi.

Interyer — uyning ichki ko'rinishining tasvirlanishi.

Iliq rang — olovni, quyoshni eslatuvchi sariq, to'q sariq, sarg'ish, zarg'aldoq va qizil rang kabilar.

Illyustratsiya — kitob, gazeta-jurnal grafikasining ko'rinishlaridan biri bo'lib, matn yoki hikoya bilan bog'liq bo'lgan, shu hikoyadagi lavhaning ko'rinishini o'zida aks ettiradigan rasmlardir.

Inkrustatsiya — (lotin) har xil materiallarni birlashtirilib, san'at asari yaratish.

Kapitel — (lotin. kalla, bosh) ustunning yuqori qismi bezagi.

Kompozitsiya — (lotin. Kompositio — tuzilish, qurilish) badiiy asardagi obrazlar va badiiy vositalarning muayyan g'oyaviy maqsadga xizmat qiladigan tartibda joylashishi va ularning muvofiqligi.

Kompanovka — chiziladigan buyum, manzara va boshqalarni qog'oz yuzasiga mos qilib joylashtirish.

Kolorit — yozilgan asarda mujassam ranglar majmuasi.

Kontrast- qarama-qarshilik, zidma-zidlik, ranglarning o'zaro qarama-qarshiligi. Bir rangning yonida ikkinchi rangning yanada yorqinroq, keskinroq, ko'rinishi. Yashil rangning yonida qizil rang yanada jozibali, chiroyliroq ko'rinadi va hokazo.

Kontur — tarh, tashqi ko'rinish. Narsaning qalamtasvirini ishlashda qo'llaniladigan zirh chiziq.

Kopirovka — naqshlarning, qalamtasvirini qog'oz va gazlamaga ko'chirishda ishlataladigan qora, qizil, sariq, zangori tusdagi rangli qog'ozlar.

Lok — Moybo'yoqlarda ishlangan tasvirlar uchun alohida lok qo'llaniladi.

Lessirovka — rangtasvir texnikasi usullaridan biri. Qurigan qalin qatlam yuzasiga yorqin yoki yarim yorqin ranglarning berilishi.

Mozaika — rang-barang shisha, toshchalar, yog'och, faner, charm qiyqimlaridan bir-biriga zinch qilib yonma-yon yopishtirish yo'li bilan hosil qilingan rasm.

Molbert — qalamtasvir va rangtasvir ishlash uchun qo'llaniladigan moslama.

Mazok — surtma, mo'yqalamda keskin va uzib-uzib ishlash. bunda asosan mo'yqalamning karton yoki matoda qoldirgan o'ziga xos izlari.

Nabroska — xomaki ish, qoralama, o'ziga xos chiziq va chiziqlar yordamida tez bajariladigan tarxli tasvir.

Natyurmort — (frans. jonsiz tabiat) tasviriy san'at janri. Gul, meva, sabzavot, qushlar, uy-ro'zg'or buyumlari, ayrim mehnat qurollari tasvirlanadi.

Plakat — (lotin. e'lion, guvohnoma). Grafika san'atining turlaridan biri bo'lgan plakatda tasvir va yozuvlar yoki faqat yozuvlar o'zining badiiy ifodasi orqali davrning eng muhim voqealarini tomoshabinga yetkazadi. Plener — ochiq kenglik.

Rangtasvir — devorlarga ishlangan turli rasmlar, polotnolarga chizilgan surat, kino va teatr bezaklari.

Reproduksiya — tasviriy san'atga nisbatan olinadigan. haqiqiy badiiy asarning poligrafiya vositalari yordamida qayta hosil qilingan ko'rinishi.

Restavratsiya — (lotin, tiklash) zarar ko'rgan tasviriy badiiy asarlarning umrini uzaytirish va ilmiy usullardan foydalanib, asl holiga qaytarish.

Retush — (frans. to'g'rakash) tasvirning aniqlangan kamchiliklarini bo'g'rakash.

Ritm — yaratilgan asar komponentlarining ohangdor, tekis yoki dinamik qaytarilishi.

Syujet — (frans. buyum, narsa. harakat). Tasviriy san'atda tasvirlangan buyum yoki voqealari tushuniladi. Hayotiy voqealari, lavha, harakat.

Siyoh qalam — kichik mo'yqalam bilan naqsh taxini bo'yoqda chizib chiqish.

Sovuq ranglar — muz, qor, suvni eslatuvchi havo rang, zangori, ko'kish yashil, to'q binafsha kabi ranglar.

Tasviriy san'at — odatda, mavjud borliqni ko'rinarli obrazlar, shakllar orqali fazoviy kenglikda, yuzada yoki tekislikda (masalan, qog'oz yuzasida, devor sathida va h.k.) aks ettira oladigan san'atdir.

Etyud — (fransuzcha. "o'rganish") yirik asarlarni ishlash uchun bevosita naturadan, hayotdan ishlanadigan kichik lavha.

Etyudnik — etyud ishlashga moslashtirilgan ko'chma dastgoh.

Qo'shimcha ranglar — qizil, sariq va zangori bo'yoqlarning aralashuvidan hosil bo'ladigan omuhta ranglar.

Xolst — rangtasvir uchun maxsus tayyorlangan mato.

**«RANGTASVIR» FANIDAN TEST SAVOLLARI**

T.r	Test savollari	javob	javob	javob	javob
1	“A.Navoiy va Xusayn Boyqaroning yoshligi” asarining muallifi kim?	J.Umarbekov	B.Jalolov	A.Yusupov	F.Mannopov
2	“A.Navoiy” asari kim tomonidan yaratilgan?	A.Abdullayev	L.Abdullayev	S.Abdullayev	E.Abdullayev
3	“Boysun madonnasi” asarining muallifi kim?	V. Burmakin	A. Yusupov	O. Qozoqov	M. Irgashev
4	“Burlaklar Volgada” asarining muallifi kim?	I.Repin	P.Bryullov	P.Benkov	Kovalevskaya
5	“Buvi va nevara” asarining muallifi kim?	R. Ahmedov	Savrasov	Kuindji	Leonardo da Vinci
6	“Choyga” asarining muallifi kim?	Z.Inog’omov	A. Mo’minov	K. Eminov	Z.Inog’omxo’ja yev
7	“Doirachi qiz” asarining muallifi kim?	N.Kashina	P.Benkov	F.Ufimsev	V.Eremyan
8	“Dutorchi qiz” asarining muallifi kim?	P.Benkov	F.Mannopov	B.Yusupov	R.Ahmedov
9	“Farishta va shayton” asarining muallifi kim?	A.Yusupov	Ahmadaliyev	J.Umarbekov	G’.Qodirov
10	“Jaloliddin Manguberdi” portretining muallifi kim?	T.Kuryazov	U.Kuryazov	Xudoyberganov	E.Masharipov

11	“Keksa kolxozchi Zulun buva portreti” qaysi rassomga tegishli?	V. Fadeyev	A. Lunev	A. Usmonov	Kuttimurodov
12	“Marionetka” asarining muallifi kim?	Akmal Nur	B. Ismoilov	B.Nazarov	O. Muinov
13	“Mehnatda ham askar” asarining muallifi kim?	R.Ahmedov	N.Qo’ziboev	R.Choriyev	Usto Mo’min
14	“Oila” asari kimning qalamiga mansub?	M. Saidov	R. Ahmedov	I. Jabborov	J. Izentayev
15	“Onalik-Tong” asari mallifi kim?	R.Ahmedov	E.Ahmedova	N.Ahmedova	M.Ahmedov
16	“San’at atributlari” asari qaysi rassom tomonidan yaratilgan?	J. Sharden	P. Picasso	I. Shilov	M. Vrubel
17	“Shaftoli va qiz” asarining muallifi kim?	I. Repin	R. Ahmedov	P. Benkov	Abduraxmonov
18	“Yana ikki oldingmi” asarini ng muallifi kim?	F. Reshetnikov	I. Repin	Usto Mo’min	N. Karaxan
19	“Zaxchalar uchib keldi” asarining muallifi kim?	A. Savrasov	I. Shishkin	I. Levitan	V. Serov
20	«Grizayl» tasviriy san’atning qaysi sohasiga mansub?	Rangtasvir	Ikkala sohaga	Qalamtasvir	Haykaltaroshlik
21	«Grizayl» texnikasida nima uchun ishlanadi?	Och-to’qlik, tuslarini yaxshi ajratishni o’rganish;	Mahoratlari rasm chizish uchun;	Rangtasvirni o’rganish uchun;	Qalamtasvirni o’rganish uchun

22	«Lessirovka» deganda nimani tushunasiz?	Quyuq bo'yoq qatlami ustidan rangni jilolash, boyitish uchun beriladigan, suyuq bo'yoq qatlamini	Bo'yoqni suyuq va quyuq qilib ishlatalish metodini	Suyuq bo'yoqning tasvir ustidan to'qlashtirilishini	Quyuq bo'yoqning tasvir ustidan surtilishini
23	«Pinen» nima uchun ishlataladi?	Rangtasvida moybo'yoqlarni suyultirish uchun	Rasm chizganda surkalmasligi uchun	Rangtasvirni ishlashning ikkinchi bosqichi boshlash uchun	Uylarni qurish uchun
24	«Planshet» asosan nima uchun xizmat qiladi?	Qog'ozni tekis bo'lib turishiga, chizishda talabaga qulaylik yaratishga;	Rangtasvir ishlashga;	Qalamtasvir, kompozitsiya ishlashga	Qalam, ruchkalarni qo'yishga
25	«Podmolyovka» nima?	Rangtasvir ishlanganda beriladigan dastlabki bo'yoq-rang surtmasi	Rasm chizganda beriladigan quyuq rang surtmasi	Rangtasvirni ishlashning ikkinchi bosqichi	Uylarni qurish uchun mo'ljalangan uslub
26	«Sangina» quruq holda ishlataladimi yoki suyuq holdami?	Quruq holda	Suv aralashtirilib	Ham quruq, ham suyuq	Bo'tqasimon holda
27	Abu Rayhon Beruniy portretining muallifi kim?	M.Nabiiev	M.Saidov	S.Abdullayev	M.Nabixonov
28	Akademizm nima?	Klassitsizminin g so'nggi ko'rinishi	Haykaltarosh likning bir turi	Amaliy san'atning bir ko'rinishi	Manzara ko'rinishi
29	Akvarel mo'yqalami bilan moybo'yoqda ishlash mumkinmi?	Yo'q mumkin emas	Ishlash mumkin emas	Chorasiz qolganda	Mumkin agar mo'yqalami ko'p bo'lsa
30	Akvarel qurigach, ochlashadimi?	O'zgarmaydi	Ochlashadi	To'qlashadi	Qorayadi

31	Akvarel bo'yog'i nimasi bilan farqlanadi?	Suv bilan ishlash texnologiyasi orqali	Quyuq, qog'ozga yaxshi yopishishi uchun	O'rtacha, tiniq-nozik bo'lishi uchun	Ranglarning bo'g'iqligi
32	Akvarel bo'yog'i qaysi san'at turlarida ko'proq qo'llaniladi?	Rangtasvir	Plakat	Kitob-jurnal grafikasi	Miniatyurada
33	Akvarel bu qanday rang ?	Suv yordamida ishlataladigan	Loy yordamida ishlataladigan	Moy yordamida ishlataladigan	Pinen yordamida ishlataladigan
34	Akvarel ishlaringning asosiy sifati nimalarda namoyon bo'ladi?	Nozik, nafisligida	Bo'yoqning quyuqligida	Chizgining aniqligida	Ranglarning yorqinligida
35	Akvarel so'zining ma'nosi?	Suv bilan yozaman	Loy bilan yozaman	Moy bilan yozaman	Tosh bilan yozaman
36	Akvarenga nima qo'shib ishlataladi?	Suv	Maxsus emulsiya	Eritgichlar	Kerosin
37	Akvarelda natyurmort ishlash nimadan boshlanadi?	Fondan	Birinchi plandan	Ikkinchi plandan	Natyurmortda gi buyumlardan
38	Akvarelda nima uchun oq bo'yoq ishlatilmaydi?	Akvarel texnikasi buni taqozo qilmaydi	Bunda qog'ozning va nozik suv bo'yoq imkoniyatlari dan foydalanish mumkin	Bu turdag'i bo'yoqni Akvarel ko'rinishda ishlab chiqarish mumkin emas	Moybo'yoq texnikasi taqozo etadi
39	Animal janr bu?	Hayvonlarni tasvirlaydigan janr	Suvlarni tasvirlaydigan janr	Daraxtlarni tasvirlaydigan janr	Odamlarni tasvirlaydigan janr
40	Arka nima?	Bino devorlaridagi eshik va deraza o'rinalining yoysimon	Bino devorlaridagi eshik va deraza o'rinalining	Hozirgi zamon texnologiyasi asosida ishlangan eshik va derazalar	Pedagogik texnologiya

		qurilmasi.	to'rburchak qurilmasi		
41	Asar deb nimaga aytildi?	Har tamonlama mukammal ishlangan san'at turiga	Yorug'lukning buyumga tushishiga	Kartinadagi buyumning shakliga	Qo'yilmani qog'ozda joylashtirishga
42	Asosiy ranglar qaysi qatorda to'liq berilgan?	Qizil, zangori, sariq	Sariq, oq, qora	Zarg'aldoq, ko'k, jigarrang	- yashil, siyohrang, zangori
43	Assimetriya iborasi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?	Buyum bo'laklarining bir-biriga o'xshamasligi	Rangtasvir ishlash	Mutanosiblik, buyum bo'laklarining bir-biriga mos kelishi	Qalamtasvir ishlash
44	Avtoportret bu...	Muallifning o'z ko'rinishini tasvirlashi	Buyuk insonlar siymosini yaratish	Xayoliy inson qiyoferini tasvirlash	Qo'shnini tasvirlash
45	Axromatik ranglar qaysi qatorda ?	oq, qora, kulrang	jigarrang, sabza, havorang	barikaram, zarg'aldoq, binafsha	qizil, havorang, sariq
46	Badiiy obraz deganda nimani tushunasiz?	Rassom tomonidan har tomonlama mukammal yaratilgan asardagi obrazlar.	Rangtasvir ishlashga;	Qalamtasvir, kompozitsiya ishlashga	Qalam, ruchkalarni qo'yishga
47	Barelef nima?	Barelef yuzaga nisbatan bir oz qavargan haykaltaroshlik ning bir ko'rinishi	Rangtasvirni ng bir ko'rinishi	Amaliy san'at asarining bir ko'rinishi	Beshburchak shaklidagi asar
48	Batal janri deganda nima tushunasiz?	Jang ko'rinishlarini tasvirlovchi janr	Buyumlarni tasvirlovchi janr	Manzara janri	Natyurmort janri
49	Binafsha rang qanday hosil bo'ladi	Qizil va ko'k	Sariq va ko'k	Oq va yashil	Qora va sariq
50	Buyum tekisligi deb nimaga aytiladi?	Buyumning joylashgan joyi	Buyumlar to'plami	Buyumning perspektivada ko'rinishi	Buyumlar ketma-ketligi

51	Buyumlarni tasvirlashda ufq chizig'i nechta holatda bo'lishi mumkin?	1 ta	7 ta	9 ta	3 ta
52	Byust nima?	Inson obrazi beligacha tasvirlansa byust deb ataladi.	Yuzaga bo'rtib ishlangan tasvir byust deb ataladi.	Yuzaga nisbatan ko'p bo'rtib ishlangan tasvir byust deb ataladi.	Odam yuzining maskasi
53	Jigarrang issiq rangmi yoki soviq rangmi?	Issiq rang	Sovuq rang	Och rang	To'q rang
54	Chizmatasvirda qanday qalamlar qo'llaniladi?	Qora rangdagi Qattiq - yumshoq qalamlar	Oq - ko'k tusdag'i tez quriyidigan rangli qalamlar	Qizil rangdagi moybo'yoqli qalamlar	Oq rangdagi qalamlar
55	Dastgohli grafika nima?	Kitobga ishlanadigan grafik asarlar	Moybo'yoq asarlar	Haykaltaroshlik asarlar	Kandakorlik asarlar
56	Dastgohli rangtasvir bu...	Molbertga o'rnatib xolstga moybo'yoq orqali ishlanadigan asar	Haykaltarosh - lik datgohida ishlanadigan asar	3-D ko'rinishidagi asar	Polga yotqizib ishlanadigan asar
57	David haykalining muallifi kim?	Mikelanjelo	Titsian	Leonardo da Vinci	Miron
58	Diptix nima?	Ikki qismidan iborat rangtasvir asari	Besh qismidan iborat kompozitsiya	To'rt qismidan iborat rangtasvir asari	Mahobatli rangtasvir asari
59	Drapirovka bu...	Natyurmort va natura fonida ishlatalidigan turli rangdagt matolar	Buyumlar to'plami	Kartinadagi buyumning shakli	Rangli qog'ozlar
60	Dunyoga mashhur "Ermitaj" muzeyi qaysi shaharda joylashgan?	Sankt-Peterburg	Moskva	Nyu-York	Parij

## MUSTAQIL ISHNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga oлган holda quyidagi shakklardan foydalanish tavsiya etiladi:

- Darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'rganish;
- Maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishslash;
- Talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqod ishlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqr o'rganish;
- Faoл va muammoli o'qitish uslubidan foydalanaladigan o'quv mashqulotlari;
- Masofaviy (distantsion) ta'lif.

### Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. Usta rassom va pedagoglarning rangtasvir bo'yicha yaratgan asarlarini tahlil qilish;
2. Tasviriy san'atning asosiy qonun va qoidalarini namoyish etgan plakatlarni o'rganish;
3. Tasviriy san'atga oid maxsus adabiyotlarni mutolaa qilish;
4. Natyurmort, portret, manzara kompozitsiyasi. Tabiat qo'ynida chiziqli va havo perspektivasini qo'llagan qolda qalamchizgi va qoralamalar ishslash;
5. Rassomlar ustaxonalari, ko'rgazma zallari va galereyalarga tashrif buyurish hamda ulardan nusxalar olish;
6. Konstruktiv anatomik tuzilish asoslarini hisobga oлган holda ayol qiyofasining yuz tuzilishining xarakterli xususiyatlarini e'tiborga oлган holda boshning yelka bilan birlashuvini aniqlab tasvirlash (bo'yin va yelka muskullari bog'lanishini ifoda etgan holda).
7. Yalang'och gavdaga qarab turli nuqtalardan tez qalamchizgilar bajarish, inson tana bo'laklarining konstruktiv - anatomik jihatdan tuzilishini o'rganish.
8. Asarlarning namunalari (reproduktsiyalar) bilan tanishib, ularni tahlil qilish.
9. Tezkor yordamchi vazifani o'tovchi ranglavhalar va chizmatasvirlar bajarish.
10. Maxsus kompozitsiya bo'yicha chiqarilgan qo'llanma va kitoblar mutolaasi.
11. Chizmatasvirlar, ranglavhalar, eskizlar bajarish.
12. Turli bino ichki ko'rinishi (intererlar) kompozitsiyasini rangtasvirla-ri ustida ish olib borish.
13. Tabiat qo'ynida yordamchi ashyolar (ranglavha va chizmalavhalar) toplash.
14. Aniq tanlab olingan joyda aslidan qarab ranglavhalar ishslash.
15. Mavzuli-voqeaband kompozitsiya ustida bosqichma-bosqich ish olib borish.
16. Plakat san'atiga oid namunalar bilan tanishish.
17. Yordamchi ashyo vazifasini o'tovchi narsa va qiyofalar tasvirini chizish.
18. Darslar jarayonida qilingan amaliy ishlarni davom ettirish.
19. Taniqli rassomlar (portretchi ijodkorlar) asarlarini ko'rib tahlil qilish, uslublarini o'rganish.
20. Me'moriy loyihalardagi mahobatli san'atga oid namunalar bilan ya-qindan tanishish. Bino interyerlari va eksteryerlarini borib ko'rish, nusxalar olish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### 1. Asosiy adabiyotlar

1. Abdirasilov S., Tolipov N., Oripova N. **Rangtasvir.** T.:“O’zbekiston” -2006.
2. Xalilov R. **Akvarel.** T.: “Navro’z” - 2013.
3. Suzanne Brooker. **The elements of landscape oil painting.** Techniques for rendering sky, terrain, trees and water. New York. 2015. – 665 page.

### 2. Qo’shimcha adabiyotlar

1. Abdullayev N.U. “San’at tarixi”. T.:“O’qituvchi”-1986.
2. Abdullayev N.U. “San’at tarixi” . T.:“San’at”-2001.
3. Azimova B.Z. “Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi”. T.:“O’qituvchi”-1984.
4. Abdirasilov S. “Tasviriy san’at atamalari”. T.: 2003.
5. Abdirasilov S., Tolipov N. “Rangtasvir”. T.: “Bilim”-2005.
6. Abdullayev N. “Portret”. T: “San’at”-2012.
7. Abdirasilov S., Azimov B. “Rangtasvir”. T: “Musiqo”- 2011.
8. Барш А.О. «Наброски и зарисовки». М.:1990.
9. Беда Г.В. «Живопись». М.: 1989.
10. Воуметов V., Abdirasilov S. “Chizmatasvir”. T.: “G.G’ulom NMIU”-2004.
11. Кузин Б.С. «Наброски и зарисовки». М.: 1990.
12. Молева Н.М. «Выдающиеся русские художники-педагоги». М.: 1991.
13. Nabiiev M. "Rangshunoslik". T: "O'qituvchi"-1995.
14. Oydinov N. "Rassom o'qituvchilar tayyorlash muammolari". T: "O'qituvchi" — "Ziyo Noshir"-1997.
15. Oripov B. "Tasviriy san’at va uni o’qitish metodikasi". T: "Ilm- Ziyo"-2005.
16. Pol Leveyll. Emotsionalniy portret. Minsk, Popurri, 2000.
17. Turdaliyev A. “Kompozitsiya”. Ma’ruzalar to’plami. - Nam.:2000.
18. Egamberdiyev A. “Rahim Ahmedov”. T.:1994.
19. Hakimov A., Bahodir Jalol. “Album”- 1999.
20. Hakimov A., Sergey Alibekov. “Album”- 1999.
21. Hakimov A. Akmal Nur. Katalog. - T.: 1998.
22. Xudayberganov R. “Rangtasvirda rang”. T.:“San’at”- 2007.
23. Xudayberganov R. Katalog. “Ruhiyat olami talqinlari”.T: “Noshir”-2011.
24. O’zbekiston san’ati (1991-2001 yillar). - T.:2001.
25. Ростовцев Х. «Академический рисунок». М: 1985.
26. Ten N. “Gips modellarining rasmi”. T: “O’qituvchi”-1994.
27. Терентьев А.Е. «Изображение животных и птиц средствами рисунка и живописи». М.: 1980.
28. Xasanov R. “Maktabda tasviriy san’at o’qitish metodikasi”. T: “Fan”-2004.
29. Шорохов Э.Б. «Основы композиции». М..:“Просвещение”,-1976.
30. Яшухин А.П. «Живопись». М.:1990.
31. Charles Reid. *Portrait painting in watercolor.* Published in the United States by Watson-Guptill Publications, New York. 2012.p. 154
32. P.Thomas, Anita Taylor. Drawing. London., 2004. p.155

## MUNDARIJA

Kirish .....	..3
Rangtasvir janrlarining xilma-xilligi .....	4
Zamonaviy tasviriy san'at oqimlari .....	25
Rangtasvirda qalamtasvirning ahamiyati.....	53
Ranglar xususiyati .....	58
Rangtasvirda rang .....	61
Hajm, fazo va materiallik .....	67
Natyurmort qo'yilmasi .....	79
Natyrmort kompozitsiyasi.....	82
Akvarel bo'yog'ida natyurmort ishlash .....	88
Nisbatlar munosabati.....	95
Tus munosabatlari.....	97
Ranglar munosabati.....	99
Yoritilishning umumiy tusli va rangli holatlari .....	102
Ranglarni yaxlit ko'rish.....	106
Tasvirning yaxlitligi va kompozitsiya markazi.....	113
Asosiy rang munosabatlarini idrok qilish va tasvirlash .....	126
Yoritilishning umumiy va rangli holati .....	128
Manzara obyektlarida kolorit birligi va yoritilish rangi .....	129
Manzarada mayda bo'laklarni tasvirlash .....	131
Manzarada kenglik.....	134
Odam boshi va gavdasining rangtasviri.....	139
Boshning rangtasviri (tabiiy yorug'likda).....	145
Sun'iy yoritilgan boshning rangtasviri .....	151
Plener sharoitida boshning rangtasviri.....	153
Portret rangtasviri.....	157
Odam qomatini tasvirlash.....	159
Ilovalar .....	163
Glossariy .....	167
«Rangtasvir» fanidan test savollari.....	169
Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni .....	175
Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari .....	175
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	176

**ABDIRASIROV SUNATULLA FAYZULLAYEVICH  
TOLIPOV NOZIM XAMIDOVICH**

**R A N G T A S V I R**  
**DARSLIK**

Toshkent - ““INNOVATSIYA-ZIYO” - 2019

Muharrir Xolsaidov F.B..

Nashriyot litsenziyası №023, 27.10.2018.  
Bosishga 29.04.2019.da ruxsat etildi. Bichimi 60x90.  
“Times New Roman” garniturasi.  
Offset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabogi 12. Nashr bosma tabog'i 11,1.  
Adadi 100 nusxa.